

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Ashirboyev Samixon

O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etgan

TOSHKENT – 2016

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining o'zbek tili va adabiyoti bakalavriat yo'nalishi o'quv dasturida talabalarga o'zbek shevalari to'g'risida ilmiy va amaliy bilimlarni berish ko'zda tutilgan. Ushbu darslikda o'zbek dialektologiyasining nazariy asoslari aks ettirilgan. Darslik ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulot materiallari, mustaqil ishlar mazmuni, ushbu fandan malakaviy (o'quv) amaliyoti dasturi materiallari hamda talabalar bilimni nazorat qilish bo'yicha testlarni o'z ichiga olgan. Unda asosiy tushunchalar o'zbek va ingliz tillarida berilgan. Darslikdan magistrantlar, ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

В учебной программе направления бакалавриата узбекский язык и литература предусмотрено дать студентам научные и практические знания по узбекской диалектологии. Настоящий учебник отражает основные теоретические вопросы узбекской диалектологии, а структура учебника состоит из текстов лекции, материалов для практических занятий, самообразования, программы квалификационной (учебной) практики и тестов для контроля знаний по узбекской диалектологии. В нем основные термины даны на узбекском и английском языках. Учебником могут пользоваться также магистранты и научные работники.

In bachelor degree educational program of "Uzbek language and literature" at pedagogical higher educational institutions to give the scientific and practical knowledge of Uzbek language dielects for students is foreseen. In this textbook the theoretical basis of Uzbek dialectology is described. The textbook comprises the lecture texts, practical training materials, contents of independent assignments, programs of qualificational (study) practices, and tests for knowledge assessment of the students. The main termins are given in Uzbek and English languages. The textbook can be used by the master degree students and researchers.

Taqrizchilar: **T. Enazarov**, filologiya fanlari doktori (O'zMU)

S. Muhamedova, filologiya fanlari doktori (TDPU)

Nizomiy nomidagi TDPU

Kirish

“O‘zbek dialektologiyasi” ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo‘lib, o‘zbek shevalarini o‘rganadi. **Dialektologiya** so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini hamda shevalarning faoliyatda bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u **milliy-ma‘naviy qadriyat** hisoblanadi. Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda **I. A. Karimovning: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir¹”**, – degan so‘zlarini eslash o‘rinlidir. Demak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan ma‘noni anglatmaydi.

O‘zbeklar hozirgi O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy Uyg‘uristonida va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar. Albatta, ularning tili o‘zbek tili bo‘lsa-da, o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari bo‘lib, uni o‘rganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, bo‘lajak til va adabiyot o‘qituvchisi uchun amaliy ahamiyatga ham molikdir.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘rganishdan **maqsad** o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik va, qisman, sintaktik xususiyatlari hamda lingvistik geografiya haqida

¹**Каримов И.** Ватан ва халқ мангу қолади. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – Б.123.

talabalarga zaruriy bilimlarni berishdir. Bu esa quyidagi *vazifalarni* keltirib chiqaradi:

- talabalarga o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha zaruriy bilimlarni berish va shu asosda tayanch tushunchalar to‘g‘risida tasavvur hosil qilish;

- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik qurilishi haqida ma’lumot berish;

- jahon tajribasidagi dialektologik bilimlar bilan tanishtirish;

- shevalarni o‘rganish metodlari bilan tanishtirish hamda sheva vakillaridan ma’lum bir sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish;

- adabiy til va sheva munosabatlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish;

- maktab va akademik litseylar ta’limida dialektal xatolarning oldini olishga nazariy va amaliy tayyorlash.

Har bir tildagi shevalarining mavjud holatini o‘rganuvchi fan *tasviriy dialektologiya* deb yuritiladi. O‘zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir. Bu fan boshqa fanlarni, shu jumladan, til tarixini o‘rganishda muhim manba ekanligi hisobga olinsa, bu jarayonda tarixiy dialektologiya to‘g‘risida ham fikr yuritish lozim bo‘ladi. Tilning rivojlanishi ayni o‘rinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi. Bu esa *tarixiy dialektologiya*ning tekshirish obyektidir. O‘zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya endigina shakllanib kelmoqda.

Turkologiyada shevalarni o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan boshlangan bo‘lsa, dialektologiya fan sifatida jonli xalq nutqiga qiziqish tufayli XVII asr oxirlarida Germaniyada shakllandi. Bu davrda Germaniyada xalq shevalaridan mahalliy so‘zlar yig‘ilgan va lug‘atlar tuzilgan. Shevalarni ilmiy asoslarda o‘rganish ishi esa XIX asrning ikkinchi yarmida “*Yosh grammatikachilar*” tomonidan amalga oshirildi va shevalar tabiiy, to‘xtovsiz va o‘z-o‘zidan rivojlanish mahsuli hamda til sistemasining qonuniy ravishda turli hududlariga tarqalgan tarkibiy qismi deb qaralgan.

Mavzu: “O‘zbek dialektologiyasi”ning asosiy tushunchalari

Reja:

1. Til va sheva munosabati.
2. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari.
3. O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi.
4. “O‘zbek dialektologiyasi”ning tilshunoslik va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi.
4. “O‘zbek dialektologiyasi”ning nazariy va amaliy ahamiyati.
6. O‘zbek shevalarini o‘rganish metodlari.

Matn

Til va sheva munosabati. Inson tili, asosan, uch funksiyani bajaradi: bir-biri bilan aloqa qilish vositasi, fikr ifodalash quroli, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilish imkoniyati. Konkret bir til shu til egalarining tilidir. Til egasi tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs, 2) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, 3) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs.

Sheva esa muayyan tilning mahalliy ko‘rinishi, uning asosidir. Shu o‘rinda sheva egasi tushunchasini ham e’tirof etish mumkin: 1) muayyan shevada nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs, 2) shevadan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, 3) o‘z shevasiga xos bo‘lgan lug‘at tarkibi, fonetik va grammatik xususiyatlarini egallagan hamda undan erkin foydalana oladigan shaxs. Bunday qarash aksariyat lingvistik manbalarda aks etgan, jumladan, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida nashr qilingan “Dialectology” darsligida tilga o‘zaro aloqa qilish, anglash mezoni, shevaga esa (dialekt) tilning real asosi, ildizi, quyi darajasi, qolipga tushmagan shakli tarzida izoh beriladi². Bu ta’rifdagi “quyi darajasi”, “qolipga tushmagan shakli” tushunchalari adabiy tilga nisbatlab aytilganligi sezilib turibdi (til va sheva-dialekt munosabati masalasi “Areal lingvistika” mavzusida yana oydinlashtiriladi).

Til va sheva egasi tushunchalaridagi farq shundaki, bir tilga egalik qilgan shaxs (agar maxsus o‘rganmagan bo‘lsa) boshqa tilni


² Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. Cambridge University Press. 2004. – T. 4

tushunmaydi, bir til ichidagi har xil sheva vakillari bir-birini tushuna oladi (1-rasm).

Sheva, dialekt va lahja tushunchalari. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda *sheva, dialekt, lahja* terminlari qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish, albatta, zarur.

Sheva forscha so‘z bo‘lib, *ravish, tarz, yo‘sin* degan ma’nolarni bildiradi va dialektologiya fanida o‘ziga xos leksik, fonetik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi (2-rasm). Chambers J. K., Peter Trudgillning belgilashicha, sheva muayyan tilning tarkibiy qismidir³.

2-rasm



Dialekt so‘zi yunoncha bo‘lib, *sheva, so‘zlashish* degan ma’nolarni bildiradi va aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.


Lahja arabcha so‘z bo‘lib, u *ravish, tarz, yo‘sin, sheva* ma’nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o‘zbek tilining

³ Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. Cambridge University Press. 2004. – T. 3.

taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'ldasini anglatadi.

O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular *qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi*, *qipchoq lahjasi*, *o'g'uz lahjasi*dir (3-rasm).

3-rasm




Lahja termini o'zbek, turk tillarida iste'molda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida ko'proq *dialekt* terminiga murojaat qilinadi. Shuningdek, rus dialektologiyasida *наречие* (lahja), *диалект*, *говор* (sheva) terminlari qo'llanadi. Ko'rinadiki, sheva, dialekt, lahjalar har bir tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi va ular muayyan til negizida amalda bo'ladi hamda "O'zbek dialektologiyasi"ning markaziy masalasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda *dialekt* terminini sheva va lahja ma'nosida qo'llash an'anasi ham bor.

Axborot manbalarida til, lahja, dialekt, sheva, sotsiolekt (ijtimoiy dialekt) tushunchalari *idiom* termini ostida birlashtiriladi. Boshqacha aytganda, *idiom* o'zga (qarindosh) tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil (alohida) tildir. Shuninhdek, adabiyotlarda lahja, dialekt, shevalar *tilning ko'rinishlari* (разновидность языка) deb ham yuritiadi.

Chambers J. K., Peter Trudgillar idiom va tilning ko'rinishlari terminiga mos keluvchi *variety* terminini qo'llagan.

Shevaning farqlanishi



Beshyog‘och dahasida: бәрсамъз ~ *bārsämiz*.

Xadra dahasida: бәрсовуз ~ *bārsovuz*.

Eski Jo‘va dahasida: бәрсо:вузә ~ *bārso:vuzä*.

Chorsu dahasida: бәрсо://бәрсок ~ *bārso://bārsok*.

Bunday nozik farqlarni barcha dialektlar tarkibidagi shevalarda ham korish mumkin⁴.

Lahja va til varianti masalasi. Avval aytilganidek, lahja har bir xalqning etnik taraqqiyoti tarixi hosilasidir. Aksariyat tillar bir necha lahjaning birlashuvidan tashkil topadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, o‘zbek tili uch lahja - *qarluq-chigil-uyg‘ur* lahjasi, *qipchoq* lahjasi, *o‘g‘uz*

⁴ Ularni mashg‘lotlar jarayonida ushbu fan o‘qituvchilari o‘z dialektlari misolida asoslab berishlari lozim bo‘ladi.

lahjasidan tashkil topgan. Ingliz tili *angliya, uels, shotland* dialektlariga ega, lekin ingliz tilining Britaniya, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi variantlari bor. Bu til variantlari *plyurosentrik* yoki *polisentrik* tillar deb ham yuritiladi. Ayni bir til turli davlatlarda o‘zining davlat maqomiga, standartlar tizimiga ega bo‘ladi va boshqa davlatlardagi ayni shu tildan va *negiz tildan*, xususan, keyingi misolimizda Britaniya variantidagi ingliz tilidan so‘z qo‘llash, terminlarning xususiyati, talaffuz meyorlari bilan farq qiladi. Ma’lumki, o‘zbeklar O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘izstonda ham yashaydilar, o‘zbek adabiy tilida ta’lim ishi olib boriladi, gazeta va jurnallar, kitoblar nashr qilinadi, lekin bu davlatlarda o‘zbek tili variant maqomiga ega emas, chunki shu davlatlarning rasmiy davlat tili emas. Afg‘onistonda ham o‘zbeklar yashaydi. Yuqoridagi respublikalardan farq qilgan holda, bu yerda o‘zbek tiliga ham davlat maqomi berilgan. Demak, endi Afg‘onistondagi o‘zbek tilini variant deb atash mumkin bo‘ladi. Bu mamlakatlardagi o‘zbek adabiy tilining va shevalarining O‘zbekistondagi adabiy tilga va shevalariga munosabati “O‘zbek adabiy tili va dialektlar” mavzusida oydinlashtiriladi.

Fanda ikki xildagi dialekt to‘grisida fikr yuritiladi, ya’ni *mahalliy dialektlar* va *ijtimoiy dialektlar*. *Mahalliy dialekt* umumxalq (milliy) tilining muayyan territoriyaga oid ko‘rinishi, o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir. O‘zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda, muayyan guruhga taalluqli shaxslarning umumxalq tilidagi so‘zlarga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, o‘zgacha ma’no kasb etishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o‘zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ijtimoiy dialekt biror sheva yoki dialektga teng emas, lekin unda ba’zan shevaga oid so‘zlar qatnashishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy dialektda o‘ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlar bo‘lmaydi, lekin tor doiradagi kishilar tushunadigan ayrim leksik o‘ziga xosliklarga bo‘ladi.

Chambers J. K., Peter Trudgilllar o‘z asarlarida erkak va ayol jinsi nutqi xususiyatlarini ham ijtimoiy dialekt sifatida qaraydilar.

Ijtimoiy dialekt adabiyotlarda *sotsiolekt* (lotincha *sotsiotas* - jamiyat va *dialekt* sozlaridan olingan) termini bilan ham yuritiladi.

O‘zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o‘rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar “til”i **sotsiolingvistikaning** boshqa bo‘limlari obyektidir.

Xorij dialektologiyasida *idiolekt* (u inglizcha bo‘lib, *individual til* degan ma‘noni anglatadi) tushunchasi ham uchraydi. U yakka shaxslarga xos bo‘lgan nutqiy o‘ziga xoslikni bildiradi.

O‘zbek tilining murakkab dialektal tarkibi. Professor Y. D. Polivanov “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida (1933) o‘tgan asrning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma‘lumot bergan edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga borib taqaladi.

Professor V. V. Reshetov o‘zbek tili dialektal xaritasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, qangli, qatag‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan.

O‘zbek tilining dialektal o‘ziga xosligida qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialekt xususiyatlarining tobora qat‘iylashishida aholi punktlarining bir-biridan uzoq joylashishi muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga sabab b‘lgan.

Tarixchi olim K. Shoniyozovning ko‘rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo‘lgan *chigil*, *xalaj* qabilalari Ile daryosi havzasida,

Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg‘ona vohasiga tarqalgan keng territoriyada yashaganlar. *Turgesh* qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu territoriyalar *qarluqlar* tomonidan ishg‘ol qilingan. IX-X asrlarda *o‘g‘uzlar* Sirdaryoning quyi va o‘rta havzalarini hamda Orol bo‘ylarini ishg‘ol qilgan. *Qipchoq* qabilalari esa, asosan, Oltoy o‘lkasida, Irtish daryosi bo‘ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston o‘lkalarida, Volga, Dunay daryolari bo‘ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar⁵.

O‘zbek tilida sheva va dialektlarning kuchli farqlanib qolishiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va turkiy bo‘lmagan tillarning, xususan, tojik tilning kuchli ta’siri ham sabab bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o‘ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.

Avvalgi satrlarda aytilganidek, o‘zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga ba’zan qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singlarmonizm har uchala (markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unilarning birlamchi cho‘ziqliklari qarluq va o‘g‘uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

O‘zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasi. O‘zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, “Hozirgi o‘zbek tili” fanining nazariy asoslariga tayanadi. Shuningdek, “O‘zbek tili tarixi” fanining “Qadimgi turkiy til”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “O‘zbek adabiy tili tarixi” bo‘limlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos vazifasini bajaradi. Aksincha, o‘zbek dialektologiyasi bu fanlarning nazariy va amaliy materiallariga

⁵ Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1974. – С.47.

asoslanadi. To‘g‘ri, tilshunoslikning bu fanlari o‘quv rejalarida keyingi kurslardan joy olgan, demak, bu fanlar bo‘yicha nazariy, amaliy ma‘lumotlar o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo‘shimcha ma‘lumotlar olish chog‘ida o‘rganib boriladi.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani, ayniqsa, “O‘zbek tili tarixi” fani bilan uzviy bog‘langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o‘laroq unga asos bo‘lgan shevalar hozirgi O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarga tarqalishi, so‘zsiz, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ziga xoslikni keltirib chiqaradi. Ta’kidlash lozimki, bizgacha yetib kelgan o‘zbek tili manbalari o‘z davrining adabiy tilida yozilgan bo‘lsa-da, ayni zamonda, o‘sha davrning shevalariga xos xususiyatlarni ham aks ettirgan. Jumladan, Professor A. Matg‘oziyev XIX asr yodnomalarida bir qator sheva elementlarini qayd qiladi:

- fonetik dialektizmlar: teng-tushingiz bilan ~ дең-душъңыз бълә~ *deñ-dušñiz bilä* (Roqim), achchiq ~ а:джъ ~ *a:žï* (Ogahiy);

- morfologik dialektizmlar: holimga ~ ҳальма ~ *halïma* (Uzlat), dushman orqasiga ~ душман арқасъна ~ *dushman arqasïna* (Uzlat);

- leksik dialektizmlar: ranjitma ~ ьнджътма ~ *inžïtma*, chumoli ~ қарънджа ~ *qarïnža* (Ogahiy)⁶.

Ma‘lum bo‘ladiki, turli hududlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida dialektal o‘ziga xosliklar aks etgan bo‘ladi, chunki asar mualliflari yoki uni ko‘chiruvchilar muayyan shevaning vakillari bo‘lganligi tufayli ham ularning shevasi u yoki bu tarzda badiiy, tarixiy asarlarda aks etmay qolmas edi. Bu holat til tarixi asarlarining o‘ziga xosligini ta‘minlagan.

Hozirgi sheva faktlari til tarixini tushunish uchun ham xizmat qiladi, chunki, avval aytilganidek, tilimiz tarixiga oid so‘zlar, fonetik va grammatik unsurlar tamoman yo‘qolib ketmagan, balki muayyan darajada shevalarimizning birida o‘z ma‘nosida yoki qisman ma‘nosi

⁶ Matg‘oziyev A. XIX asr ёзма ёдгорликлари тилида шева элементлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 3-сон. – Б. 40 – 41.

o‘zgaran holda saqlanib qoladi, bu esa til tarixidagi ayrim so‘z ma’nolarini oydinlashtirishga xizmat qilishi mumkin, masalan, “Devonu lug‘atit turk” asaridagi *анач* so‘zi *анач ~ анаč* tarzida (qizlarni erkalash shakli) shimoliy o‘zbek shevalarida, *амъз* so‘zi *амъз ~ atiz* (ekin maydoni) tarzida Xorazmda, *эвдъдъ* (terdi) so‘zi *эвдэдъ ~ ävdädi* tarzida shimoliy o‘zbek shevalarida, *къзлэдъ* (yashirdi) so‘zi *къзлэдъ ~ gizlädi* tarzida Xorazmda va shimoliy o‘zbek shevalarida hozir ham qo‘llanadi. *Кәшүр* so‘zi “Devon”da **turp** ma’nosini anglatgan bo‘lsa, Xorazm shevalarida *гәшүр ~ güşir* variantida **sabzini** bildiradi. Demak, bu so‘zda ham fonetik, ham ma’no o‘zgarishi yuz bergan.

O‘zbek dialektologiyasi geografiya fani bilan uzviy aloqador, ya’ni har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan terriyoriyaning ko‘lami, aholisining miqdori, shu terriyoriya iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham e’tiborga olinadi, ya’ni geografik muhiti ham yoritiladi. Ayniqsa, izoglossalarning tarqalishi bilan bog‘liq masalalarda dialektologiya va geografiya umumiylikka ega.

Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, folklori, etnografiyasi, san’ati fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va, ayni o‘rinda, ular uchun ham boy material beradi.

O‘zbek dialektologiyasining nazariy va amaliy ahamiyati. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan fandır. Bu fan bo‘yicha olingan nazariy bilimlar, yuqorida ta’kidlanganidek, keyingi kurslarda o‘tiladigan fanlarga nazariy asos bo‘lib xizmat qilsa, ayni zamonda, til va adabiyot o‘qituvchilarini o‘zbek dialektologiyasi bilimlari bilan qurollantirib, o‘z pedagogik faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlashga ham tayyorlaydi, ya’ni o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini aniqlash va to‘g‘ri yo‘l tutishiga yordam beradi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish metodlari. O‘zbek shevalari *tasviriy (tavsifiy), qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya* metodlarida o‘rganib kelinmoqda.

Tavsifiy (tasviriy) metod muayyan shevaga xos fonetik, leksik va grammatik xususiytalarning **hozirgi holatini** maxsus tuzilgan savolnoma

bo'yicha o'rganishda qo'llangan. Bunda sheva faktlari o'zbek adabiy tili xususiyatlariga nisbatlab olinadi.

Qiyosiy metod. Undan shevaga xos xususiyatlarni yondosh shevalarga, qarindosh tillarga qiyoslab o'rganishda foydalanilgan. O'zbek shevalarini o'rganishda, asosan, *tasviriy* va *qiyosiy* metodlardan foydalanilgan hamda boy material to'plangan.

O'zbek shevalarini o'rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan *qiyosiy-tarixiy metod*dan ham foydalanilgan. O'zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o'rinlarda va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi.

Shevalar *lingvistik geografiya* metodi bilan ham o'rganiladi, Bu haqda "Areal tilshunoslik (lingvistik geografiya)" mavzusida fikr yuritiladi.

Dialektologik tadqiqotlarda *dialektometriya metodi* ham qo'llaniladi. Bu metodda muayyan hududdagi lahja va dialektlar tarkibiga kirgan shevalarning yaqinlik darajasi faktik materiallar asosida hisoblab chiqiladi va ular raqamlarda aks ettiriladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sheva deb nimaga aytiladi?
2. Dialekt deb nimaga aytiladi?
3. Lahja deb nimaga aytiladi?
4. O'zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog'langan?
5. O'zbek shevalari qaysi metodlar bilan o'rganiladi?
6. O'zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'langan?

Tayanch tushunchalar:

Dialekt [dialect] – o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Idiom [idiom] – mustaqil qarindosh tillardan biri.

Lahja [dialect] – shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo'lgan dialektlar jami.

Sheva [pronunciation, accent, dialect] – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.

Sotsiolekt [sociolect] – ijtimoiy dialekt.

Tavsifiy (sinxron) metod [descriptive method] – shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Til varianti [lingual variant] – ayni bir tilning turli davlatlardagi ko‘rinishi va qo‘llanishi.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi [Karluk-chigil-uygur dialect] – o‘zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug‘-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qipchoq lahjasi [Kipchak dialect] – o‘zbek tilining qipchoq urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qiyosiy-tarixiy metod [comparative historical method] – tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa qarindosh tillarga qiyoslab o‘rganish metodi, bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalaniladi.

O‘zbek dialektologiyasi [Uzbek dialectology] – o‘zbek shevalarini ilmiy ravishda o‘rganadigan fan.

O‘g‘uz lahjasi [Uguz dialect] – o‘zbek tilining o‘g‘uz urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.


Mavzu: Transkripsiya

Reja:

1. Transkripsiya haqida umumiy ma’lumot.
2. An’anaviy o‘zbek transkripsiyasi.
3. Yangi o‘zbek transkripsiyasi.
4. Diakritik belgilar.

Matn

Transkripsiya haqida umumiy ma’lumot. *Transkripsiya* lotincha *qayta yozish* degan ma’noni bildiradi. Transkripsiyaning ta’rifi: *Shevalardagi konkret nutq tovushlarini, ya’ni fonemaning variatsiyalari, variantlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llaniladigan harflar, ishoralar sistemasiga transkripsiya deyiladi (5-rasm).* Bu ta’rif ayni o‘rinda fonetik transkripsiyani anglatadi, chunki konkret nutq tovushini yozib olishda fonetik transkripsiyadan foydalaniladi.



Transkripsiya qo‘llanish doirasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Xalqaro transkripsiya. Bu transkripsiya lotin alifbosiga asoslanadi. Bu transkripsiya, masalan, ingliz tilini o‘rganish jarayonida qo‘llanilmoqda.

2. Milliy transkripsiya. Bu transkripsiya har bir milliy tilning amalda bo‘lgan yozuvi tizimiga asoslanadi. O‘zbek shevalarini yozib olishda qo‘llanilgan transkripsion tizim professor V. V. Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan va u rus alifbosi asosidagi o‘zbek grafikasiga asoslangan, lekin o‘zbek dialektologlari, garchand, V. V. Reshetov transkripsiyasidan foydalanishsalar-da, shevalarni yozib olishda har doim ham unga to‘la rioya qilishmaydi, chunki shevalardagi tovushlarni belgilashda har bir tadqiqotchi ma’lum darajada erkinlikka ega bo‘ladi.

Transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o‘rganishda ham qo‘llaniladi. Bunda xorijiq tillardagi va yodgorliklardagi u yoki bu fonemaning talaffuz (artikulatsion-akustik) me‘yorini belgilash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Transkripsiyani *transliteratsiyadan* farqlash zarur. Transliteratsiya bir til doirasida bir yozuv tizimidagi matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga o‘girishni bildiradi. Masalan, arab yozuvidagi matnlarni kirilga, kirildan lotin yozuvi asosidagi o‘zbek yozuvga ko‘chirish transliteratsiyadir.

Transkripsiyaning fonetik va fonematik turlari bor. Fonematik transkripsiya tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi

hamda yuqorida ta'kidlanganidek, bunday transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o'rganishga joriy etiladi. Fonetik transkripsiya esa nutqdagi fonemaning variatsiyasi bo'lgan konkret nutq tovushlarini yozib olishda qo'llaniladi. Bu transkripsiyadan shevalarni o'rganishda foydalaniladi.

Translatsiya tushunchasi ham bor. U bir yozuvdagi matnning ikkinchi yozuvga kompyuter dasturi vositasida o'girilishini bildiradi.

Transkripsiya uchun, odatda, har bir tilda amalda bo'lgan yozuv asos qilib olinadi, lekin joriyda bo'lgan yozuvdagi harflar transkripsiya tizimi uchun yetarli bo'lavermaydi. Shu jumladan, joriy o'zbek alifbosidagi harflar ham o'zbek shevalarini yozib olishda uning turli fonetik xususiyatlarini ko'rsatish uchun yetarli emas, shu tufayli ham mavjud harflarga qo'shimcha belgilar qo'yiladi, ba'zan esa boshqa yozuv tizimidan harf qabul qilinadi. Demak, sheva materiallarini yozib olish chog'ida har bir dialektolog ijodiy yondashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

An'anadagi o'zbek transkripsiyasi. Hozirgacha olib borilgan dialektologik tadqiqotlar rus grafikasi asosidagi transkripsiyada amalga oshirilgan.

Unli tovushlarni ifodalashda ishlatiladigan transkripsion belgilar. Unli tovushlar barcha tillarda ham ko'p qirrali bo'lib, u o'zbek shevalarida, ayniqsa, fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifoda qilishda o'zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalanilgan:

a(a) – umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari uchun xarakterlidir. Masalan, “dj” lovchi shevalarda: *ана, ата, бала*;

ə(ә) – aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: *әкә, әнә, йәшә*. Bu unli barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi;

ɔ(ɔ) – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo'llanadi: *ɔл, ɔш, бɔл*;

e(e) – old qator, o'rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida mavjud: *ел, бел, йел, кел*;

и(и) – old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud: *иш, мил* (Buxoro). *бил* (Farg‘ona). Ko‘pincha unga ikki nuqta ham qo‘yiladi;

ы(ы) – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: *қыз, қыйық*. Bu unli singarmonizmli o‘zbek shevalarida talaffuzda bor. Bu harfga shu unlining cho‘ziqligini ta’kidlash uchun ko‘pincha ikki nuqta qo‘yiladi;

ь(ь) – indifferent, shahar shevalarida tarixan **и** va **ы** unllarining birlashishi (konvergentsiyasi) natijasida hosil bo‘lgan tovushni ifoda qiladi, old qator, yuqori-tor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda **и** unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasini bildiradi: *келдь, йетть, бьр*. Shahar shevalarida barcha bo‘g‘inlarda kela oladi: *бардь, кьргьн, қалдь*;

ь(ь) – **ы** unlisining qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasi, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi: *бардь, тьзьн, бькън*;

у(у) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalariga xos: *бу, ул, ун*;

ү(ү) – old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo‘qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi: *күл, бүгүн, түн*;

о(о) – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida talaffuzda bor: *ом* (adabiy orf. **o‘t**), *қол* (adabiy orf. **qo‘l**), *оқ* (adabiy orf. **o‘q**), *тоқ* (adabiy orf. **to‘q**);

ө(ө) – old qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: *бөл* (bo‘lmoq – ajratmoq), *көл, хөнәр* (hunar). Singarmonizmli o‘zbek shevalari va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi;

е(е) – tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, Xorazm, Iqon, Qarnoq, Namangan shevalarida uchraydi. Bu unli **ə** va **e** unllari o‘rtasida talaffuz qilinadi, old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: *кел(л)* (Iqon), *зел* (Xorazm). Bu ma’lumot ko‘rsatilgan shevalarda o‘z kuchini yo‘qotmoqda, faqat Namangan shahar shevasida saqlanib qolmoqda: *неме* (nima), *қенеқе* (qanaqa), *Хелмәхән еттәмән кемедь* (Halimaxon erta bilan kelmadi).

Undosh tovushlarda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar. Undosh tovushlarni ifodalashda fanda kirill yozuvidagi undoshlarni ifodalovchi harflardan foydalanilgan. Ular, deyarli, o‘zgarishsiz transkripsiya uchun qabul qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim undoshlarni farqlash va o‘ziga xosligini belgilashda transkripsion belgilardan foydalanilgan. Ular quyidagilarda ko‘rinadi:

дж – qorishiq portlovchi tovushni ifodalaydi;

н - sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyasi *-нз/ng*;

в - lab-tish tovushini ifoda qiladi;

w - lab-lab tovushini ifodalaydi, *сyw, қуwмақ* kabi so‘zlarda uchraydi;

ф - lab-tish tovushi uchun ishlatilgan va ko‘proq o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi;

f - lab-lab tovushini ifoda qiladi, aksariyat o‘rinlarda turkiy taqlidiy so‘zlarda qo‘llanadi.

Undoshlar transkripsiyasidagi bu belgilar juda ham qat’iy emas, matnlarda **w** ornida **в** harfini, **f** ornida **ф** harfini ishlatish an’anasi bor.

3. Yangi o‘zbek transkripsiyasi. Bunda ko‘p yillardan beri **turkologiyada** qo‘llanib kelinayotgan transkripsiya tizimiga asoslanildi. Bundan buyon dialektologiya bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilar lotin alifbosi asosidagi quyidagi transkripsiya tizimidan foydalanish tavsiya qilinadi:

a(a) – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli: *ana, ata, bala*;

ä(ä) – old qator, quyi-keng, lablanmagan: *äkä, änä. jüşä*;

ā (ā) – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan: *āl, āš, bāl*;

e(e) – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: *el. bel, jel, kel*;

i(i) – old qator, yuqori-tor, lablanmagan: *bārdi, kirgin*, singarmonizmli shevalarda: *keldi, jetti, bir*;

ï(i) – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan: *bardi, tiyin, biqin*.

i va *ï* unilari singarmonizmli shevalarda qisqa tovushni ifodalaydi (*bil, qil*), shahar shevalarida *i* unlisi indifferent tovushni ifodalaydi;

i:(i:) - *i* unlisining cho‘ziq varianti. Barcha o‘zbek shevalarida uchraydi: *i:š, ti:l* (Buxoro), *bi:l* (Farg‘ona);

ï:(ï:) - ï unlisining cho‘ziq varianti: *qï:z, qï:jiq*. Bu unli singarmonizmli o‘zbek shevalarida talaffuzda bor;

u(u) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan: *bu, ul, un*;

ü(ü) – old qator, yuqori-tor, lablangan: *kül, bugün, tün, ün*;

o(o) – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan: *ot* (adabiy orf. **o‘t**), *qol* (adabiy orf. **qo‘l**). *oq* (adabiy orf. **o‘q**), *toq* (adabiy orf. **to‘q**);

ö(ö) – old qator, o‘rta-keng, lablangan: *böl* (bo‘lmoq - ajratmoq), *köl, hönär* (hunar);

ε – ko‘proq Namangan shahar shevasida qayd qilinadi. Old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: *neme* (nima). *qeneqe* (qanaqa).

Cho‘ziq unlilar uchun ikki nuqta qo‘llanadi.

An’anaviy va yangi o‘zbek transkripsiyasidagi unlilar mosligi bunday namoyon bo‘ladi: *a ~ a, ə ~ ä, ɔ ~ ā, e ~ e, ɛ ~ i, b ~ i, u ~ i:, ɪ ~ i:, y ~ u, γ ~ ü, o ~ o, θ ~ ö, ε ~ ε.*

Undoshlarni transkripsiyasida quyidagi harflardan foydalaniladi: *b, d, f, g, h, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, z, γ* (amaldagi **g‘** o‘rnida), *š* (amaldagi **sh** o‘rnida), *č* (amaldagi **ch** o‘rnida), *j* (amaldagi **y** o‘rnida), *ŋ* (amaldagi **ng** o‘rnida), *ž* (amaldagi **j** o‘rnida).

Diakritik belgilar:

: (ikki nuqta) – tovushning cho‘ziqligini bildiradi;

’ (akut) – belgining o‘ng tomoniga qo‘yilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qo‘yilsa, velarizatsiyani bildiradi;

> va < – bir tovushning ikkinchisiga o‘tishini ko‘rsatadi;

II (parallel chiziq) - ikki tovush yoki so‘zning parallel qo‘llanishiga ishora qiladi;

() – qavs ichidagi harf ifodalagan tovushning ba’zan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi;

[] (katta qavs) - matndagi bo‘g‘in, so‘z, transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi, masalan: [Түлкь ~ *mülki*] ...нъмәгә ромәлнъ элдъңъз ~

nimägä romālñi āldiñiz... Bu o‘rinda fikr egasini bidirgan so‘z katta qavs ichiga olib ko‘rsatilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, keyinchalik matn bayonida zarur o‘rinlarda so‘z va grammatik ko‘rsatkichlarning adabiy tildagi, kirill yozuvi asosidagi va turkologiyadagi transkripsiyasi baravar keltirilib boriladi.

Bu quyidagicha ko‘rinishda aks ettiriladi:

Adabiy tildagi varianti	An’anaviy transkripsiya	Yangi o‘zbek transkripsiyasi
yurak ketayotgan	йүрәк//джүрәк кетыйкән	<i>jüräk // žüräk</i> <i>ketijkän</i>

Matn transkripsiyasidan namunalar

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi shevalaridan namuna.

An’anadagi transkripsiyada: ...Пәшшәнъ бу гәпъ ел-йурттъ джә қыйнәп қойыптъ. Пәшшәдән безәр боптъ хәлэйкъ. Бър кәммәғәл шэйър бэрәкән. У пәшшәнъ элдэгә бэръптъ. Пәшшә ундән, хь гәдэй, нәгә келдъң, дьп сорәптъ. Кәммәғәл шэйър эдәмлә тэртъвәткән қыйнчълыйлә:нь, тәммә-тәм олу:(в)нь котәръп мээрәгә эбэръш әзәпләрәнъ шығър қып, пәшшәгә оқъверъптъ-де, сәнгә мунъ ньме пәйдәсә вә, дьптъ.

Yangi o‘zbek transkripsiyasida: ...Pāššāni bu gāpi el-jurtti žä qijnäp qojipti. Pāššādän bezār bopti xäläjiq. Bir kämmäyäl šājir bārākän. U pāššāni āldigä bāripti. Pāššä undän, hi gädāj, nägä keldiñ, dip soräpti. Kämmäyäl šājir ādāmlä tārtivātkän qijinčilijlä:ni, tämmä-tām olu(v)ni kotärip māzārgä ābāriš äzāplärini šiyir qip, pāššägä oqiveripti-de, sängä muni nime päjdäsi vā, dipti.

2. Qipchoq lahjasi shevalaridan namuna.

An’anadagi transkripsiyada: ...Қъз ^Вулғайып ^Вон алтъ джашқа джетъптъ. Джъгът ^Ворман ьчъдән кәтәкән қорған қурьп, қъздъ нькәләп аптъ. Қъз шундайам чърәйлъ боптъ-қо, ^Воньң чачь зәрдән пайда боғандай. Бър күнъ қъз анхарға башьнь джувьптъ. ^ВОньң бър дана чачь ^Вүзүльп ағып кетъптъ...

Yangi o'zbek transkripsiyasida: ...Qiz ulʻajip ^von žašʻya žetipty. Žigit ^vorman ičidān kātākān qoryan qurip, qizdi nikālāp apti. Qiz šundajam čirājli bopti-qo, ^vonin čači zārdān pajda boʻyandaj. Bir kuni qiz anharya bašinī žuvipti. ^vOnin bip dana čači ^vüzülip ayip ketipti...

3. O'g'uz lahjasi shevalaridan namuna.

An'anadagi transkripsiyada: ...Бър варәкән, бър йокәкән, кади:м за:манда бър па:шша бо:ан әкән. И:ншу па:шшань ә:шъкънь ә:лдъндә бър да:рах ва: әкән. Бу да:рахнь бър йо:рпағь а:лтъннан, бър йо:рпағь кү:мүштән әкән. Гү:лләдә бър гү:н хәр гү:нь бър йо:рпақ йоқ оладь әмьш. Соң па:шша са:рай а:дамнарънь са:қчъльк ә:тмәкә қойьпть.

Yangi o'zbek transkripsiyasida: ...Bir varäkän, bir joqäkän, qadi:m za:manda bir pa:šša bo:an äkän. I:nšu pa:ššanī ä:šikini ä:ldindä bir da:rax va: äkän. I:nšu da:raxni bir jo:rpayi a:ltinnan, bir jo:rpayi kü:müštän äkän. Gü:llädä bir gü:n är gü:ni bir jo:rpaq joq oladi ämiš. Soñ pa:šša sa:raj a:damnarini sa:qčiliq ä:tmäkä qojipti.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transkripsiya deb nimaga ataladi?
2. Transliteratsiya deb nimaga ataladi?
3. Old qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilar qoʻllanadi?
4. Orqa qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilardan foydalaniladi?
5. Diakritik belgilar deb nimaga aytiladi?

Tayanch tushunchalar:

Dialektolog [dialectologist] – shevashunos, shevani oʻrganuvchi shaxs.

Diakritik belgi [diacritic mark] – harflarga qoʻshimcha ravishda qoʻyiladigan belgilar, ishoralar.

Fonematik transkripsiya [phonemic transcription] – tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.

Fonetik transkripsiya [phonetic transcription] – konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan harflar, ishoralar tizimi.

Indifferent [indifferent] – oraliq tovush.

Palatalizatsiya [palatalization] – undoshlarning yumshoqlashishi.

Transkripsiya [transcription] – yozuvning maxsus turi.

Transliteratsiya [transliteration] – matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga o‘girish, masalan, kirildan lotinga.

Transkripsion belgi [transcriptional mark] – har bir nutq tovushi uchun qo‘llaniladigan harf yoki ishora.

Velarizatsiya [velarization] – undoshlarning qattiqlashishi.

Mavzu: O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.

Reja:

1. O‘zbek shevalarining unlilar va undoshlar tizimi.
2. Kontrast (juft) unlilar.


Matn

O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonunlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan o‘zaro farqlanadi va, aksincha, ayrim jihatlariga ko‘ra, ular bir-biri bilan o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

Unli va undoshlar tizimi. O‘zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologiyaga oid ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning miqdori **18**tagacha yetadi, degan ma’lumotlar ham beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o‘rganilar ekan, ulardagi fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e’tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o‘rinli bo‘ladi.

Unlilar tizimi (vokalizm). Qarluq-chigil-uygur lahjasidagi dialekt va shevalarda jami **13**ta unli qo‘llanadi. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda **6,7**ta, singarmonizmli shevalarda esa **11**ta unli qo‘llanadi. Toshkent dialektidagi shevalarda **ъ ~ i, e ~ e, ə ~ ä, ɔ ~ ā, o ~ o, y ~ u;** Samarqand shahar shevasida **ъ ~ i, e ~ e, ə ~ ä, a ~ a, o ~ o, y ~ u** unlilari iste’molda bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda **ɔ** unlisi bilan birgalikda **a** unlisi ham uchraydi. Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Chimkent, Sayram) **11**ta: **a ~ a, e ~ e, ə ~ ä, и ~ i:, ь ~ i, ы ~ i:, ь ~ i, o ~ o, ɵ ~ ö, y ~ u, ʏ ~ ü** unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham **11**ta unli tovush qayd qilinadi. Ularni jadvalga quyidagicha joylashtirish mumkin (6-rasm).

Unlilarning joylashish tartibi:



Undoshlar tizimi (konsonantizm). O‘zbek shevalaridagi sof turkiy so‘zlarda $\bar{b} \sim b$, $\bar{d} \sim d$, $\bar{g} \sim g$, $\bar{x} \sim h$, $\bar{y} \sim j$, $\bar{k} \sim k$, $\bar{l} \sim l$, $\bar{m} \sim m$, $\bar{n} \sim n$, $\bar{p} \sim p$, $\bar{q} \sim q$, $\bar{r} \sim r$, $\bar{s} \sim s$, $\bar{t} \sim t$, $\bar{v} \sim v$, $\bar{x} \sim x$, $\bar{z} \sim z$, $\bar{z} \sim \gamma$, $\bar{u} \sim \check{s}$, $\bar{c} \sim \check{c}$, $\bar{d}\bar{z} \sim \check{z}$, $\bar{h} \sim \eta$ undoshlari amalda bor. Lab-lab tovushi $\bar{\phi} \sim f$ undoshi undov va taqlidiy so‘zlarda iste’molda bor, o‘zlashgan so‘zlarda esa bu undosh \bar{p} , ba’zan \bar{b} undoshiga moyil talaffuz qilinadi, biroq Forish shevasida \bar{f} undoshi mustaqil so‘zlarda ham uchraydi: pichoq $\sim \bar{\phi}$ ы:чақ $\sim \bar{f}$ i:čaq, pul $\sim \bar{\phi}$ ул $\sim \bar{f}$ ul.


H undoshi aksariyat shevalarda \bar{x} undoshining fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forsha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan *hoi* *hutti*, *hoi havvaz*, *fe* harflarini ifodalaydigan undoshlar o‘zbek tili shevalarining artikulatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.

Kontrast (juft) unlilar. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo‘ladi. Ular quyidagilar: $u \sim \bar{i} \leftrightarrow \bar{y} \sim \bar{i}:$, $\bar{b} \sim \bar{i} \leftrightarrow \bar{b} \sim \bar{i}:$, $\bar{\theta} \sim \bar{\theta} \leftrightarrow \bar{o} \sim \bar{o}$, $\bar{y} \sim \bar{ü} \leftrightarrow \bar{y} \sim \bar{u}$, $\bar{a}, \bar{a} \sim \bar{ā} \leftrightarrow \bar{a} \sim \bar{ā}$ (9-rasm). Bundan faqat \bar{e} unlisigina mustasno, uning jufti yo‘q. Shevalarda kontrast unlilar ba’zan so‘z ma’nosining farqlanishiga ham xizmat qiladi: $u:c \sim \bar{i}:s$ hidni, $\bar{b}c \sim \bar{i}s$ qurumni (Qoraqalpog‘iston o‘zb. shev., shim. o‘zb. shev.), $\bar{b}\bar{y}\bar{l}\bar{y}\bar{v}\bar{b} \sim$

bilüvi “bilish”ni, *былувь* ~ *biluvï* “fikr-o‘yi, xayoli”ni anglatadi (Turkiston).

9-rasm

Kontrast-juft unlilar



Fonetik qonunlar. Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I. A. Bogoroditskiy fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligi, shuningdek, qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko‘rinishiga ega:

1. *Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizm.* Singarmonizmning bu turida so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham old qator unlilar ishtirok etadi, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonunga kora, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida *a ~ a, y ~ u, o ~ o, bl ~ i:, b ~ i* unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham ana

shu unlilar keladi, shuningdek, soʻzda chuqur til orqa **q, γ, x** undoshlari ishtirok qilishi ham mumkin, aksincha, soʻzning dastlabki boʻgʻinida **ə ~ ä, e ~ e, u ~ i:, ʊ ~ i, ø ~ ö, γ ~ ü** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi boʻgʻinlarida ham xuddi shu unlilar keladi, bunday soʻzlarda **k, g** undoshlari ham qatnashishi mumkin. Bu qonun qarluq-chigil-uygʻur lahjasining shahar va shahar tipidagi shevalarida amal qilmaydi.

2. *Labial singarmonizm*. Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirgʻiz tilining “temir qonuni” hisoblanadi, oʻzbek tili va uning shevalarida esa qisman amal qiladi.

Bu qonunga koʻra, soʻzning dastlabki boʻgʻinida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi boʻgʻinlarida ham old qator lablangan unli(lar) qatnashadi, aksincha, soʻzning dastlabki boʻgʻinida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi boʻgʻinlarida ham orqa qator lablangan unli(lar) qatnashadi.

Oʻzbek shevalarida lab garmoniyasi qonuni soʻzlarning dastlabki ikki boʻgʻinida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va toʻrtinchi boʻgʻinlarida siyrak uchraydi: suyunchi ~ сүйүнчъ ~ **süjünči**, koʻrindi ~ көрүндъ ~ **köründi**, boʻlibdi ~ болупту ~ **boluptu**, koʻribdi ~ көрүптү ~ **körüptü** (Namangan) va boshqalar.

Singarmonizm qonuni ayni zamonda unlilarning *progressiv assimilatsiyasi* deb ham yuritiladi.

Singarmonizmdan chekinish hollari:

1. Shevalarda yuklamalar singarmonizmga boʻysunmaydi: qipchoq lahjasi shevalarida: boʻldi-ku ~ болдь-ку ~ **boldi-qu**, keldi-ku ~ келдь-ку ~ **keldi-qu**, kelding-a ~ кедьң-ә ~ **kädiñ-ä**, barding-a ~ бардьң-ә ~ **bardiñ-ä**.

2. Ayrim qoʻshimchalar bir variantli boʻlganligi tufayli singarmonizmga boʻysunmasligi mumkin, masalan, qipchoq shevalarida bora qol ~ барагай ~ **barayaj**, kela qol ~ келәгай ~ **keläyaj**; Xorazm shevalarida: (soxta) tabibchilik ~ сүннәчлькъ ~ **sünnäçiliq**. -гай ~ **yaj**, -члькъ ~ **çiliq** affiklarining shu shevalarda old qatorli varianti boʻlmaganligi uchun singarmonizmga boʻysunmagan.

3. Arab, fors, tojik tillaridan oʻzlashgan soʻzlar aslida singarmonizmga boʻysunadi, lekin boʻysunmaydigan oʻrinlari ham bor,

masalan, muborak ~ муворäk ~ *muvāräk* (Turkiston), peshona ~ пешана ~ *pešana* (shim. o‘zb. shev.)

4. Qo‘shma so‘zlarning aksariyatida singarmonizm buziladi: o‘rta barmoq ~ ^oортаңтерек ~ ^v*ortañterek* (Jo‘sh), (uzun) ko‘rpacha ~ гърдъқана ~ *girdiqana* (Qarshi, Najman), xirbachcha(mushuk bolasi) ~ хърбәччә ~ *xirbäččä* (Mang‘it).

Umlaut. Umlaut unlilarning *regressiv assimilatsiyasidir* (Y. D. Polivanov). Bu qonunga ko‘ra, affiksdagi old qator unli asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi: son ~ сән ~ *sān* → sana ~ сәнә ~ *sänä*, yosh ~ йәш ~ *jāš* → jasha ~ йәшә ~ *jäšä*.

Bu qonun Namangan, O‘sh shevalarida, qisman o‘zbek adabiy tilida ham qayd qilinadi. Namangan shevalaridan misollar: mol ~ мол ~ *māl* → molim ~ мөләм ~ *mälim*, sol ~ сәл ~ *sāl* → solish ~ сәлшәш ~ *säliš*, nok ~ нәк ~ *nāk* → noki ~ нәкь ~ *nüki*, toy ~ тәй ~ *tāj* → toying ~ тәйһәң ~ *täjiḡ*.

Singarmonizmli shevalarda yuqoridagi kabi *сан* ~ *san*, *йәш* ~ *jaš*, *мәл* ~ *mal*, *сал* ~ *sal*, *нәк* ~ *näk*, *тәй* ~ *taj* so‘zlari affiks qo‘shilganda, umlaut emas, balki singarmonizm qonuniga bo‘ysunadi.

7- rasm

Singarmanizm va umlautda tovushlarning moslashish harakati

Singarmonizmda \longrightarrow chapdan o'ngga;
umlautda \longleftarrow o'ngdan chapga qarab tovush mosligi yuz beradi.
Singarmonizm: бар+йтър (borayotir)
Umlaut: бəsh+ь (boshi)

Assimilatsiya. Odatda assimilatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko'proq undoshlar bilan bog'liq fonetik qonundir. Uning progressiv va regressiv, to'liq va to'liqsiz assimilatsiya turlari bor.

Progressiv assimilatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga singdirsa, regressiv assimilatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi.

To'liq assimilatsiyada o'zaro bir-biriga singib ketadigan tovushlar tushuniladi. Misollar: oldi ~ олль ~ **ālli** (Qarshi, Shahrizabz), suvni ~ суввь ~ **suvvi** (Toshk.), bo'ldi ~ боддъ ~ **boddi** (Shahrizabz). To'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jarangli-jarangsizlik va boshqa holatlariga (masalan, artikulyatsiyasi yaqinligi) ko'ra qisman o'xshab ketishi mumkin: oshgan ~ шикән ~ **āškän**, ishga ~ ъшкә ~ **iškä** (Toshk.), o'zimdan ~ өзъмнән ~ **özimnän** (Xorazm.).

Dissimilatsiya. So'z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta'sirisiz tovush variantiga ega bo'lishi dissimilatsiyadir: zarar ~ зәләр ~ **zälär**, devor ~ дувәл ~ **duvāl**, әңжър ~ әнджъл ~ **änzil**, qimmat ~ қыймат ~ **qī:jmat**.

Sandhi. Bunda ikki so'zning talaffuzi jarayonida oldingi so'z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so'zdagi) tovushga qisman

moslashadi: menga ber ~ мағамбер ~ *mayamber*, hayron bo‘ldim ~ ҳайрэмболлём ~ *hājṛāmbollim* yoki dastlabki so‘zning oxirgi tovushi (keyingi so‘z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: bolak odam ~ бөләғадам ~ *böläğadam*, kerak edi ~ керәғәдә ~ *keräğidi*.

Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi spirantizatsiyadir: yubordi ~ джүвәрдә ~ *žüvärdi* (qipchoq), sabr qildi ~ савьр қьлдә ~ *savir qildi* (Xorazm), gapı ~ гәвә ~ *gävi* (qipchoq).

Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta’sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq boladi: suyak ~ сүйәг ~ *süjäg* (Namangan), qarg‘a ~ гарға ~ *ğarğa*, sariq ~ сарьг ~ *sariğ* (qipchoq).

Metateza. U so‘z tarkibida undoshlarning o‘rin almashishidir. Qipchoq va Xorazm shevalarida: qo‘shni ~ қоңишь ~ *qoñši*, qumursqa ~ қурмуьсқа ~ *qurmusqa*, tekshir ~ теишкәр ~ *teškär*.

Reduksiya so‘z tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir: kishi ~ к(ь)иш(ь) ~ *k(i)š(i)*, keta бер ~ кем(ь)вур ~ *ket(ь)vur*, Sharif ~ Шәр(ь)п ~ *Šär(i)p*.

Eliziya tovush tushishi bo‘lib, ikki ko‘rinishga ega, ya’ni ikki so‘z (qo‘shma so‘z) talaffuzida oldingi so‘z tarkibidagi unli tovushning tushib qolishi: bora oldi ~ бәрәлдә(ә) ~ *bārāldi(ä)*, kora oldi ~ көрәлдә(ә) ~ *körāldi(ä)* va so‘z tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlangan undoshning tushib qolishidir: bo‘lsang ~ бо:саң(л) ~ *bo:sañ*, bersang ~ бе:сәң(р) ~ *be:sän(r)*, ushlat ~ у:шам(л) ~ *u:šat(l)*, qichqir ~ қьчьр(қ) ~ *qičir(q)* (Xorazm), tashlama ~ тәшәмә(л) ~ *täšämä(l)* (Toshkent).

Unlilarning orttirilishi (proteza): loy ~ ьлай ~ *ilaj*, lof ~ ьларь ~ *ilapı* (qipchoq).

Undoshlarning takrorlanishi (geminatsiya): qari ~ қаррь ~ *qarri*, ariq ~ аррьқ ~ *arriq*, ashula ~ ашулла ~ *ašulla*, saqich ~ саққьз ~ *saqqız*, kichik ~ кьччь ~ *kičči*, ulug‘ ~ ульь ~ *ullı* (Mang‘it)

So‘z boshida va o‘rtasida undoshlarning orttirilishi: ayvon ~ ҳайван ~ *hajvan*, duchor ~ дувчар ~ *dyvčar*, necha ~ нейчә ~ *nejčü* (qipchoq). So‘z boshida x ~ h undoshining orttirilishi ayrim shevalar uchun o‘ziga xoslikni ham bildiradi. Masalan, Mang‘it shevasida bu

holat koʻzga tashlanadi: ari ~ ҳарь ~ *hari*, ayvor ~ ҳайвар ~ *hajjar*, ayol ~ ҳайал ~ *hajal*, olis ~ ҳальс ~ *halis* va boshqalar.

Undoshlarning soʻz boshida tushishi: hatla ~ атла ~ *atla*, hurkdi ~ үрктъ ~ *ürkti*, hisob ~ ьсан ~ *ьsap*, hoʻkiz ~ өкьз ~ *ökiz*, yogʻoch ~ ағач(ш) ~ *ağaç(š)* (oʻgʻuz, shim. oʻzb. shev.).

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik choʻziqliklari.

Birlamchi choʻziqlik. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida soʻzlarning birinchi boʻgʻinida unlilar choʻziq talaffuz etilgan. Bunday choʻziqlik boshqa tovush taʼsirida yuz bergan emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bogʻliqdir. Unlilarning bunday choʻziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy oʻzbek shevalarida saqlanib qolgan: tush (tush korish) ~ ту:ш ~ *tu:š*, ot (ism) ~ а:ð ~ *a:d*, bosh ~ ба:ш ~ *ba:š*, tuz ~ ду:з ~ *du:z* va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar choʻziqligi qadimda soʻz urgʻusining dastlabki boʻgʻinga tushganligi bilan izohlanadi. Bunday choʻziqlik *birlamchi choʻziqlik* deyiladi. Birlamchi choʻziqlik boshqa shevalarda ham baʼzan uchrab turadi, jumladan, Fargʻona shevalarida bil ~ бу:л ~ *bi:l* (bilmoq), Buxoro oʻzbek shevalarida til ~ ту:л ~ *ti:l*, Andijon shevalarida teri ~ те:рь ~ *te:ri* (qoʻyning terisi), qari ~ қа:рь ~ *qa:ri* (qariya), toʻri ~ тө:рь ~ *tö:ri* (uyning toʻri), Quyi Qashqadaryo shevalarida qani ~ қа:нь ~ *qa:nï*, ular ~ о:лар ~ *o:lar* soʻzlarida qayd qilinadi.

Ikkilamchi choʻziqlik. Soʻz tarkibida biror undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush choʻzilishi mumkin: sandiq ~ санду: ~ *sändu:*, oʻrtoq ~ ортә: ~ *ortā:* (Toshkent), boʻl ~ бо: ~ *bo:*, ol ~ а: ~ *a:* (shim.oʻzb. shev.), Namangan shevalarida: tegmas ~ те:мәс ~ *te:məs*, laylak ~ лә:лә: ~ *lä:lä:*. Bunday choʻziqlik ikkilamchi choʻziqlik deyiladi. Shevalarda bunday choʻziqlik koʻpincha **h** undoshining tushib qolishi bilan yuz beradi: Ahmad ~ Ә:мәт ~ *Ä:mät*, dahliz ~ дә:льз ~ *dä:liz*, mehr ~ ме:p ~ *me:r*, qahr ~ қа:p ~ *qa:r*.

Ikkilamchi choʻziqlik *sinerezis*ga ham olib keladi. Maʼlumki, intervokal pozitsiyadagi undoshning nutqda iqtisodga uchrashi natijasida yonma-yon kelib qolgan ikki unli oʻzaro singishib, nutqda choʻziq unlini hosil qiladi. Bu fanda *sinerizis* hodisasi deyiladi. Shevalarimizda bunga

misollar ko‘plab topiladi: zahar ~ zə:p ~ **zä:r**, shahar ~ шə:p ~ **šä:r** (Buxoro), o‘g‘il ~ y:l ~ **u:l** (qipchoq), sihat ~ cə:m ~ **sä:t** (Baliqchi).

Uchlamchi (emfatik) cho‘ziqlik. Bunday cho‘ziqlik Namangan shahar shevasining hozirgi-kelasi zamon fe’lida yorqin ko‘rinadi, ya’ni bu fe’l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko‘rsatkichi -ə ~ **ä** va boshqa shakllarda ishtirok etgan ə ~ **ä** unlisi odatdagiga nisbatan cho‘ziq talaffuz qilinadi yoki uning bo‘lishsiz shaklida й ~ **j** undoshi tushib qolishi ham mumkin va bo‘lishsizlik affiksida ə ~ **ä** unlisi ham ikkilangan cho‘ziqlikka ega bo‘ladi: bilmayman ~ би:лмә::(й)мә: ~ **bi:lmä::(j)mä:**, bo‘lmaydi ~ бoмә::(й)дь ~ **bomä::(j)di**, men aytmayman ~ мә: әтмә::(й)мә ~ **mä: ätmä::(j)mä**, sen bilmaysan ~ cə: билмә::(й)cə: ~ **sä: bi:lmä::(j)sä:**


Tovush mosligi. O‘zbek shevalaridagi so‘zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko‘zga tashlanadiki, bir so‘z ayni ma’nosini saqlagan holda, ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin bu o‘zgarish so‘z ma’nosiga putur yetkazmaydi: doppь ~ топнь ~ **toppi** (Toshkent), kel ~ гәл ~ **gül** (Xorazm), yo‘l ~ джол ~ **žol** (qipchoq), shu ~ шо ~ **šo** (qipchoq), choy ~ чәй ~ **čäj** (qipchoq), bedana ~ бөдәнә ~ **bödänä** (Turkiston). Bu kabi so‘zlardagi **m ~ t // d ~ d**, **к ~ k // г ~ g**, **й ~ j // дж ~ ž** undoshlari va **e // ə ~ ä**, **u // o**, **e // ə ~ ö** mosligi namoyon bo‘ladi.

Diftonglar. Singarmonizmli shevalarda diftong hodisasi ko‘p uchraydi. Har bir tovush talaffuzida ekskursiya, ish momenti (to‘xtam) va rekursiyaning to‘liq qatnashishi yoki har bir tovushning mustaqil talaffuzi *monoftongdir*. Diftong esa bir tovushda boshqa bir tovush unsurining ishtirokida yuz beradi. Adabiyotlarda diftongning ikki turi to‘g‘risida, ya’ni so‘z boshida va so‘z ichida (o‘rtasida, oxirida) qollanishi aytiladi hamda diftongda unli asosiy tovush hisoblanadi.

O‘zbek shevalarida diftongning qollanishida shunday jarayon yuz beradi: talaffuzda asosiy tovush ekskursiyasi boshida shu tovush artikulyatsiyasiga yaqin boshqa tovush (transkripsiyada **ь ~ i**, **й ~ j**, **в ~ v**) unsurlari qoshiladi va to‘xtam hamda rekursiyada asosiy tovush (unli tovushlardan biri) talaffuzi saqlanadi; so‘z ichida esa ekskursiya va

to‘xtamda asosiy tovush talaffuz etilgani holda, rekursiya so‘ngida **й** ~ **ј** undoshi qatnashadi (8-rasm).

8-rasm



Bu fonetik hodisa qipchoq, o‘g‘uz lahjasi shevalariga xosdir: ikkinchi ~ $\overset{u}{\text{ёкьнчь}} \sim \overset{j}{\text{ekinchi}}$, echki ~ $\overset{u}{\text{ешкь}} \sim \overset{j}{\text{eşki}}$, ikki ~ $\overset{u}{\text{екь}} \sim \overset{j}{\text{eki}}$, o‘ynab ~ $\overset{o}{\text{ойнап}} \sim \overset{v}{\text{ojnap}}$. Diftongning ikkinchi turiga tush ~ $\overset{m}{\text{түш}} \sim \overset{j}{\text{tüş}}$, sut ~ $\overset{m}{\text{сүт}} \sim \overset{j}{\text{süt}}$ misollarini keltirish mumkin.

O‘zbek shevalarida quyidagi diftonglar qayd qilinadi:

$\overset{u}{\text{ё}} \sim \overset{j}{\text{e}}$: ikki ~ $\overset{u}{\text{екь}} \sim \overset{j}{\text{eki}}$, ena ~ $\overset{u}{\text{енә}} \sim \overset{j}{\text{enä}}$, ellik ~ $\overset{u}{\text{елүв}} \sim \overset{j}{\text{elüv}}$;

$\overset{y}{\text{o}}$ ~ $\overset{u}{\text{o}}$: o‘rta ~ $\overset{y}{\text{орта}} \sim \overset{u}{\text{orta}}$, o‘yla ~ $\overset{y}{\text{ойла}} \sim \overset{u}{\text{ojla}}$;

$\overset{y}{\text{ө}}$ ~ $\overset{u}{\text{ö}}$: o‘rdak ~ $\overset{y}{\text{өрдәк}} \sim \overset{u}{\text{ördäk}}$, o‘t(fe‘l) ~ $\overset{y}{\text{өт}} \sim \overset{u}{\text{öt}}$;

$\overset{b}{\text{o}}$ ~ $\overset{v}{\text{o}}$: on ~ $\overset{o}{\text{он}} \sim \overset{v}{\text{on}}$, oy ~ $\overset{o}{\text{оў}} \sim \overset{v}{\text{oj}}$;

$\overset{y}{\text{ү}}$ ~ $\overset{j}{\text{ü}}$: kuz ~ $\overset{y}{\text{күз}} \sim \overset{j}{\text{küz}}$, kut(fe‘l) ~ $\overset{y}{\text{күт}} \sim \overset{j}{\text{küt}}$;

$\overset{u}{\text{и}}$ ~ $\overset{j}{\text{i}}$: tit(fe‘l) – $\overset{u}{\text{тут}} \sim \overset{j}{\text{tit}}$, ish ~ $\overset{u}{\text{иш}} \sim \overset{j}{\text{iş}}$;

$\overset{u}{\text{ы}}$ ~ $\overset{j}{\text{i}}$: qiz ~ $\overset{u}{\text{қыз}} \sim \overset{j}{\text{qiz}}$.

Diftonglarning vujudga kelishida birlamchi choziq unililarning keyingi davrdagi taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, **iz** so‘zi Qorabuloq shevasida dastlab *i:z* tarzida talaffuz qilingan, so‘ng u $\overset{u}{\text{i}}\text{z} \sim \overset{j}{\text{i}}\text{z}$ tarzida diftonglashgan. Diftonglar diftongoidlarni hosil qiladi, ya‘ni asosiy tovush va uning tarkibida kelgan hamda unga hamohang

boʻlgan tovush unsuri birgalikda diftongoid deb yuritiladi. Masalan, *ʷekʷ ~ jeki* soʻzida *ʷe ~ je* tovushlari birgalikda diftongoiddir.

Aksariyat oʻzbek shevalarida adabiy tildagi **uzum, uzuk, ipak, ingichka, ilon, ip** kabi soʻzlarning *ʷʷzʷm ~ jüzüm, ʷʷzʷk ~ jüzük, ʷʷnək ~ jipäk, ʷʷñʷškə ~ jiniškä, ʷʷlan ~ jilan, ʷʷn ~ jip* kabi talaffuz qilinishi diftongga aloqasi yoq, balki soʻz boshidagi *ʷ ~ j* mustaqil fonema (monoftong) sifatida oʻz oʻrniga ega. Ularda soʻz boshidagi *ʷ ~ j* undoshi qipchoq shevalarida “*дж ~ ž*” undoshiga mos keladi va tovush mosligini hosil qiladi: *джүзүм ~ žüzim, джүзүк ~ žüzik, джъвэк ~ živäk, джъñʷškə ~ žiniškä, джълан ~ žilan, джън ~ žip*.

Shuningdek, oʻzbek tilidagi va shevalaridagi **-iy** (sinfiy), **-uv** (biluv) kabi qoʻllanishlar ham diftong emas.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qarluq-chigil-uygʻur lahjasi shevalarida qaysi unlilar qatnashadi?
2. Qipchoq lahjasidagi unlilar qanday sifatlarga ega?
3. Oʻgʻuz lahjasidagi unlilarning xususiyatlarini koʻrsatib bering.
4. Singarmonizm nima, uning qanday turlari bor?
5. Umlaut qanday xususiyatga ega?
6. Unli va undoshlar bilan bogʻliq yana qanday qonuniyatlarni bilasiz?
7. Unlilar choʻziqligining qanday sifat turlari bor?
8. Monoftong, diftong va diftongoid nima?
9. Kontrast unlilar deganda nimani tushunasiz?

Tayanch tushunchalar:

Assimilatsiya [assimilation] – unli va undoshlarning oʻxshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.

Diftong va diftongoid [diphthong and diphtongoid] – bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi.

Dissimilatsiya [dissimilation] – undosh tovushlardagi nooʻxshashlik.

Fonetik qonuniyat [phonetic laws] – oʻzbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bogʻliq holda yuz beradigan fonetik hodisa.

Konsonantizm [konsonantizm] – undoshlar tizimi.

Kontrast unli [contrast vowel] – old qator va orqa qator xususiyatlariga koʻra zidlangan unlilar.

Labial singlarmonizm [labial singlarmonizm] – lablangan unlilar uygʻunligi.

Lingval singlarmonizm [lingual singlarmonizm] – old qator va orqa qator unlilar uygʻunligi.

Singarmonizm [singarmonizm] – unlilar uygʻunligi.

Tovush mosligi [correspondence of sound] – soʻz maʼnosiga putur yetkazmaydigan tovush oʻzgachaliklari.

Unlilar choʻziqligi [length of vowels] – unlilarning boshqa tovush taʼsirida va uning taʼsirisiz choʻzilishi.

Vokalizm [vocalizm] – unlilar tizimi.

Mavzu: Oʻzbek shevalarining morfologik xususiyatlari

Reja:

1. Oʻzbek shevalarida grammatik son va egalik kategoriyasi.
2. Oʻzbek shevalarida kelishik kategoriyasi.
3. Soʻz turkumlaridagi ayrim oʻziga xosliklar.
4. Oʻzbek shevalarida feʼl shakllarining oʻziga xosligi.

Matn

Oʻzbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida toʻla maʼlumot berishning darslikda imkoniyati chegaralangan, lekin ularning eng umumlashadigan, tadqiqot obyektini oʻrganishga asos boʻladigan oʻrinlarigagina toʻxtalish mumkin.

Oʻzbek adabiy tilidagi soʻz turkumlari, gap boʻlaklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakl va kategoriyalari, yozib olingan matnlar sintaksisining oʻziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Grammatik son kategoriyasi. Koʻplik maʼnosini ifodalashda shevalarda *-ləp ~ lür, -лар ~ lar, -нəp ~ nür, -нар ~ nar, -нə ~ nü, -əp ~ ür, -ə ~ ä, -лə ~ lä, -ла ~ la, -dəp ~ dür, -dap ~ dar, -məp ~ tür, -map ~ tar* kabi koʻplik qoʻshimchalari qoʻllanadi.

Oʻzbek shevalari uchun *-ləp ~ lür* arxivariant hisoblanadi va u barcha oʻzbek shevalari uchun umumiydir. Shevalarda koʻplik affiksining quyidagi variantlari amalda bor:

-ла ~ **lä** varianti Toshkent shahar va Xorazm shevalarida faol qoʻllanadi: uylar ~ ойла ~ **ojlä**, qoʻyinglar ~ қойыйла ~ **qojjlä**, gullar ~ гулла ~ **güllä**, kunlar ~ гулла ~ **güllä**;

-на ~ **nä** varianti Namangan shevasida qayd qilinadi: uyinglar ~ уйыйна ~ **ujijnä**, qoʻyinglar ~ қойыйна ~ **qojijnä**;

-ла ~ **la** varianti esa Xorazm shevalarida uchraydi: qizlar ~ қы:зла ~ **qï:zla**, ular ~ ^хула ~ **^hula**;

-ә/әр ~ **ä/är** varianti shahar va shahar tipidagi shevalarda qoʻllanadi: bizlar ~ бьзә(р) ~ **bizä(p)**, sizlar ~ сьзә(р) ~ **sizä(p)**;

-нәр ~ **när**, -нар ~ **nar**, -дәр ~ **där**, -дар ~ **dar**, -тәр ~ **tär**, -тар ~ **tar** affikslari qipchoq shevalariga xosdir: uzumlar ~ үзүмнәр ~ **üzümnär**, mehmonlar ~ меҳманнар ~ **mehmannar**, jigitlar ~ джъгьттәр/джъгьлләр ~ **žigittär/žigillär**, ojinlar ~ ойундар ~ **ojundar**.

Oʻzbek tilining Qorabuloq, Iqon shevalarida tarixiy qoʻsh koʻplik shakli uchraydi: bular ~ булалар ~ **bulalar**, shular ~ шулалар ~ **šulalar** (aynan: **bu+lar+lar**, **shu+lar+lar**).

-ләр ~ **lär** affiksi va uning variantlari Toshkent, Fargʻona va Xorazm shevalarida **hurmat** maʼnosini ham ifodalaydi.

Ayrim shevalarda koʻplik, jamlik maʼnolarini ifodalovchi maxsus affikslar ham bor, masalan, Toshkent dialekti shevalarida quyidagi affikslar uchraydi:

-льг ~ **lig** affiksi: kiyimlari ~ кыйьмльгь ~ **kijimligi**, ishlari ~ ьшльгь ~ **ishligi**;

-луг ~ **lug** affiksi: oʻzlari ~ озлугь ~ **ozlugi**, uylari ~ ойлугь ~ **ojlugi**.

-гь ~ **gi** affiksi shaxsni bildiruvchi soʻzlarga qoʻshiladi: эйьмгьлә ~ **ājьmgilä** (bu oʻrinda oyisi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi), әдәмгьлә ~ **ädämgilä** (bu oʻrinda ham adasi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi).

Til tarixida koʻplikning -m ~ **t**, -з ~ **z**, -қ/к ~ **q/k** affikslari bilan ifodalangan shakllari mavjud boʻlgan. Ularning qoldiqlari, yaʼni -қ ~ **q** affiksining -ақ ~ **aq** varianti Surxondaryoning Jarqoʻrgʻon, Termiz, Sherobod tumanlarida yashovchi qoʻngʻirotlar shevalarining ayrim

soʻzlarida saqlanib qolmoqda. Ular, asosan, olmosh va feʼl shakllarida uchraydi: Sizlar borip keldingizlarmi ~ *съзақ барып кедъңъзақъмь* ~ *sizaq barip kedinizaqmi?* Oʻzingizlar ~ *өзъңъзақ* ~ *ʻöziñizaq*. Bu affiks faqat orqa qator variantli boʻlib, koʻplik maʼnosini eslatib tursa-da, u ushbu oʻrinlarda mavjud koʻplikni taʼkidlashga xizmat qilgan.

Egalik kategoriyasi. Bu kategoriyadagi shakllarning semantikasi adabiy til bilan aynan, lekin shevalarda egalik qoʻshimchalari koʻp variantli boʻladi va shu bilan ular adabiy tildan farqli xususiyatlarga ega

I shaxs birligida *-м/ъм/ьм/ум/үм* ~ *m/im/ım/um/üm* affiksi qatnashadi: bolam ~ *балам* ~ *balam*, inim ~ *ьнъм* ~ *inim*, alim (qoʻlim) ~ *эльм* ~ *älim*, jonim ~ *джаньм* ~ *žanım*, qoʻlim ~ *қолум* ~ *qolum*, koʻnglim ~ *көңлүм* ~ *könlüm*.

I shaxs koʻpligida *-мъз/мъз(с)/ьмъз/ьмъз(с)* ~ *miz/miz(s)/imiz/imiz(s)*, *-умуз(с)/үмүз* ~ *umuz(s)/ümüz*, *-вуз/вузә* ~ *vuz/vuzä* affiksi qatnashadi: balamiz ~ *баламъз/с* ~ *balamiz/s*, inimiz ~ *ьнъмъз* ~ *inimiz*, jonimiz ~ *джаньмъз/с* ~ *žanimiz/s*, qolimiz ~ *қолумуз/с* ~ *qolumuz/s*, koʻnglimiz ~ *көңлүмүз* ~ *könlümüz*, ishimiz ~ *ьшьвуз(ә)* ~ *išivuz(ä)*.

II shaxs birligida *-ң/ъң/ьң/уң/үң* ~ *ñ/iñ/ıñ/uñ/üñ* affikslari keladi: bolang ~ *балаң* ~ *balan*, ining ~ *ьпъң* ~ *iniñ*, aling (qoʻling) ~ *эльң* ~ *äliñ*, joning ~ *джаньң* ~ *žaniñ*, qoʻling ~ *қолуң* ~ *qoluñ*, koʻngling ~ *көңлүң* ~ *könlüñ*.

II shaxs koʻpligida *-ңъз/ңъз(с)* ~ *ñiz/ñiz(s)*, *-ъңъз/ьңъз(с)* ~ *iñiz/iñiz(s)*, *-үңүз/уңуз(с)* ~ *üñüz/uñuz(s)*, *-и:з* ~ *i:z*, *и:йлә* ~ *i:jlä*, *-(ь)ңлә/(ь)ңла* ~ *(i)ñlä/(i)ñla* affikslari ishtirok etadi: balangiz ~ *балаңъз/с* ~ *balaniz/s*, iningiz ~ *ьпъңъз* ~ *iniñiz*, joningiz ~ *джаньңъз/с* ~ *žaniñiz/s*, qolingiz ~ *қолуңуз/с* ~ *qoluñuz/s*, koʻnglingiz ~ *көңлүңүз* ~ *könlüñüz*, ishinglar ~ *ьшьңлә* ~ *išinlä*, uyinglar ~ *ойъйлә* ~ *ojijlä*, qoʻlinglar ~ *қольңла* ~ *qoliñla*.

III shaxs birlik va koʻpligida *-ь/ь* ~ *i/i*, *-сь/сь* ~ *si/si*, *баʼзан-сы/сү* ~ *su/sü* (Qorabuloq) affiksilar qatnashadi: bolasi ~ *балась* ~ *balasi*, inisi ~ *ьнъсь* ~ *inisi*, ali (qoʻli) ~ *эль* ~ *äli*, jonь ~ *джань* ~ *žani*, tulkisi ~ *түлкүсү* ~ *tülküsü*, qoyi ~ *қойу* ~ *qoju*.

Egalik affikslari singarmonizmning palatal va labial turlari qonuniyatlariga to'la bo'sunadi, lekin shevalarda muayyan qonuniyat bilan bog'lash mumkin bo'lmagan xususiyatlar ham uchraydi va uni nutq qulayligi, iqtisodi hamda til tarixi bilan bog'lash mumkin bo'ladi, masalan, Toshkent shevasida I shaxs ko'pligida *-vuz / vuzə ~ vuz / vuzä* affiksi qatnashadi: *kitobimiz ~ кѳтѳпубуз ~ kitāpuvuz*, II shaxs ko'pligida esa *-u:z/ъйъз/йлэ ~ i:z/ijiz/jlä* affiksi qatnashadi: *kitobingiz ~ кѳтѳпнu:z ~ kitāpi:z*, kitoblaring *~ кѳтѳпъйлэ ~ kitāpijlä*.

Kelishik kategoriyasi. Ma'lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7ta kelishik shakli bo'lgan, hozirgi o'zbek adabiy tili 6ta kelishik shakliga asoslanadi. O'zbek shevalarida esa ba'zan bu raqam to'rttagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy o'zbek shevalaridagina 6ta kelishik shakli to'liq saqlanadi. O'g'uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg'ona shevalarida 5ta kelishik qo'llanadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "ü ~ j" lovchi shevalarida 4ta kelishik qayd qilinadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko'rsatkich bilan, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi ham bir xil ko'rsatkich bilan ifoda qilinadi.

Bosh kelishik. Ko'rsatkichi yo'q.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining aksariyat shevalarida, o'g'uz lahjasining ayrim shevalarida funksional emas, ya'ni to'rt va besh kelishikli shevalarda bu kelishik affikslari qo'llanmaydi. Bu kelishik amalda bolgan shevalarda quyidagi affikslar qatnashadi:

-nъң/nъң ~ niң/niң affiksi ko'proq unli va sonor undoshlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *ena ~ енәнъң ~ enāniң*, otaning *~ атанъң ~ atanīң* (qipchoq);

-ъң/ъң ~ iң/iң affiksi undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: ko'pning toyi *~ көпъң тойъ ~ köpiң toji*, otning boshi *~ атъң башъ ~ atīң baši* (qipchoq);

-нүң/нүң ~ nüң/nüң affiksi lablangan unli qatnashgan va unli yoki sonor undoshlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: uning *~ онүң ~ onuң*, uying *~ үйнүң ~ üjnüң* (qipchoq);

- уң/уң ~ **üñ/üñ** affiksi lablangan unli qatnashgan va undoshlar bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: koʻzning qorachigʻi ~ көзүң қарачығь ~ **közün qaraçyï**, tunning qorongʻusi ~ түңүң қараңысь ~ **tünün qarañisi**, qoʻyning juni ~ қойуң йүнь ~ **qojun jüni** (shim.oʻzb. shev.);

-дың/дың ~ **diñ/diñ** affiksi jarangli undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: bizning ~ бьздың ~ **bizdiñ**, ularning ~ олардың ~ **olardiñ** (qipchoq);

-дүң/дүң ~ **dün/dün** affiksi lablangan unli qatnashgan va jarangli undoshlar bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: qoyning ~ қойдүң ~ **qojdün**, koʻzning ~ көздүң ~ **közdün** (qipchoq);

-төң/төң ~ **tiñ/tiñ** affiksi jarangsiz undoshlar bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: katakning ~ кәтәхтөң ~ **kätäxtiñ**, otning ~ аммөң ~ **attiñ** (qipchoq).

Tushum kelishigida quyidagi affikslar qatnashadi:

-нъ/нъ ~ **ni/nï** affiksi: olmani ~ элмәнъ ~ **ālmāni** (Toshk.), suvni ~ сувнъ ~ **suvni** (shim. oʻzb. shev.). -нъ varianti arxivariant hisoblanadi va barcha shevalarda qoʻllana oladi;

-ь ~ **i** affiksi undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilgan, Qorakoʻl va Olot shevalarida amalda bor: ishni qil ~ и:шъ қыл ~ **i:šï qil**, soʻzni bilmasang gapirma ~ сөзъ бълмәсәң гәпърмә ~ **sözi bilmäsän gäpirmä**;

-нү/нү ~ **nü/nu** affiksi oxirgi boʻgʻinida lablangan unli boʻlgan soʻzlarga qoʻshiladi. Qorabuloq, Mankent shevalarida uchraydi: qoʻzini ~ қозуну ~ **qozunu**, tulkini ~ түлкүнү ~ **tülkünü**;

-дъ/дъ/тъ/тъ ~ **di/di/ti/ti** affiksi undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi va barcha singarmonizmli shevalarda bor: togʻni ~ тавдъ ~ **tavdi**, yigitlarni ~ джъгьттәрдъ ~ **žigittärdi**, otni ~ аммъ ~ **atti**, mehnatkashni ~ мьйнәткәштъ ~ **mijnätkäšti**. -дъ/тъ ~ **di/ti** varianti Fargʻona guruh shevalarida ham qoʻllanadi: uyni ~ үйдъ ~ **ujdi**, ishni ~ ъштъ ~ **išti**.

Aksariyat shevalarda tushum kelishigi affiksidagi **н** ~ **n** undoshi kuchli assimilatsiyaga uchraydi. Bu ayniqsa Toshkent shevasida yaqqol koʻrinadi: qoʻlni ~ қолль ~ **qolli**, boshni ~ бәššъ ~ **bāšši**.

Tushum kelishigining belgisiz qoʻllanishi barcha shevalarga xosdir: Biz keldik kelin koʻrgani ~ *бъз келлъй келън коргәнъ* ~ **biz kellij kelin korgāni**. Chumchuq soysa ham, qassob soysin ~ *чумчуғ сойсәйәм, қәссәр сойсун* ~ **čumčuy sojsājäm. qässäp sojsun** (Qarshi).

Joʻnalish kelishigida quyidagi affiksklar ishtirok etadi:

-gə/kə/qa/za ~ **gä/kä/qa/ya** affiksi. Bu affiksning barcha variantlari singlarmonizmli shevalarda qoʻllanadi. Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda *-gə/kə* ~ **gä/kä** varianti uchraydi, xolos: uyga ~ *үйгә* ~ **üjgä**, ishga ~ *ишкә* ~ **iškä**; *-qa/za* ~ **qa/ya** varianti singlarmonizmli shevalarda orqa qator unlilar kelgan asoslarga qoʻshiladi: oʻqishga ~ *оқушқа* ~ **oqušqa**, dalaga ~ *далага* ~ **dalaya**;

-a/ə ~ **a/ä** affiksi oʻgʻuz guruh shevalarida va shimoliy oʻzbek shevalariga xosdir: qoʻlimga ~ *қольма* ~ **qolima**, gullarga ~ *гүлләрә* ~ **güllärä**;

-na/nə ~ **na/nä** affiksi oʻgʻuz shevalarida uchraydi: alina (qoʻliga) ~ *әлнә* ~ **älinä**, bolasiga ~ *баласъна* ~ **balasina**;

-ya/yä ~ **ja/jä** affiksi Qarshi shevasida uchraydi: xurmaga ~ *хурмайа* ~ **xurmaja**, oʻziga ~ *өзбйә* ~ **özijä**, U katta akasiga xurmada qatiq olib borayotgan chogʻda yoʻlda yomgʻir yogʻgan ~ *О кәттә әкәсбйә хурмәйә қәтбх әб бәргән чәхгә йолгә йәгмур йәққән* ~ **O kättä äkäsijä xurmäjä qätix äb bārgän čāxgä jolgä jäymur jāqqän**.

Joʻnalish kelishigi affikslari 4 kelishikli shevalarda oʻrin-payt kelishigi maʼnosini ham ifodalaydi. Bu yuqoridagi *хурмайа* ~ **xurmaja**, *чәхгә* ~ **čāxgä**, *йолгә* ~ **jolgä** misollarida ham koʻrinib turibdi.

Oʻgʻuz lahjasi shevalari va shimoliy oʻzbek shevalarida joʻnalish kelishigidagi kishilik olmoshlari menga ~ *маңа* ~ **maņa**, senga ~ *саңа* ~ **saņa**, unga ~ *уңа* ~ **uņa** shaklida, qipchoq lahjasi shevalarida esa *маған* ~ **mağan**, *саған* ~ **sağan**, *оған* ~ **oğan** shaklini oladi.

Oʻrin-payt kelishigida *-də/da/mə/ma* ~ **dä/da/tä/ta** affiksi qatnashadi. *-də/mə* ~ **dä/tä** affiksi barcha shevalarda, *-da/ma* ~ **da/ta** affiksi esa singlarmonizmli shevalarda keladi: ishda ~ *ишмә* ~ **ištä**, qoʻlida ~ *қолуда* ~ **qoʻluda**, ichida ~ *и:чъндә* ~ **i:čindä**, shu orada ~ *шү ортальқта* ~ **šu ortalıqta** (qipchoq).

Chiqish kelishigida 4 toifa affikslar ishtirok etadi:

-*ḍan/ḍan/mān/man* ~ *dün/dan/tün/tan* affiksining qoʻshilish imkoniyatlari keng: -*ḍan/mān* ~ *dün/tün* affiksi barcha shevalarda qoʻllana oladi: Buxorodan ~ *Бухэрэдән* ~ *Buxārādän*, sendan ~ *сәндән* ~ *sändän*. Boshqalari esa singarmonizimli shevalarga xosdir: yarrogʻidan ~ *йарнақьдан* ~ *yarraqʻdan*, maxluqdan ~ *махлуқтан* ~ *maxluqtan* (qipchoq);

-*nän/nan* ~ *nän/nan* affiksi Xorazm, baʼzi qipchoq shevalarida **m, n, ң** ~ **η** undoshlari bilan tugagan sozlarga qoʻshiladi: oʻzingdan ~ *өзъңнән* ~ *öziñnän*, boʻyingdan ~ *бойуңнан* ~ *bojuñnan*, oʻzimdandan ~ *өзъмнән* ~ *özimnän*, oʻyindandan ~ *ойьннан* ~ *ojännan*;

-*ḍyn/ḍyn/tyn/tyñ* ~ *din/din/tin/tin* affiksi shimoliy oʻzbek shevalarida bu kelishikning asosiy affiksidir: sutchidan ~ *сүйтчъḍьн* ~ *süjtčidin*, oshxonadan ~ *ашханаḍьн* ~ *aşxanadin*, topa olmasdan ~ *тапамастьн* ~ *tapamastin*, Chimkentdan ~ *Чъмгәттьн* ~ *Čimgättin*;

-*ḍun/ḍun/tun/tün* affiksi koʻproq Qorabuloq, Mankent shevalarida va bir qator singarmonizimli shevalarda uchraydi va oxirgi boʻgʻinida lablangan unli boʻlgan soʻzlarga qoʻshiladi: uydandan ~ *үйдүн* ~ *üjdün*, qoʻyundan ~ *қойдун* ~ *qojdun*.

Oʻgʻuz va qipchoq lahjasi shevalarida egalik va kelishik affikslari oʻrtasida interkalar **n** tovushining kelishi ham kuzatiladi: qoʻllarida ~ *қолларьнда* ~ *qollarında*, soʻzidan ~ *сөзъннән* ~ *sözinnän*, oʻzida ~ *өзъндә* ~ *özindä*.

Shevalarda modal shakllar. Oʻzbek shevalarida ot, sifat, feʼl turkumlarining ichki kategoriyalarida shevalarning xususiyatlarini koʻrsatadigan soʻz shakllari ham bor. Quyida ot turkumidafi shunday shakllar bilan tanishamiz:

-*ḍjən* ~ *žān* affiksi Fargʻona vodiysi shevalarida erkaklar ismiga qoʻshilib, hurmat maʼnosini ifodalasa, Xorazm shevalarida -*ḍjan* ~ *žan* shaklida qizlar (ayollar) ismlariga qoʻshiladi. Toshkent va boshqa baʼzi shevalarda kelinlarning qajnota va qajnonaga murojaatida bu affiks *эйьḍжән* ~ *ajžān*, *әдәḍжән* ~ *ädäžān* soʻzlarida uchraydi;

-*xən* ~ *xān* affiksi Toshkent, Fargʻona vodiysida erkaklar ismlariga qoʻshilganda, hurmat, nasl-nasabga aloqadorlik mazmunini ifoda qiladi;

-*бай* ~ *baj* affiksidan Xorazmda erkaklarga hurmat ifodalash uchun foydalaniladi.

Shimoliy o‘zbek shevalarida va ayrim qipchoq, o‘g‘uz shevalarida yoshi kattalarni hurmat qilishda ularning nomini qisqartirib chaqirish keng tarqalgan: Qurbon aka ~ *Қурәкә* ~ *Qurükä*, Sobir aka ~ *Сәкә* ~ *Säkä*, Toshpo‘lat aka ~ *Тәшәкә* ~ *Täšäkä* kabi. Bunda qozoq va qoraqalpoq tillarining ta’siri bor. Yoshi kichiklarni erkalash yoki izzat qilishda qisqartirilgan so‘z oxiriga **sh**, **m**, **n** kabi undoshlarni qo‘shib talaffuz qilish an’anasi bor: Otajon ~ *Аташ* ~ *Ataš*, Dadaxon ~ *Дадан* ~ *Dadan*, Eshmuhammad ~ *Ешъм* ~ *Ešim* kabi.

Shevalarda -*ч/ш* ~ *č/š* affiksi ayollarni, qizlarni erkalash uchun qo‘llanadi: bikajon ~ *бькәч* ~ *bikäč*, onajon ~ *анач* ~ *anač* (Xorazm), Onajon (ism) ~ *Анаш* ~ *Anaš* (shim. o‘zb. sh.).

Erkalash-kichraytirish ifodalovchi **-cha** affiksi aksariyat shevalarda, xususan, shimoliy o‘zbek shevalarida qo‘llanmaydi, balki bu affiks shevalarda adabiy tilning ta’sirida paydo bo‘lmoqda.

Sifat. Sifatlardagi adabiy tilga xos aksariyat so‘zlar, affikslar shevalarda ham ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi, jumladan, sariq ~ *сарь* ~ *sari* (qipchoq, o‘g‘uz), issiq ~ *ы:ssь* ~ *i:ssi* (o‘g‘uz), qora ~ *қара* ~ *qara* (qipchoq, o‘g‘uz), qattiq ~ *қәтти:* ~ *qättu:* (Toshkent). Sifat darajalaridagi juda ~ *дәә* ~ *žä* (aksariyat shevalarda), eng ~ *и:ң* ~ *i:ŋ* (Qarshi), belgining kamligini ifodalovchi -roq affiksi *-рәқ* ~ *rāq*, *-рақ* ~ *raq*, *-рәк* ~ *räk* variantlariga ega. Shu bilan birga, shevalarning o‘z affikslari ham bor. Qipchoq lahjasining aksariyat shevalarida va shimoliy o‘zbek shevalarida sifatlardagi belgining kamligi *-ләү(в)/лау(в)* ~ *läü(v)/lau(v)* affiksi bilan ifoda qilinadi: oqroq ~ *ақлау(в)* ~ *aqlau(v)*, ko‘kroq ~ *көкләү(в)* ~ *kökläü(v)*, xomroq ~ *хамлау(в)* ~ *xamlau(v)* (shim.o‘zb. shev.).

Belgining ortiqligini ifodalashda Xorazm shevalarida *зъл* ~ *zīl* so‘zidan foydalaniladi: qop-qora ~ *зъл қара* ~ *zīl qara*, sap-sariq ~ *зъл сарь* ~ *zīl sari*.

Son. Sodda va murakkab sonlarning hosil qilinishida adabiy til tizimi saqlanadi. Ayrim sonlarning talaffuzidagina farqlar qayd qilinadi:

ikki ~ *әккь* ~ **äkki** (Marg‘ilon), yetti ~ *йәдъ* ~ **jädi**, ellik ~ *әллъ* ~ **älli** (Xorazm), yetti ~ *джеть* ~ **žeti** (qipchoq).

Sonning ma‘no turlarini hosil qilishda ba‘zi shevalarda o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Shimoliy o‘zbek shevalarida dona son hosil qilinmaydi, ya‘ni sonning qo‘shimchasiz holati dona sonni bildiradi yoki jamlovchi sonning *-өв* ~ **öv** affiksi *бърөв* ~ **biröv**, *екөв* ~ **eköv** tarzida dona sonni ham ifoda qiladi, bu shaklda o‘g‘uz lahjasi shevalarida *дәнә* ~ **dänä** sozidan foydalaniladi: ikkita ~ *ьккь дәнә* ~ **ikki dänä**, uchta ~ *үч дәнә* ~ **üč dänä**.

Jamlik son Xorazm shevalarida egalik affiksi vositasida, ya‘ni ikkalasi ~ *иккьсь* ~ **ikkisi**, uchalasi ~ *үчьсь* ~ **üčisi** kabi shakllar orqali ifoda qilinadi.

Olmosh. Kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o‘zgarish bilan shevalarda qo‘llanadi, ya‘ni o‘g‘uz va shahar shevalarida men ~ *мән* ~ **män**, sen ~ *сән* ~ **sän** variantida kelishi xarakterli. Qipchoq lahjasi shevalarida III shaxsda u ~ **o**, *ул* ~ **ul**, *ол* ~ **ol** variantlarida uchraydi. Ko‘rsatish olmoshining *шы* ~ **šo** (qipchoq), osha ~ *ошь* ~ **ošī** (Turkiston), mana shu ~ *мәшъ* ~ **mäši** (Toshkent), ana shu ~ *әшъ* ~ **äši** (Farg‘ona) kabi shakllari mavjud. Adabiy tildagi **u**, **bu**, **shu** olmoshlari shimoliy o‘zbek shevalarida *ул* ~ **ul**, *бул* ~ **bul**, *шул* ~ **šul** shakllarida qo‘llanadi.

Ravishlarning aksariyati adabiy til variantlariga yaqin, ba‘zilari kuchli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi: u yoqda ~ *ағда* ~ **ayda**, bu yoqda ~ *бағда* ~ **bayda** (Farg‘ona vodiysi shevalarida), kop ~ *күб* ~ **küb** (qipchoq).

Yordamchi so‘zlar, undov va taqlidiy so‘zlar ham adabiy tildan ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi. **Va** bog‘lovchisi hech bir shevada amalda emas. **Ham** so‘zi (**h** undoshi eliziyaga uchragan holda) shevalarda bog‘lovchi vazifasidan ko‘ra yuklama vazfasida ko‘proq keladi. Shuningdek, shevalarda hu ana ~ *хәйлә* ~ **häjlä** (Samarqand), faqat ~ *тек* ~ **tek** (Turkiston), ha ~ *ава* ~ **ava** (o‘g‘uz), axir ~ *хав* ~ **hav** (birpas damimni olayin, axir ~ *бър заман дәмъмнъ алайън*, *хав* ~ **bir zaman dämimni alajin**, **hav** (o‘g‘uz) yuklamalari, **-yu**, **-ku** yuklamalariga ekvivalent bo‘ladigan *-эу* ~ **yu** ta‘kid yuklamasi

uchraydi: bordi-ku ~ бардъ-гу ~ *bardī-γu*, keldi-ku ~ кәдъ-гу ~ *küdi-γu* (Turkiston). -гу ~ *γu* yuklamasi bir variantli boʻlib, singarmonizmga boʻysynmaydi. Shuningdek, birt-chirt ~ бьрт-чьрт ~ *birt-čirt* (Turkiston) kabi adabiy tilda uchramaydigan taqlidiy soʻzlar ham bor.

Feʼl (tuslanishi).

Oʻzbek shevalarida ham tuslovchi affikslarning (shaxs-son affikslarining) uch tipi bor va ular bir necha shakllarga ega boʻladi:

I tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar toʻliq tuslovchilar deb ham yuritiladi.

I shaxs birligida -мән/ман ~ *män/man* affiksi qatnashadi: kelaman ~ келәмән ~ *kelämän*, oʻqiyman ~ оқъймән ~ *oqijmän* (Toshkent), oʻynayman ~ ойнайман ~ *ojnajman* (qipchoq). Ayrim oʻgʻuz va shimoliy oʻzbek shevalarida bu affiksdagi **n** undoshi talaffuz qilinmasligi mumkin: boraman ~ барамә - *baramä*, kelaman ~ гәләмә ~ *gälämä*.

I shaxs koʻpligida -мъз(ә)/мъз/с/нъз/нъз/с ~ *miz(ä)/miz/s/piz/piz/s*, -вуз/вузә ~ *vuz/vuzä* affikslari qatnashadi. Singarmonizmli shevalarda affiksdagi **з** ~ **z** undoshi jarangsizlashadi. -мъз(ә) ~ *miz(ä)* varianti, deyarli, barcha shevalarda qayd qilinadi: ketyapmiz ~ кетвәммъз ~ *ketvāmmiz*, boryapmiz ~ бөрвәммъзә ~ *bārvāmmizä* (Toshkent), -вуз/вузә ~ *vuz/vuzä* varianti Toshkent, Qarshi shevalarida qoʻllanadi: ishlajmiz ~ ишльйвуз(ә) ~ *išlijvuz(ä)*, qilamiz ~ қъләвуз ~ *qilāvuz*, -нъз/нъз/с ~ *piz/piz/s* varianti (aslida u assimilativ variant) singarmonizmli shevalarda uchraydi: kelyapmiz ~ кәйәппъз/с ~ *käjäppiz/s*, qarabmiz ~ қарәппъз/с ~ *qarappiz/s* (Turkiston).

-мъз ~ *miz*, -вуз(ә) ~ *vuz(ä)* affikslari Toshkent shevasida -дъ ~ *di*, -сә ~ *sä* affiksli soʻz shakllariga qoʻshila olgan: oldik ~ әлдъмъз/әлдъвуз(ә) ~ *āldimiz/āldivuz(ä)*, aytsak ~ әйтсәмъз/әйтсәвуз(ә) ~ *äjtsämiz/äjtsävuz(ä)*, berdik ~ бердъмъз/бердъвуз(ә) ~ *berdimiz/berdivuz(ä)*, yursak ~ йурсәмъз/йурсәвуз(ә) ~ *jursämiz/jursävuz(ä)*.

II shaxs birligida singarmonizmli shevalarda -сән/сан ~ *sän/san* affiksi qatnashadi: ekasan ~ егәсән ~ *egäsän*, borasan ~ барасан ~ *barasan* (qipchoq). Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda faqat -сән~

sün varianti qoʻshiladi: *kelasan* ~ *келәсән* ~ *keləsən*, *oqiysan* ~ *оқыйсән* ~ *oqijsän* (Toshkent). Bu shaklda ham ayrim oʻgʻuz va shimoliy oʻzbek shevalarida **n** undoshi talaffuz qilinmaydi: *borasan* ~ *бараса* ~ *barasa*, *kelasan* ~ *гәләсә* ~ *gäläsü*.

II shaxs koʻpligida *-съз/сөз/с + лә(p)/ла(p)* ~ *siz/siz/s + lä(r)/la(r)*, *-с* ~ *s*, *-сълә* ~ *silä* affiksi ishtirok etadi. Bu shaxsda ham singarmonizmli shevalarda affiksdagi **z** undoshi jarangsizlashadi.

-съз ~ *siz* varianti, deyarli, barcha shevalarda qoʻllanadi: *boryapsiz* ~ *бөрвәссөз* ~ *bürvässiz* (Toshkent), *ketyapsiz* ~ *көтүәңсөз* ~ *ketjäpsiz* (Margʻilon).

-съз/сөз/с + лә(p)/ла(p) ~ *siz/siz/s + lä(r)/la(r)* varianti singarmonizmli shevalarda qoʻllanadi: *baribsъz* ~ *барьңсөз/с* ~ *baripsiz/s*, *ushlabsiz* ~ *ушлансөз/с* ~ *ušlapsiz/s*, koʻribsizlar ~ *көрьңсөзләр* ~ *köripsizlär*, oqibsizlar ~ *оқьңсөз/слар* ~ *oqijsiz/slar*.

-с, -сълә ~ *s, silä* varianti esa Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qoʻllanadi: *ishlaysiz* ~ *ишльйс/ишләйс* ~ *išlijs/ išläjs*, *kelasizlar* ~ *келәсълә* ~ *keläsilä*.

III shaxsda affiks qatnashmaydi, lekin *-a/ә* ~ *a/ä*, *-ü* ~ *j*, *-б* ~ *b* affiksli ravishdoshlar ishtirok etgan feʼllarda va boshqa ayrim feʼllarda *-дъ/дь/ть/тө* ~ *di/di/ti/ti* affiksi va uning koʻpligida baʼzan *-лә(p)/ла(p)* ~ *lä(r)/la(r)* affiksi qoʻshilishi mumkin. Singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda faqat *-дъ/ть* ~ *di/ti* varianti qoʻllanadi: *ishlaydi* ~ *ишльйдъ* ~ *išlijdi*, *kelyapti* ~ *көвәттө* ~ *kevätti*, singarmonizmli shevalarda esa *-дъ/дь/ть/тө* ~ *di/di/ti/ti* variantlarining barchasi qoʻllanadi: *boradi* ~ *барадъ* ~ *baradi*, *ichadi* ~ *и:чәдъ* ~ *i:čädi*. Tojikistonning janubiy oʻzbek shevalarida *-ту* ~ *tu* varianti ham qayd qilinadi: *sochyapti* ~ *чәчәпту* ~ *čäčäptu*.

Samarqand va Navoiy viloyatining ayrim shevalarida *-a/ә* ~ *a/ä* affiksli soʻzlarning III saxsida tuslovchi affiks qatnashmaydi: *мен бараман* ~ *men baraman*, *сен барасан* ~ *sen barasan*, *о бара* ~ *o bara*.

II tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar qisqargan tuslovchilar deb ham yuritiladi va ular *-дъ/дь/ть/тө* ~ *di/di/ti/ti* va *-сә/са* ~ *sä/sa* affikslari bilan shakllangan feʼllarga qoʻshiladi.

I shaxs birligida faqat *-m ~ m* affiksi qatnashadi: *alдим ~ алдьм ~ aldim*, *aytsam ~ айтсам ~ ajtsam*, *berdim ~ бердьм ~ berdim*, *yursam ~ үүрсәм ~ jürsä*m. Shevalardagi *көрдүм ~ kördüm*, *қойдум ~ qojdum* tuslanishida ikkinchi bo‘g‘indagi lablangan unlilarning qatnashishi labial singarmonizmga amal qilishi tufayli yuz bergan, y’ani ikkinchi bo‘g‘indagi *γ/y ~ ü/u* unlilari o‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi *-дь/дь ~ di/di* affiksidagi unlining lab garmoniyasiga bo‘ysunishidir, lekin tuslovchi affiks qo‘shilmasa, **u** unlisi singarmonizmga bo‘ysunmaydi.

I shaxs ko‘pligida *-k/q ~ k/q*, *-u:ü ~ i:j*, *-v/vuz/vuzä ~ v/vuz/vuzä* affikslari qatnashadi.

-k ~ k affiksi singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda qo‘llanadi: *ko‘rdik ~ кордьк ~ kordik*, *bordik ~ бәрдьк ~ bārdik*. Toshkent shevasida shart maylidagina qayd qilinadi: *borsak ~ бәрсок ~ bārsok*, *olsak ~ элсок ~ ālsok*. Shuningdek, Toshkent shevasida *-k ~ k* affiksini o‘tgan zamon fe’lida *-z ~ z* affiksi almashtiradi va bunda qisman fonetik o‘zgarish yuz beradi: *bordik ~ бәрдуз ~ bārduz*, *keldik ~ келдуз ~ kelduz*.

-k/q ~ k/q oppozitiv variantlari singarmonizmli shevalarning asosiy xususiyati hisoblanadi: *keldik ~ келдьк ~ keldik*, *bordik ~ бардьк ~ bardiq*.

-v/vuz/vuzä ~ v/vuz/vuzä affiksi bilan shakllangan fe’llar Toshkent shevasida kengroq: *borsak ~ бәрсовуз(ә) ~ bārsovuz(ä)*. Bu affiks qo‘shilishi bilan so‘zda sifat o‘zgarishi yuz beradi, ya’ni *-sә ~ sä* affiksi tarkibidagi *ә/ä* unlisi **o** unlisiga o‘tadi.

-u:ü ~ i:j affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida iste’molda bor: *urdik ~ урди:ü ~ urdi:j*, *bildik ~ бьлди:ü ~ bildi:j*.

II shaxs birligida *-ñ ~ ñ* affiksi qatnashadi (bu affiksni buyruq-istak maylidagi *-ñ ~ ñ* affiksi bilan qorishtirmaslik kerak). Uning qo‘llanish qonuniyatlari I shaxsdagi *-m ~ m* affiksi bilan aynandir: *olding ~ алдьң ~ aldiñ*, *aytsang ~ айтсаң ~ ajtsañ*, *berding ~ бердьң ~ berdiñ*, *yursang ~ үүрсәң ~ jürsäñ*. Bu shaxsdagi affiksni Xo‘jand shevasida *-ü ~ j* affiksi almashtiradi: *ketayotgan eding ~ кетвәткән едьү ~ ketvātkән edij*. Bu o‘zgarish o‘sha sheva uchungina xarakterlidir.

II shaxs ko‘pligida quyidagi affikslar qatnashadi:

-*һыз/һыз* ~ *һиз/һиз* affiksi aksariyat shevalarda iste'molda bor: *bordingiz* ~ *бардьһыз* ~ *bardihiz*, *ketingiz* ~ *кетъһыз* ~ *kettihiz*. Shundan -*һыз* ~ *һиз* varianti singarmonizmni yo'qotgan shevalardagina mavjud, faqat Toshkent va Qarshi shevalarida bu affiks uchramaydi;

-*һуз/һуз* ~ *һуз/һуз* affiksi labial singarmonizm amal qiladigan shevalarda qo'llanadi: *buyurdingiz* ~ *буйурдуһуз* ~ *bujurduhuz*, *kuttingiz* ~ *күтмүһуз* ~ *küttühüz*;

-*йъз* ~ *jiz* affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida, -*злә* ~ *zlä* affiksi esa faqat Qarshi shevasida iste'molda bor: *bajardingiz* ~ *бәджәрдьйъз* ~ *bäzärdijiz*, *bordingiz* ~ *бәрдьзлә* ~ *bärdizlä*;

-*йлә* ~ *jlä* affiksi ham Toshkent va Qarshi shevalariga ko'proq xarakterli: *oldinglar* ~ *әлдъйлә* ~ *äldijlä*, *ishladinglar* ~ *ьшләдьйлә* ~ *ışlädijlä*;

-*ңлә/ңла* ~ *ñlä/ñla* o'g'uz lahjasi shevalari uchun xarakterlidir: *keldinglar* ~ *гәлдъңлә* ~ *gäldiñlä*, *bordinglar* ~ *бардьңла* ~ *bardiñla*.

III shaxsda tuslovchi affiks ishtirok etmaydi.

III tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar buyruq-istak maylida qayd qilinadi va o'ziga xos tuslanishga ega.

I shaxs birligida quyidagi affikslar qatnashadi va istak ma'nosini ifodalaydi:

-*(ә)й/(a)й* ~ *(ä)j/(a)j* affiksi barcha singarmonizmli shevalarda bor: *boray* ~ *барай* ~ *baraj*, *ketay* ~ *кетәй* ~ *ketäj*, *qo'llay* ~ *қоллай* ~ *qollaj*. Ko'rinadiki, unli bilan tugagan so'zlarga affiksning -*й* ~ *j* varianti qo'shiladi. Bu Qarnoq, Qorabuloq, Mankent shevalarida qayd qilinadi;

-*ьй* ~ *ij* affiksi singarmonizmni yo'qotgan shevalarda ishlatiladi: *ishlay* ~ *ьшльй* ~ *ışlij*, *ketay* ~ *кетъй* ~ *ketij*, *so'ray* ~ *соръй* ~ *sorij*. Bunda unli bilan tugagan so'zlardagi *ә* ~ *ä* unlisi *ь* ~ *i* unlisiga o'zgaradi: *boray* ~ *баръй* ~ *barij*, *oylay* ~ *ойльй* ~ *ojlij*, *ko'ray* ~ *көръй* ~ *körij*;

-*ьйън/ьйън* ~ *ijin/ijin* affiksi Xorazm va shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: *olib borayin* ~ *аппаръйън* ~ *apparijin*, *olib*

kelayin ~ *эққалъйън* ~ **äkkäljin**. Uning qisqargan shakli ham bor: *аппары:н* ~ **apparî:n**, *эққали:н* ~ **äkkäli:n**.

I shaxs ko'pligida quyidagi affikslar qatnashadi va ular ham istak ma'nosini ifodalaydi:

-*айну* ~ **äjnu**, -*йлу* ~ **ijlu**, -*айнук* ~ **äjnuک** affikslari singarmonizmni yo'qotgan shevalarda qo'llanadi: ishlaylik ~ *ышләйну* ~ **išläjnu** (Namangan), *эльлу* ~ **äljlu** (Toshkent), boraylik ~ *бэрәйнук* ~ **bāräjnuк** (Namangan, Xo'jand);

-*айльк/айльқ* ~ **äjlik/ajliқ** affiksi aksariyat singarmonizmli shevalarda talaffuzda mavjud: tushaylik ~ *чүшәйльк* ~ **čüşäjlik**, qaraylik ~ *қарайльқ* ~ **qarajliқ**. Bu affiksning -*айльк* ~ **äjlik** varianti singarmonizmni yo'qotgan shevalargagina xos: qo'llaylik ~ *қоллайльк* ~ **qolläjlik** (Marg'ilon);

-*айък/айъқ* ~ **äjik/ajïқ** affiksi qipchoq lahjasi shevalari uchun xarakterlidir: aytaylik ~ *әйтәйък* ~ **äjtäjik**, boraylik ~ *барайъқ* ~ **barajïқ**;

-*и:йк/ы:йқ* ~ **i:jk/i:jқ** affiksi shimoliy o'zbek shevalarida uchraydi: ko'raylik ~ *көри:йк* ~ **köri:jk**, qolaylik ~ *қалы:йқ* ~ **qali:jқ**;

-*эль/аль* ~ **äli/alï** affiksi Xorazm shevalarida qo'llanadi: boraylik ~ *бараль* ~ **baralï**, ketaylik ~ *гьтәль* ~ **gitäli**.

II shaxs birligida affiks qatnashmaydi. Bu shaxsda ishtirok etadigan -*гън/кън/гън/қън* ~ **gin/kin/yïn/qïn** affikslari buyruqni kuchaytirish yoki kuchsizlantirishga xizmat qiladi.

II shaxs ko'pligida quyidagi affikslar qatnashadi: -*(ъ)ң/(ь)ң/(ъ)ңләр/(ь)ңлар/(ъ)ңъзләр/(ь)ңъзлар* ~ **(i)ñ/(ï)ñ/(i)ñlär/(ï)ñlar/(i)ñizlär/(ï)ñizlar** affikslari aksariyat shevalarda amalda bor: boringizlar ~ *баръңъз(с)лар* ~ **bariñiz(s)lar**, kelinglar ~ *келъңләр* ~ **keliñlär**, qaranglar ~ *қараңлар* ~ **qarañlar** (qipchoq). -*(ъ)ң/(ь)ң* ~ **(i)ñ/(ï)ñ** varianti adabiy tildagi kabi birlikning hurmat shaklini ifoda qiladi;

- *йләр* ~ **jlär** varianti Andijon shevasida iste'molda bor: qaranglar ~ *қарәйләр* ~ **qäräjläär**, soranglar ~ *сорәйләр* ~ **soräjläär**;

-*йлә* ~ **jlä** varianti Toshkent, Qarshi kabi shevalarda qayd qilinadi: kelinglar ~ *келъйлә* ~ **kelijlä**, olib boringlar ~ *эбэръйлә* ~ **äbärijlä**;

-(ʋ)ɲlə/(ʋ)ɲla ~ (i)ɲlə/(i)ɲla variantii Xorazm, Qorako‘l va Olot shevalariga xosdir: anglanglar (tushuninglar) ~ *aɲlaɲla ~ aɲlaɲla*, ko‘ringlar ~ *gəpɲlə ~ göriɲlä*.

III shaxsda *-cʋn/cʋn ~ sin/sin*, *-cun ~ sun*, *-cʋ/cʋ ~ si/si*. *-cy/cy ~ su/sü* affikslari ishtirok etadi:

-cʋn ~ sin affiksi barcha shevalarda qo‘llanadi, *-cʋn/cʋn ~ sin/sin* variantlari singarmonizimli shevalarda faol ishlatiladi: *eshitsin ~ ʋɲɲtcʋn ~ išitsin* (Toshkent), *qaytsin ~ qajtcʋn ~ qajtsin* (qipchoq);

-syn ~ sun varianti Namangan shevasida qayd qilinadi: *korsin ~ korsun ~ korsun*, *bilsin ~ bilcun ~ bilsun*;

-sʋ/sʋ/sy/sy ~ si/si/su/sü variantlari Iqon, Qorabuloq shevalarida uchraydi: *borsin ~ barsʋ ~ barsi*, *ishlasin ~ u:ɲləsʋ ~ i:šläsi*, ko‘rsin ~ *kərcy ~ körsü*, qo‘ysin ~ *qoycy ~ qojsu*;

-dəg/məg/ləg ~ däg/täg/läg affiksi Tojikistondagi qarluq shevalarida uchraydi: *ishlasin ~ ʋɲlədəg ~ išlädäg*, *pishirsin ~ biɲəpɲməg ~ bi:šärtäg*, *olsin ~ əlləg ~ əlläg*. Bu affiks boshqa shevalarda qayd qilinmadi, lekin Alisher Navoiy va Husayniylar o‘z asarlarida bu maylning III shaxsida *-dik* affiksini ishlatgan. Alisher Navoiyda:

Telba ko‘nglungni, Navoiy, zabt aylay olmading.

Emdi chek andin ilik har sori borsa bordik

baytidagi *borsa bordik* birikmasi *borsa borsin* deb tushuniladi.

Fe‘lning funksional formalari

Sifatdosh shakllari

B shakllarda tubandagi affikslar qatnashadi:

-p/ap/əp ~ r/ar/ür affiksi. Bu affiksning bo‘lishsiz shaklida *-s* qo‘shimchasi keladi: *Korar-ko‘rmasdan gəpira berma ~ Kəpəp-kəpəp-məstəp gəpəpə:əpəmə ~ Körür-körməstän gəpürä:ärmä*. (Andijon) Shevalarda sifatdoshning *-yp/yp ~ ur/ür* varianti qayd qilinmaydi. Faqat adabiy til qolipidagi matnlarda qayd qilinishi mumkin:

Қалдырғаш қара болур,

Қанатъ ала болур.

Qaldırğaş qara bolur,

Qanatı ala bolur (shim. o‘zb. shev.);

-мыш/мыш/муш/муш ~ *miš/miš/müš/muš* affiksi. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat -мыш/муш ~ *miš/muš* varianti qo‘llanadi: borgänmish ~ бəргəммуш ~ *bārgämmuš* (Toshkent), aytganmish ~ айтгəнъмуш ~ *äjtgänimuš* (Farg‘ona);

-гəн/кəн/ган/қан ~ *gän/kän/yan/qan* affiksi variantlarining barchasi singarmonizimli shevalarda uchraydi:

Ба:шишьмда ⁶он лə:пəр ба:йьң қы:зьман,

Ә:льмдə ду:тарьм, ⁶о:йьн са:зьман.

А:там-ə:нəм сəвгəнъмə вəрмəсə,

Аққьн су:ва аққанъма разьман.

Ба:ššimda ^von lä:pär ba:jñ qï:zïman,

Ä:limdü du:tarim, ^vo:jin sa:zïman.

А:tam-ä:näm sävgänimä värmäsü,

Aqqin su:va aqqanïma razïman (Xorazm laparlaridan).

Bu affiks so‘ngidagi **n** undoshi ayrim shevalarda regressiv assimilatsiyaga uchrashi mumkin: kelganlarga qaranglar ~ кегəллəргə қарайлəр ~ *kegällərgü qarajlär* (Andijon). Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat -гəн/кəн ~ *gän/kän* varianti ishlatiladi: qo‘ygan ~ қойгəн ~ *qojgän*, topgan ~ тəпкəн ~ *tāpkän* (Toshkent);

-əн/ан ~ *än/an* affiksi o‘g‘uz lahjasiga oid shevalarda uchraydi: borayotgan ~ баратьран ~ *baratiran*, kelgan ~ гəлəн ~ *gülän*;

-доғон ~ *doyon* affiksi. Bu affiks shimoliy o‘zbek shevalarida uchraydi va u bir variantlidir: boradigan ~ барəдоғон ~ *baradoyon*, keladigan ~ кəлəдоғон ~ *kälädoyon*;

-джəқ/джəк ~ *žaq/žäk* affiksi: olmoqçi ~ алджəқ ~ *alžaq*, ketmoqçi ~ гьтджəк ~ *gütžäk* (Xorazm);

-ась/əсь ~ *asi/äsi* affiksi: borgim keldi ~ барəсьм гəлдь ~ *barasim güldi*, ichgim keldi ~ и:чəсьм гəлдь ~ *i:čäsim güldi* (Xorazm);

-əйчи: ~ *äjči:* affiksi: borayotgan edim ~ бəрəйчи:дьм ~ *bāräjči:dim* (Quyi Qashqadaryo);

-гучь ~ *guči* affiksi Хо‘jand shevasida qayd qilinadi va bu affiksdagi *ь/i* unlisi lab garmoniyasiga uchraydi: boradigan edim/eding/edi ~ бəргучудум, бəргучудуң, бəргучудь ~ *bārgučudum*,

bārgučuduŋ, bārgučudi. Faqat III shaxs tuslanishidagina bu unli lablanmaydi.

Ravishdosh shakllari

Bu shaklda ham bir necha affikslar qatnashadi:

-ə/a/ü ~ ä/a/j affiksi. Bu affiks varianti barcha singarmonizmli shevalarda bor. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat *-ə/ü ~ ä/j* varianti qo‘llanadi: ketə berđь ~ *кетәвурдь ~ ketävurdi* (Marg‘ilon), o‘ynay-o‘ynay ~ *ойнай-ойнай ~ ojnaj-ojnaj*, bora-bora ~ *бара-бара ~ bara-bara* (qipchoq). Xorazm shevalarida uning bo‘lishsiz shakliga yana *-ьн/ьн ~ in/in* ta‘kid affiksi qo‘shiladi va bu affiks tarkibidagi *a/ə/ä* unlilari *ь/ь ~ i/i* unlilariga o‘zgaradi: ko‘rmay ketdi ~ *гөрмьйьн гьтть ~ görmijin gitti*, olmay ketti ~ *алмьйьн гьтть ~ almijin gitti*;

-n/ьн/ьн ~ p/ip/ip affiksi. Bu affiksning jarangsiz undosh bilan tugagan variantlari barcha shevalar uchun xosdir: ishlab ~ *ьшлән ~ išläp*, olib ~ *альн ~ alip*, lekin qipchoq shevalarida bir qator pozitsiyalarda uning jaranglashgan varianti ham mavjud: borib edi ~ *барьб/в едъ ~ barib/v edi*, kelib edi ~ *кельб/в едъ ~ kelib/v edi*. *-үб/үб/үп/үп ~ üb/ub/üp/up* varianti shevalarda uchramaydi, lekin adabiydashgan ayrim she‘riy (folklor) matnlarda qayd qilinishi mumkin;

-гәнъ/кәнъ ~ gäni/käni affiksi. Bu affiks faqat singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda qayd qilinadi: borgani ~ *бәргәнъ ~ bārgäni*, eshitgani ~ *ешьткәнъ ~ ešitkäni*;

-гьнчә/кьнчә/гьнча/қьнча ~ ginčä/kinčä/γinča/qinča affiksi: yurguncha ~ *йүргьнчә ~ жүrginčä*, borguncha ~ *баргьнча ~ barγinča*. Men bormaguncha, sen kelma, kuyib-yonib yurguncha ~ *Мән бармагьнча сән гәлмә, күйүп-йаньп йүргьнчә ~ Män barmayinča sän gälmä, küjüp-janip жүrginčä* (o‘g‘uz). Adabiy tilda bu shaklda birinchi bo‘g‘inda *u(y)* unlisi keladi. Bu affiksning shimoliy o‘zbek shevalarida *-гьчи:/кьчи:/гьчы:/қьчы:* ~ *giči:/kiči:/γiči:/qiči:* variantlari qayd qilinadi: ko‘rguncha ~ *көргьчи:* ~ *körgiči:*, aytguncha ~ *еткьчи:* ~ *etkiči:*, borguncha ~ *баргьчы:* ~ *barγiči:*, otguncha ~ *атқьчы:* ~ *atqiči:*;

-u: ~ *i:* affiksi. U o‘g‘uz lahjasi shevalariga xosdir. Adabiy tildagi *-a* ravishdosh affiksi ma‘nosiga mos keladi: yuradi ~ *йүрү:дъ ~ jüri:di*,

lekin *йўри:дъ адъ* ~ *jūri:di ädi* shaklidagi fe'l adabiy tildagi **yurar edi** shakliga ekvivalent bo'ladi.

Adabiy tildagi **-gach / kach / qach** affiksining variantlari shevalarda uchrashi dialektologik tadqiqotlarda qayd qilinmadi.

Harakat nomi shakllari

Unda uch variantdagi affikslar qatnashadi:

-мәк/мақ ~ **mäk/maq** affiksi o'g'uz lahjasi uchun xarakterlidir: oynamoq ~ *ойнамақ* ~ **ojnamaq**, ketmoq ~ *гәтмәк* ~ **gitmäk**;

-ш/ъш/ьш/үш/уш ~ **š/iš/iš/üš/uš** qarluq-chigil-uyg'ur lahjasining xususiyatidir: bilish ~ *бълъш* ~ **biliš**, yig'ish ~ *йьгъш* ~ **jyüš**, o'rish ~ *оруш* ~ **oruš**, ko'rish ~ *көрүш* ~ **körüš**. Singarmonizmni yo'qatgan shevalarda *ш/ъш* ~ **š/iš** variantlarigina ishlatiladi;

-в/ув/үв ~ **v/uv/üv** affikslari qipchoq lahjasi uchun xarakterlidir: biluv ~ *бълүв* ~ **bilüv**, eshituv ~ *ешътүв* ~ **ešitüv**, qoluv ~ *қалув* ~ **qaluv**.

Shuni ajtish lozimki, harakat nomining har uchala varianti adabiy tilga juz'i fonetik tahrir bilan qabul qilingan va adabiy tilning ta'siri natijasida bu affikslar shevalarda aralash qo'llanmoqda.

Fe'l zamonlaridagi ayrim o'ziga xos xususiyatlar

Ma'lumki, shakllangan fe'llar sof fe'l, ravishdosh hamda sifatdosh affikslari va tuslovchi affikslarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Fe'llarda tuslovchi affikslardan oldin keladigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Shu bilan birgalikda, bu affikslar qo'shilganda, turli fonetik o'zgarishlar, ya'ni morfonologik jarayon yuz beradi va bu holat shevaning adabiy tildan ba'zan kuchli farqlanishiga olib keladi.

O'tgan zamon shakli tuslanishi namunalari. **Yopmoq** fe'li: *джапқамман, джапқансан, джапқан* ~ **žarqatman, žarqansan, žarqan**; *джапқаммьс, джапқансьс, джапқан* ~ **žarqatmīs, žarqansīs, žarqan**. Bo'lishsiz shakli: *джаппағамман, джаппағансан, джаппаған* ~ **žappağatman, žappağansan, žappağan**; *джаппағаммьс, джаппағансьс, джаппаған* ~ **žappağatmīs, žappağansīs, žappağan** (qipchoq).

Bormoq fe'li: *бэргамман, бэргэнсэн, бэргэн ~ bārgämmän, bārgänsän, bārgän; бэргэнвуз, бэргэнсълэ, бэръшгэн ~ bārganvuz, bārgansilä, bāriřgan* (Toshkent).

Fonetik-morfologik o'ziga xosliklar, ayniqsa, murakkab o'tgan zamon fe'llarida yorqinroq ko'rinadi.

Kelib edi fe'li: *кельведъм кельведъң кельведъ ~ kelivedim, kelivediņ, kelivedi; кельведък // кеведък, кельведъңъз, кельведъ // кеведъ ~ kelivedik // kevedik, kelivediņiz, keivedi // kelvedi* (qirchoq).

Borib edi fe'li: *барьвэдъм барьвэдъң барьвэдъ ~ barivädim, barivädiņ, barivädi; барьвэдък, барьвэдъңлэ, барьвэдълэ ~ barivädik, barivädiņlä, barivädilä* (Xorazm). Ko'rinadiki, to'liqsiz fe'l soddalashgan shakl tarkibida singarmonizmga bo'ysunmaydi; *бэрувдъм, бэрувдъң, бэрувдъ ~ bāruvdim, bāruvdiņ, bāruvdi; бэрувдъй, бэрувдъ:з, бэрувдъйлэ// бэръшувдъ ~ bāruvdij, bāruvdi:z, bāruvdijlä//bāriřuvdi* (Toshkent).

Samarqand, Navjiy, Qarshi, Buxoro guruh shevalarida *-p/ap ~ r/ər* sifatdosh affiksi fe'l shakllarida *-й ~ j* affiksi bilan almashadi va adabiy tildagi *borar edi* so'z shakli *бэрэйъдъм, бэрэйъдъң, бэрэйъдъ ~ bāräjidim, bāräjidiņ, bāräjidi; бэрэйъдък, бэрэйъдъңъзлэ, бэрэйъдъ ~ bāräjidik, bāräjidiņizlä, bāräjidi* tarzida tuslanishga ega bo'ladi.

Hozirgacha e'lon qilingan darsliklarda Qorabuloq shevasida **bergan edi** qolipidagi o'tgan zamon analitik fe'li *бердим еди, бердинг еди, берди еди; бердүдүк (бердик едик), бердингиз еди, берди еди* tarzida keltirilgan. Sheva vakillari nutqi kuzatilganda, bu shakldagi tuslanish murakkab ko'rinishga ega ekanligi ma'lum bo'ldi va bu shakl shevada *бе:дъди:(й)дъм, бе:дъди:(й)дъң, бе:дъди:(й)дъ ~ be:didi:(j)dim, be:didi:(j)diņ, be:didi:(j)di; бе:дъди:(й)дүк бе:дъди:(й)дъңъз бе:дъди:(й)дъ ~ be:didi:(j)dük, be:did:(j)diņiz, be:didi:(j)di* kabi tuslanishga ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Hozirgi zamon fe'llarida tuslovchi affiksdan oldin keladigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Shevalarda bu shaklda *-вот ~ vāt, -йән ~ yäp, -ут ~ ut, -от ~ āt, -он ~ āp, -йатър ~ yatir, -джатър ~ žatir, -ватър ~ vatir* affikslari qatnashadi.

Toshkent shevasida -*вот* ~ *vāt* affiksidagi keyingi *т* ~ *t* undoshi regressiv assimilatsiyaga uchraydi: *бэрвотмэн, бэрвотсэн, бэрвоттэ* ~ *bārvāmmän, bārvāssän, bārvātti, бэрвотмэз(ә), бэрвотсэлә, бэргышвоттэ* ~ *bārvāmmiz(ä), bārvāssilä, bārišvātti*.

Buxoro shevalarida -*эн* ~ *āp* affiksidagi *п* ~ *p* undoshi ham I shaxs birlik va ko'plikdagi tuslanishida regressiv assimilatsiyaga uchraydi: *бэрэмэн, бэрэнсэн, бэрэнтэ* ~ *bārāmmän, bārāpsän, bārāpti, бэрэммэз, бэрэнсэз, бэрэнтэлә* ~ *bārāmmiz, bārāpsiz, bārāptilä*.

Qirchoq shevalaridagi -*джатьр* ~ *žatir*, -*ватър* ~ *vatir*, Xorazm shevalaridagi -*йатър* ~ *jatir* affikslarining singarmonistik variantlari yoq: *барайатърман* ~ *barajatirman*, *келәджатьрман* ~ *keläžatirman* (qirchoq), *гәйатърма(н)* ~ *gäjatirma(n)*, *барйатърма(н)* ~ *barjatirma(n)* (Xorazm).

Qorabuloq shevasida bu shaklda -*әйт-айт* ~ *äjť/ ajť* affiksi qatnashadi: *борярман* ~ *барайтма* ~ *barajťma*, *боряпсан* ~ *барайтса* ~ *barajťsa*, *боряпти* ~ *барайттэ* ~ *barajťti*, *айтырман* ~ *e:дәйтмә* ~ *e:däjťmä*, *айтырпсан* ~ *e:дәйтсә* ~ *e:däjťssä*, *айтырпти* ~ *e:дәйттэ* ~ *e:däjťti*.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida -*мәль/маль* ~ *mäli/malī* affiksi zaruriyatlik fe'lini hosil qilgan: *бориш керак* ~ *бармаль* ~ *barmalī*, *ичиш керак* ~ *и:чмәль* ~ *i:čmäli*. Bu shakldan yana boshqa shakllar hosil qilinadi: *айтиш керак еди* ~ *айтмәльдэ* ~ *ajťmalīdī*, *ичиш керак еди* ~ *и:чмәльдэ* ~ *ičmälidī*, *бормаслик керак* ~ *бармальмас* ~ *barmalīmas*, *ичмаслик керак* ~ *и:чмәльмас* ~ *ičmälimäs*.

T.Yo'ldoshev Tojikiston Respublikasining janubiy o'zbek shevalarida hozirgi zamon davom (uningcha, aniq hozirgi zamon) fe'lida o'ziga xos tuslanishni qayd qiladi⁷. O'zbek adabiy tilidagi *борярман* fe'li quyidagicha tuslanishga ega: *бэрәйтәннтэмэн, бэрәйтәннтэсэн, бэрәйтәннтэ* ~ *bāräyāiptimän, bāräyāiptisän, bāräyāipti; бэрәйтәннтэмэз, бэрәйтәннтэсэз, бэрәйтәннтэлә* ~ *bāräyāiptimiz, bāräyāiptisiz, bāräyāiptilä*.

⁷ Йўлдошев Т. Ўзбек шеваларида аниқ ҳозирги замон феъл формалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. – Б.11.

So‘z yasalishi

So‘z yasalishida ham o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiy tilidagi so‘z yasovchi affikslar shevalarda rang-barang fonetik variantlarda uchraydi. Shu bilan birga shevalarning bevosita o‘ziga xos yasovchi affikslari ham mavjud:

-əк ~ **äk** affiksi fe’ldan sifat yasaydi: suzag‘on sigir ~ сүзək сьзьр ~ **süzäk sïyir**, tepag‘on ot ~ дəпək at ~ **däpäk at** (Xorazm);

-əкь ~ **äki** affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonistik varianti yoq: tashqaridan ~ сьртəкь ~ **sirtäkь**: tashqaridan eshitdim ~ сьртəкь ешъттьм ~ **sirtäkь ešittim**, yoddan ~ ўадəкь ~ **jadäki**: yoddan oqidi ~ ўадəкь оқьдь ~ **jadäki oqidi** (shimol. o‘zb. sh.). Bu affiks adabiy tilda og‘zaki so‘zida uchraydi;

-ал/əл ~ **al/äl** affiksi sifat va ravishdan fe’l yasaydi: sarg‘ay ~ сарал ~ **saral**, ozay ~ азал ~ **azal**, ko‘pay ~ көпəл ~ **köpäl** (Xorazm);

-(a)доң ~ **(a)doŋ** affiksi otdan ravish yasaydi, uning ham singarmonistik varianti yoq: oqshomgacha (tungacha) ~ ахшамадоң ~ **axšamadoŋ**, kechgacha ~ гечадоң ~ **gečüdoŋ** (Xorazm);

-лəк/лақ ~ **läk/laq** affiksi sifatdan ravish yasaydi: chapaqay oshiq ~ чəпл əк а:шьқ ~ **čäpläk a:šiq**, o‘naqay oshiq ~ оңлақ а:шьқ ~ **oŋlaq a:šiq** (Xorazm);

-чьл/чьл ~ **čil/čil** affiksi otdan sifat yasaydi: mahmadona ~ сөзчьл ~ **sözčil**, uyquchi ~ уйхьчьл ~ **ujxičil** (shim.o‘zb. shev.);

-сə/са ~ **sä/sa** affiksi Turkiston, Qoraqalpog‘g‘iston o‘zbek shevalarida otdan ot yasaydi: ўеңсə ~ **jeŋsä** (non yopishda qo‘lga kiyiladi), ўанса ~ **japsa** (bir yo‘la yopiladigan nonlar to‘dasi), мойьнса ~ **mojinsa** (aravaga qo‘shish uchun otning bo‘yniga solinadigan anjom, bo‘yinturuq);

-сəк/сақ ~ **säk/saq** affiksi yasama otdan sifat yasaydi: yotog‘on ~ ўатьмсақ ~ **jatimsaq**, yurag‘on ~ ўүрүмсəк ~ **jürümsäk**: Қарь ўатьмсақ, ўаш ўүрүмсəк кəладь ~ **Qarī jatimsaq, ũash jürümsäk kälädi**(shim.o‘zb,shev.). Adabiy tilda bu affiks qurumsoq so‘zida qayd qilinadi;

-чълән/чълан ~ **čiläp/čilap** affiksi otdan ravish yasaydi: erkaklarcha ~ әркәкчълән ~ **ärkäkčiläp**, хотинlarcha ~ хатънчълан ~ **xatînčilap** (Xorazm);

-шә/ша ~ **šä/ša** affiksi turli soʻz turkumlaridan feʻl yasaydi: tenglashtir ~ теңшә ~ **teñšä**, qaqshta ~ қақша ~ **qaxša**, qursha ~ қурша ~ **qurša**, quruqlashtir ~ қуруқша ~ **quruxša**, quloq sol ~ тьңша ~ **tîñša** (Andijon).

Bir qator kamunum affikslar ham qayd qilinadi:

-мәк ~ **mäk** affiksi sifatdan ot yasajdi: koʻkat ~ кокмәк ~ **kokmäk** (Andijon, Fargʻona);

-шуг ~ **šuy** affiksi otdan sifat yasaydi: yopishqoq ~ йельмишуг ~ **jelimšuy** (Toshkent).

Xorazm shevalarida baʻzi oʻrinlarda chiqish kelishigi affiksi soʻz yasash funksiyasini ham bajargan: boladek boʻldi ~ **баладьн болдь** ~ **baladîñ boldî**, bolamdek boʻldi ~ **баламньн болдь** ~ **balamnîñ boldî**, otdek yuribdi ~ **атмьн йүрьнтъ** ~ **attîñ jüripti**.

Shevalarda shunday misollar uchraydiki, yasalishdagi har ikkala qism adabiy tilda mavjud, lekin adabiy tildagi bir soʻz yasovchi affiks oʻrnida boshqa bir soʻz yasovchi tanlanadi: дамъзлькъ ~ **damîzliq** (Xorazm) – adabiy tida *tomizgʻi*, қамъшлькъ ~ **qamъshlëq** (shim. oʻzb. shev.) – adabiy tilda *qamishzor*.

Takrorlash uchun savollar:

1. Oʻzbek shevalaridagi morfologik oʻziga xos xususiyatlar qaysi turkum va kategoriyalarda namoyon boʻladi?

2. Koʻplik affiksining adabiy tildan farq qiladigan oʻrinlari qaysilar?

3. Egalik affikslari adabiy tildan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?

4. Qaysi shevalar besh kelishikli, qaysilari toʻrt kelishikli?

5. Oʻzbek shevalaridagi kelishik affikslarning qoʻllanish xususiyatlarini aytib bering.

6. Shevalarda tuslovchi affikslarning necha tipi qoʻllanadi?

7. Sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi shakllarining hosil qilinishini izohlab bering.

8. Oʻz shevangizga xos soʻz yasovchi affikslarni aytib bera olasizmi?

Tayanch tushunchalar:

Shevalarda egalik kategoriyasi [the category of possessive in dialects] – shevalardagi egalik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda grammatik son kategoriyasi [the category of grammar plurality in dialects] – shevalardagi birlik, juftlik va ko‘plikni birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda kelishik kategoriyasi [case category in dialects] – kelishik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda so‘z yasalishi [the word formation in dialects] – shevalardagi yangi so‘z hosil qilish tizimi.

Shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari [morphological and syntactic peculiarities of dialects] – o‘zbek shevalaridagi so‘z turkumlari va so‘z tarkibi hamda uning sintaktik tizimi.

Mavzu: O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari

Reja:

1. Shevalarda so‘z birikmasi va izofali birikmalar.
2. Sheva matnlarida gaplarning qo‘llanish xususiyatlari.

Matn

O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari kam o‘rganilgan. Bu soha M. Turobova va Y. Jumanazarovlarningina maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan, xolos. M. Turobova Toshkent viloyati o‘zbek shevalarining, Y. Jumanazarov o‘g‘uz shevalarining sintaktik tizimini o‘rgangan. Ta’kidlash joizki, har bir lahja, dialekt va shevaning o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritish uchun tadqiqotlar hali yetarli emas. Ushbu o‘rinda e’lon qilingan sheva materiallari asosida shevalarning ayrim sintaktik xususiyatlari keltiriladi.

Ma’lumki, o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, fonetika, leksika va morfologiyada namoyon bo‘ladi, yozib olingan matnlar sintaksisi esa ko‘proq so‘zlashuv tilini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, savol-javoblardan iborat matnlarda, ertak, lapar va boshqa janrdagi matnlarda ko‘zga tashlanadi.

1. So‘z birikmalari. Shevalarda so‘z birikmalarining barcha turlari qayd qilinadi.

Bitishuv: ...*дәстәхәндә йетмиш хил әвқат тәййәр боптъ* ~ ...*dästäxändä jetmiş xil ävqat tajjār bopti* (Toshkent).

Boshqaruv: *Мән хәссәмми әп чьқый* ~ *Män xässämmi āp čiqij* (Toshkent). *Пәс-пәс тамдөн қар йавар* ~ *Päs-päs tamdin qar javar* (Turkiston). *Нан чьгардъ* ~ *Nan čiyardi* (qırchoq)

Moslashuv: *Хәсәндөң атасы байлардөң қолуда навча боп өткән* ~ *Häsändin atası bajlardin qoluda navča bop ötkän* (qatag'on shevasi).

Shevalardan yozib olingan matnlarda **turkiy izofalar** keng qo'llangan: *Мыйманнарға адрас көрпә таиладъ* ~ *Mijmannarğa adras körpä taşladi* (qatag'on). *Сәмъз қой қъмбат оладъ* ~ *Sämiz qoj qimbat oladi* (Iqon). *Сағчы кыйьк мүйүз әккә дептъ* ~ *Sağči kijik müjüz äkkä depti* (Turkiston). Forsiy va arabiy izofalar esa kam qo'llanadi. Bunday iboralar tojik va o'zbek xalqlari aralash yashagan joylardagi aholi nutqida uchrashi mumkin.

2. Sheva matnlarida ko'proq sodda gaplar qo'llangan. Shunday bo'lsa-da, sodda gaplarni har doim ham chegaralab olish qiyin. Sheva matnlarida, ayniqsa, gap bo'laklari inversiyasi ko'p qayd qilinadi: *Бър күн бьз келльк Хәсән джайьга* ~ *Bir kün biz kellik Hasan žajjya*. *Соңра мен отьрдьм чәй ьчьп* ~ *Soñra men otirdim čaj içip* (Samarqand).

Matnlarda ko'chirma gaplar faol qo'llangan: *Кәл айттъ-қо: - Ньмә берәсэн?* ~ *Käl ajtti-қо: - Nimä beräsän?* ...*йетьп айттъ-қо котьссарға: - Бьзләр ньмә гүнәх қьлдьқ?* ~ ...*jetip ajtti-қо komissarğa: - Bizlär nimä günäh qıldiq?*(qırchoq).

Matnlarda qo'llangan qo'shma gaplar murakkab xarakterga ega emas: *Бър күнъ тор(т) кьшь тузә: қойьп отьрьшгәнәкән, тузә:гә бьр кәттә ләйлә:(к) ьльпьптъ* ~ *Bir kuni tor(t) kişi tuzā: qojip otirişgänäkän, tuzā:gä bir kättä läjlä:(k) ilinipti* (Toshkent). *Қэзъ бэийь кутьп отьрәвурсьн, ендьгь гәппь бэйдән ешьтъң* ~ *Qāzi bājji kutip otirävursin, endigi gäppi bojdän ešitiñ* (Toshkent).

Undalmalar ham faol qo'llanadi: *Балам, саңа мәслә:т кәрәкмь, йа бомаса, мал-дуйнамя* ~ *Balam, saña mäslä:t käräkmi, ja bomasa, mol-dujnamī?*(Turkiston).

Gaplarda kirish soʻzlar koʻp qayd qilinadi: ...әнъ шүйтән, Хәсэн Қайқъ еттәдән кечкәчәй мьйнәт қән... ~ ...әни шүйтп, Häsän Qajqī ettädän kečkäčäj mijnät qip... (qatagʻon). Kirish soʻzlar undalmalar bilan yonma-yon qoʻllangan: E tәxsър, әхър, бьззъ бър пьрвьуз богән ~ E täxsir, äxir, bizzī bir pīrivuz bogän (Toshkent).

Ayrim shevalarda -къ ~ ki yuklamasining gapdagi urgʻu beriladigan sintaktik shaklda qoʻllanish hollari qayd qilinadi. Bu Qorabuloq shevasida yorqin koʻrinadi: Би:(й) та:зъңкъ о:ртасьда ҳа:льзъ та:м туруптъ. Би:(й) ө:йүңкъ и:чьдә сулув қы:з ба: әкә(н) ~ Bi:(j) ta:γiñki o:rtasida ha:liyī ta:m turupti. Bi:(j) ö:jüñki i:čidä suluv qi:z ba: äkä(n).

Shevalar ogʻzaki nutqni aks ettirgani uchun ularda gap boʻlaklarining takrori keng qoʻllanadi:

- ega boʻlagi tautologiyasi: Джүрүң, мен сьздъ үйүмә аппараман өзүм ~ Žürüñ, men sizdi yjümä apparaman özüm (qipchoq);

- koʻchirma gap pozitsiyasidagi soʻzlar takrorlanadi: Мьхмәнхәнә толә эдәм, е: ьчкьн, е: ьчкьн, дьдьлә ~ Mixmānxānä tolä ādām, e: ičkin, e: ičkin, didilä (Toshkent);

- ixcham tarzdagi qoʻshma gap tarkibiy qismi takrorlanadi: Кетвурьнтъ, кетвурьнтъ, бър вәх сәру дәрвзәнъ элдьдән чьқьнтъ ~ Ketvuripti, ketvuripti, bir vāx säru: dārvāzāni āldidän čiqipti (Toshkent);

- gap bolaklari takrorlanadi va unda harakat jarayonining davomiyligi yuz beradi: Әбрәр ухлән-ухлән турдъ ~ Äbrār uxläp-uxläp turdi (Toshkent). Альшьн-альшьн, бър қойьн алдь екөвь ~ Aliship-aliship, bir qojip aldi ekövi (qipchoq).

Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalarning sintaktik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Yozib olingan matnlardan qanday sintaktik hodisalarni qayd qilishingiz mumkin?

Tayanch tushunchalar:

Bitishuv [contiguity, parataxis] – ikki mustaqil soʻzning grammatik koʻrsatkichlarsiz birikuvi.

Boshqaruv [government] – hokim soʻzning talabiga koʻra tobe soʻzning tushum va vositali kelishiklari hamda koʻmakchilar vositasida aloqaga kirishuvi.

Gap [sentence] – fikrni ifoda qiluvchi til va nutq birligi.

Inversiya [inversion] – gap boʻlaklarining odatdagi tartibining buzilishi va u shu gapdagi boʻlaklarining gapdagi mavqeyiga taʼsir etmasligi.

Moslashuv [conformance] – qaratqich va qaralmish munosabati.

Soʻz birikmasi [phrase] – ikki mustaqil soʻzning oʻzaro aloqaga kirishuvi.

Mavzu: Shevalarining leksik xususiyatlari

Reja:

1. Oʻzbek shevalarining leksik tarkibi.
2. Shevalarda soʻzlarning oʻzaro semantik munosabatlari.

Matn

Oʻzbek shevalari leksikasi quyidagi maʼnolarda tushunilishi mumkin:

1. Oʻzbek tili shevalaridagi barcha sohalarga oid soʻzlar yigʻindisi.
2. Muayyan shevaga xos barcha soʻzlar yigʻindisi.
3. Har bir shevaning oʻziga xos soʻzlari. Bunday soʻzlar oʻzbek adabiy tilida qoʻllanmaydi, lekin ular adabiy tilning boyish manbalari hisoblanadi.

Oʻzbek shevalari oʻzbek tilining mahalliy koʻrinishi sifatida unda boʻlgan barcha qatlam soʻzlarini oʻzida birlashtiradi, binobarin, oʻzbek shevalari quyidagi leksik qatlamlardan iborat:

1. Umumturkiy soʻzlar.
2. Oʻzlashgan soʻzlar:
 - forsiy tillardan oʻzlashgan soʻzlar;
 - arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar;
 - rus tili va u orqali oʻzlashgan soʻzlar.
3. Oʻzbek tili sharoitida yaratilgan soʻzlar.
4. Shevalarning maxsus soʻzlari.

Umumturkiy soʻzlar barcha turkiy tillarda va shevalarda qoʻllanadi hamda ular oʻzbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin, yoki kuchli va kuchsiz fonetik oʻzgarishga uchrashi ham

mumkin. Bunga *yer/jer, ish/is, bash/bas* kabi va boshqa turli sohalarga oid soʻzlar taalluqlidir. Shevalar lugʻat tarkibining salmoqli qismini umumturkiy soʻzlar tashkil etadi.

Oʻzbek tiliga soʻzlar, asosan, uch manbadan: fors (tojik), arab, rus tilidan oʻzlashgan, lekin kamroq boʻlsa-da, boshqa tillardan ham oʻzlashgan soʻzlar bor. Bu soʻzlar shevalarda fonetik qulaylashtirilgan holda isteʼmolda boʻladi. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni koʻrsatadiki, shevalar lugʻat tarkibida forscha (tojikcha) soʻzlar koʻproq, arabcha soʻzlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal soʻzlar juda kam uchraydi, bu esa xorijiy soʻzlarning oʻzlashish jarayoni koʻproq vaqt talab qilishi bilan bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Oʻzbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy boʻlmagan til elementlari negizida yangi soʻzlar ham yasalgan. Bu ayniqsa fan-texnika, bozor iqtisodi bilan bogʻliq soʻz va terminlarning yasalishida koʻrinadi. Ularning asosiy qismi boshqa tillarga xos, lekin yasovchi unsuri (elementlari) oʻzbek tiliga oid boʻladi va u yasama soʻz oʻzbek tilidagina qoʻllanadi, masalan, *ishxona, bizneschi, tasvirchi* va boshqalar. Bular, albatta, shevalarda ham ayrim fonetik oʻzgarishlar bilan qoʻllanadi va sheva mulki boʻlib qoladi.

Shevalarning maxsus soʻzlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oʻzbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan soʻzlar. Bunday soʻzlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qoʻllanadi. Bu toifaga aksariyat hollarda qarindosh-urugʻchilikka oid soʻzlarni kiritish mumkin: kelin oyi ~ *гә:льн бьйь* ~ *gä:lin biji* (Xorazm), togʻa ~ *нагачь* ~ *nayačĭ* (Turkiston), oyi ~ *әчә* ~ *äčä* (Namangan), pochcha ~ *дамәд* ~ *damad* (Chimkent). Shuningdek, boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarning shevada koʻchma maʼno kasb etishi ham muayyan shevaga xos soʻzlarni tashkil etadi: *вәдәж* ~ *väž* – javob soʻz, gap (aslida vaj - bahona), *зам* ~ *zat* – narsa, predmet (aslida kelib chiqish maʼnosida), *кәсә* ~ *käsä* - piyola (aslida *kosa* ovqat quyiladigan idish) va h.o.

2. Kuchli fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlar: tashqi ~ *дьшан* ~ *dışhan* (Xorazm), tuproq ~ *йорпақ* ~ *yorpaq* (shim. oʻzb. sh.), qirq ~ *қырқ*

~ **qix**, aqalli ~ *aqқal* ~ **aqqa**, tajjor (taxt) ~ *тақ* ~ **taq** (qipchoq), ғилоф ~ *гьлп* ~ **yilp** (shim. o'zb. sh.), egachi ~ *экаджь* ~ **äkäzi** (shim. o'zb. shev.) va boshqalar.

Leksik moslik. Shevalardagi so'zlarning o'ziga xos ma'no munosabatlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) *ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so'zlar bilan yuritiladi:*

chaqoloq - *чәқәлә*: ~ **čäqälä**: (Toshkent). *бувәк* ~ **buväk** (Fargona), *бала* ~ **bala**, *бөбәк* ~ **böbäk**, *бөнә* ~ **böpä** (shim. o'zb.shev.);

tuxum - *тухум* ~ **tyxym** (Toshkent). *мәйәк* ~ **mäjäk** (qipchoq), *йьмьрта* ~ **jimirta** (Xorazm);

og'ir - *огър* ~ **oyir** (Toshkent), *кәль* ~ **käli** (shim.o'zb.shev.), *соқь* ~ **so:qi** (Xorazm);

chumoli - *чумәль* ~ **čumāli** (Toshkent), *морча* ~ **morča** (Samarqand), *қарьндәжа* ~ **qarinža** (Xorazm);

ertak - *чопчәй* ~ **čopčäj** (Toshkent). *мәтәл* ~ **mätäl** (Samarqand), *ертәй* ~ **ertäj** (Xorazm).

b) *ayni bir so'z shevalarda turlicha ma'noga ega bo'ladi:*

шәтә ~ **šāti** - Toshkentda arava qismi nomi, Farg'onada narvon;

бувь ~ **buvi** - Toshkentda ota va onaning onasi, Farg'onada ona ma'nosida.

пәшшә ~ **päššä** - Toshkentda chaqmaydigan, Farg'ona va shimoliy o'zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

d) *narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko'ra ular turlicha nomlanishi mumkin.*

Nonga ishlov beradigan asbob:

нәнпәр ~ **nānpär**. U qush va parranda patidan yasaladi (Samarqand);

чәкьч ~ **čäkič**. U yog'och va simdan yasalib, urish, yassilash ma'nosini ifoda qiladi (Toshkent);

дүкь ~ **düki**. U *duk-duk* taqlidiy so'zidan olingan (shim.o'zb.shev).

Shuningdek, so'zlar sheva vakillarining ayni bir predmetni ifodalashda turli tushunchalardan kelib chiqishlari asosida nomlangan

bo'lishi ham mumkin. Masalan, *тўйнәк* ~ **tüjnäk** (shim.o'zb.shev.) / *дү:нәк* ~ **dü:näk** (Xorazm.) // *санча/чанча* ~ **sapča/čapča** (qipchoq) so'zlari endigina palakda paydo bo'lgan, pishmagan qovunni bildiradi, *тўйнәк/дү:йнәк* ~ **tüjnäk/dü:näk** so'zi **tugmoq** tushunchasidan kelib chiqqan, *санча/чанча* ~ **sapča/čapča** esa **sop, ushlash mumkin bo'lgan predmet** tushunchasi bilan bog'liq.

Har bir shevaning o'ziga xos so'zlari bo'ladi. Masalan, shimoliy o'zbek shevalarida *джай* ~ **žaj** (asta), *түңүлтүрүв* ~ **tüñültirüv** (asabga tegmoq), *бөтән* ~ **bötän** (boshqa); qipchoq lahjasi shevalarida *сыйақ* ~ **sıjaq** (turq), *ьраң* ~ **ırañ** (epidemiya); o'g'uz lahjasi shevalarida *мәңзәмәк* ~ **mänzämäk** (o'xshamoq), *атьз* ~ **atız** (ekin maydoni).

O'zbek shevalaridagi barcha leksik o'ziga xosliklarni o'rganish lug'at boyligini, til imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va shuning uchun ham adabiy tilga bunday so'zlarni o'rni bilan qabul qilib borish zarur.

O'zbek shevalariga xos so'zlarni **jargon** va **argolar**dan farqlash lozim, dialektal so'zlar barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi. Jargonlar va argolar esa dialektal xarakterga ega bo'lmaydi, balki ma'lum ijtimoiy guruh yoki bir toifa kishilar uchungina tushunarli bo'ladi. Masalan, savdogarlar tilida **dollar** o'rnida **ko'ki**, yallachilar tilida **to'y** o'rnida **otar**, **pul** o'rnida **yakan** so'zi qo'llanadiki, ular ijtimoiy dialektga oiddir.

Takrorlash uchun savollar:

1. O'zbek shevalarining lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek shevalaridagi dialektal so'zlar semantik xususiyatlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Dialektal leksik moslik nima?

Tayanch tushunchalar:

Dialektal so'z [Dialectal word] – ma'lum shevagagina xos bo'lgan so'z.

Jargon [slang] – ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos so'zlari. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.

Shevalarning leksik tarkibi [Lexic structure of dialects] – ma'lum bir shevadagi barcha so'zlar yig'indisi.

Mavzu: Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining muhim xususiyatlari

Reja:

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahja leksikasidan namunalar.

Bu lahja tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi *tukyu* (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar, Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552-yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini tasarrufiga kiritgan edilar. X asrda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta territoriyada hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiy bo‘lgan.

Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan territoriyada qarluqlar bilan birga *chigil*, *xalaj*, *yag‘mo* qabilalari ham yashaganlar, *uyg‘urlar* ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan.

Chigil qabilasi IX-X asrlarda Ile daryosining janubida, Issiqko‘l atroflarida yashaganlar⁸.

Mazkur lahja vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi. Fanda bu lahja qisqacha *qarluq* lahjasi deb ham yuritiladi.

Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra, ikki guruhga ajralishidir, ya’ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizm qonuni amal qilmaydi (uning ayrim

²Bu ma’lumotlar K. Shoniyozovdan olindi. Qarang: Шониёзов К. Қарлуқлар ва уларнинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: ФАН. – Б. 481-490.

ko‘rinishlarigina mavjud bo‘ladi), shimoliy o‘zbek shevalarida esa singarmonizm saqlanadi, shuning uchun ham shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar **6, 7**tadan (ə ~ ä, o ~ o, y ~ u, ɔ ~ ā, ь ~ i, e ~ e) oshmaydi, shimoliy o‘zbek shevalarida esa **9** unli: a(ɔ) ~ a(ā), ə ~ ä, o ~ o, ɵ ~ ö, y ~ u, ʏ ~ ü, ы(ь) ~ i(i), и(ь) ~ i:(i), e ~ e unlilari qatnashadi.

Bu lahja shevalari 5 va 4 kelishiklidir. Bundan shimoliy o‘zbek shevalari mustasno bo‘lib, faqat Chimkent shahar shevasigina 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida 6 kelishik saqlanadi. Fe‘l shakllarida ham o‘ziga xosliklar mavjud.

Bu lahja shevalari uch guruhga bo‘linadi:

1. Toshkent guruhi shevalari. Bunga Toshkent, Parkent, Piskent, Yangiyo‘l kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

- so‘zning har qanday bo‘g‘inida old qator va orqa qator unlilar kela oladi: aka ~ эка ~ **ākä**, bola ~ бәлә ~ **bälä**, g‘alati ~ гәләтә ~ **güläti**;

- ʏ ~ ü va y ~ u unlilari o‘rnida oraliq y/u unlisi qo‘llanadi: gul ~ гул ~ **gul**, qum ~ қум ~ **qum**;

- ɵ ~ ö va o ~ o unlilari o‘rnida oraliq o/o unlisi qo‘llanadi: qol ~ қол ~ **qol**, kol ~ кол ~ **kol**;

- ь ~ i: va ь ~ i unlilari o‘rnida oraliq ь unlisi qo‘llanadi: kim ~ кьм ~ **kim**, chiq ~ чьқ ~ **čiq**;

- e ~ e tovushi i tovushiga o‘tadi: mehnat ~ мьхнәт ~ **mixnät**, dedi ~ дьдә ~ **didi**;

- so‘z oxirida к/й ~ k/j almashuvi yuz beradi: terak ~ терәй ~ **teräj**, ertak ~ ертәй ~ **ertäj**, bilak ~ бьләй ~ **biläj**;

- so‘z oxirida q undoshi tushib qoladi: chiroq ~ чьрә: ~ **čirā:**, sariq ~ сәры: ~ **sāru:**, achchiq ~ әччу: ~ **äčču:**, qattiq ~ қәтты: ~ **qättu:**;

- so‘z so‘z boshi va oxirida g‘ undoshi tushib qoladi va unda oldingi ɔ unlisi cho‘ziq talaffuz etiladi: og‘zi ~ ɔ:зә ~ **ā:zi**, tog‘ ~ тә: ~ **tā:** ;

- h bo‘g‘iz undoshi aksariyat shevalarda x undoshiga o‘tadi: hurmat ~ хурмат ~ **xurmat**, hunar ~ хунәр ~ **xunär**;

- tushum kelishigida to‘liq progressiv assimilatsiya yuz beradi: tuzni ~ туззә ~ **tuzzә**, oshni ~ ɔшшә ~ **āšši**, temirni ~ темьррә ~ **temirri**;

- soʻz boshida **т ~ t** va **ч ~ č** undoshlari mosligi yuz beradi: tushda ~ *чуштә ~ čuštä*, tushdi ~ *чуштъ ~ čušti*.

Morfologik xususiyatlari:

- 5ta kelishikli sheva;

- bu shevalarda **-нъ ~ ni** affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: suvning tegi ~ *сувьейъ ~ suvvi teji*, pichoqning sopi ~ *пъчъ:нъ сәпъ ~ pičā:ni sāpi*, otni min ~ *отътъ мъп ~ ātti min*;

- hozirgi zamon davom feʼli Toshkentda **-вэм ~ vāt** affiksi va uning assimilatativ variantlari qoʻllanadi: *кевэмман ~ kevāmmän*, *кевэссән ~ kevāssän*, *кевэмтъ ~ kevātti*, Parkentda **-эм ~ āt** affiksi qatnashadi va uning tarkibidagi **т ~ t** undoshi assimilatsiyaga uchramaydi: *бэрэмман ~ bārātmän*, *бэрэмсэн ~ bārātsän*, *бэрэмтъ ~ bārātti*;

-ш/ъш/уш ~ š/iš/uš affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: yetishdi ~ *йетъштъ ~ jetišti*, qurishdi ~ *қуруштъ ~ qurušti*;

-ләр ~ lār affiksi va uning variantlari hurmat va ulugʻlash maʼnosini ifodalaydi;

-лъг/луг ~ lig/lug affiksi koʻplik maʼnosini ham anglatadi: ularning uylari ~ *улә:нъ ойлугъ ~ ulä:ni oylugi*, dadamlarning ishlari ~ *әдәмгәлә:нъ ышлъгъ ~ ädämgilä:ni işligi*;

-гъ ~ gi affiksi Toshkent shevasida jamlik maʼnosini ifoda qiladi: *әдәмгәлә ~ ädämgilä* (adam + boshqalar). *әйъмгәлә ~ ājimgilä* (oyim + boshqalar);

- feʼl tuslanushining I shaxs koʻpligida **-вуз/вүзә ~ vuz/vuzä**, **-в/ув ~ v/uv** affikslari qatnashadi: *бәрәвуз, бәрәвүзә, бәрәув* ~ *bārāvuz, bārāvuzä, bārduv*.

Fargʻona guruhi shevalari.

Fonetik xususiyatlari:

- soʻz boshida **т/ч ~ t/č**, **с/ч ~ s/č** undoshlari almashadi: tush ~ *чуш ~ čuš*, tish ~ *чъш ~ čiš*, soch ~ *чъч ~ čāč*;

- soʻz oxirida **к/г ~ k/g**, **қ/ғ ~ q/γ** almashuvi sodir boʻladi. Masalan, yoʻq ~ *йоғ ~ joγ*, boʻlak (boshqa) ~ *бөләг ~ böläg*, bir kunlik ~ *бъркуллуг ~ bir kullug*, baliq ~ *белъғ ~ beliy*. Olmoshlarda: qandoq ~

қандоғ ~ *qandāy*, andoq ~ андоғ ~ *andāy*, shundoq ~ шундоғ ~ *šundāy*, bundoq ~ бундоғ ~ *bundāy* (Namangan);

- turli holatlarda **х/қ** ~ **х/қ** undoshlari almashadi: toxta ~ тоқтә ~ *toqtä*, to‘qson ~ тохсэн ~ *toxsān*, boqdik (qaradik) ~ бәхмуқ ~ *bāxtuq* (Namangan);

- progressiv assimilatsiya qayd qilinadi: qushni ~ қушишъ ~ *qušši*, гарпъ ~ гәппъ ~ *gäppi*, toshпъ ~ тәшишъ ~ *tāšši*;

- umlaut hodisasi qayd qilinadi: bosh+i ~ бәшъ ~ *bäši* (O‘sh), ot+ i ~ әтъ/етъ ~ *äti/eti* (Namangan).

Morfologik xususiyatlari:

- bu shevalar 5 kelishiklidir;

- bu shevalarda **-нъ** ~ **ni** affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: akasining ishi ~ әкәснъ ~ *äkäsini iši*, oshning tuzi ~ шитъ тузъ ~ *āšti tuzi*;

- tushum kelishigi affiksidagi **n** undoshi **d**, **t** undoshi bilan almashadi. Bu Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon guruh shevalarida qayd qilinadi. Bunda jarangsiz undoshdan so‘ng **-тъ** ~ **ti**, jarangli undoshdan so‘ng esa **-дъ** ~ **di** variantlari qo‘shiladi: oshning mazasi ~ шитъ мәзәсъ ~ *āšti mäsäsi*, тәлдъ кестъ ~ *täldi kesti*;

-ш/ъш/уш ~ *š/iš/uš* affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: kelish ~ кельш ~ *keliš*, qurish ~ қуруш ~ *quruš*;

-ләр ~ *lär* affiksi ba‘zan **-нә** ~ **nä** variantida ham keladi: ishinglar ~ шшъйнә ~ *išijnä*, bog‘inglar ~ бәгъйнә ~ *bāyijnä* (Namangan);

- fe‘l tuslanushining I shaxs ko‘pligida adabiy tilga xos shakl bor: boramiz ~ бәрәмзъ ~ *bārämiz*, keldik ~ келдък ~ *keldik*, бордък ~ *bördik*;

- harakat va paytning chegarasini ifodalashda **-чәвур** ~ *čāvur* (**-гәчә** ~ *gäčä* affiksi o‘rnida) qo‘llanadi: bahorgacha ~ бәхәргәчәвур ~ *bähärgäčāvur*, shahargacha ~ шәхәргәчәвур ~ *šähärgäčāvur*;

- tartib son **-нджъ** ~ **nži** affiksi bilan shakllanadi: birinchi ~ бърънджъ ~ *birinži*, beshinchi ~ бешънджъ ~ *bešinži*;

-**йәп** ~ *jäp* affiksi Farg‘ona dialektida hozirgi zamon davom fe‘lini hosil qiladi: boryapti ~ бөрйәптъ ~ *borjäpti*;

-*ym* ~ *ut* affiksi Namangan shahar shevasida hozirgi zamon davom fe'lini hosil qiladi: ketyapman ~ *кетуттѣмән* ~ *ketuttimän*.

Samarqand-Buxoro guruh shevalari. Bu guruhga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo'jand kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

-*o* ~ *ā* unlisi boshqa shahar shevalaridan farqli ravishda *o* unlisiga yaqin, ya'ni qisman lablangan: oldim ~ *о(о)лѣм* ~ *ā(o)llim*, bozor ~ *боз(о)зоз(о)р* ~ *bā(o)zā(o)r*;

- so'zning ikkinchi bo'g'inida adabiy tildagi *i* unlisi "u" ga o'tadi: xotin ~ *хотун* ~ *xātun*, dori ~ *доры* ~ *doru*;

-*й* ~ *j*, *х* ~ *h* undoshlaridan oldin adabiy tildagi *u* unlisi "o" ga o'tadi: uyqu ~ *ойқу* ~ *ojqu*, suhbat ~ *соҳбат* ~ *sohbät*, guruh ~ *гуроҳ* ~ *guroh*;

- *с* ~ *s*, *г* ~ *g*, *ғ* ~ *γ* undoshlaridan oldin *o* unlisi "y ~ u" ga o'tadi: o'gay ~ *угәй* ~ *ugäj*, o'sma ~ *усмә* ~ *usmä*, bog'ma ~ *буғмә* ~ *buymä*;

- ba'zi so'zlarda *i* unlisi "e" ga o'tadi: mix ~ *мех* ~ *mex*, tig' ~ *теғ* ~ *teγ*, umid ~ *умед* ~ *umed*;

- *x*, *h* undoshlari farqlanadi: xon ~ *хән* ~ *xān*, hol ~ *ҳәл* ~ *hāl*;

- *л* ~ *l* undoshi bilan tugagan so'zlarga *д* ~ *d* undoshli affiks qo'shilganda, progressiv assimillatsiya yuz beradi: oldim ~ *әлѣм* ~ *āllim*, keldim ~ *келлѣм* ~ *kellim*, aldap ~ *әлләп* ~ *älläp*.

Morfologik xususiyatlari:

- jo'nalish kelishigi affiksi o'rin-payt kelishigi ma'nosini ham ifodalaydi: *Уйгә бар* ~ *Ujgä bār* (Qarshi). Bu o'rinda *-ga* affiksi ham jo'nalishni, ham o'rin-payt ma'nosini ifodalagan;

- hozirgi zamon davom fe'li *-on* ~ *āp* affiksi bilan ifoda qilinadi: kelyapman ~ *келәппән* ~ *kelāppän*, sorayapsan ~ *сөрәпсән* ~ *sörāpsän*, koryapti ~ *көрәпту* ~ *körāptu*;

- uzoq o'tgan zamon fe'lida tuslovchi affikslar qatnashmasligi mumkin: *мән келгән, сән келгән, у келгән; бәз келгән, сәз келгән, уләр келгән* ~ *män kelgän, sän kelgän, u kelgän; biz kelgän, siz kelgän, ulär kelgän*;

- o'tgan zamon hikoya fe'lida *-ap* ~ *är* (bolishsizi *-mäs* ~ *mäs*) sifatdosh affiksi tarkibidagi *p* ~ *r*, bo'lishsizidagi *c* ~ *s* undoshlari *ü* ~ *j*

undoshiga o'zgaradi: kelar edim ~ келайъдъм ~ *keläjidim*, kelmas edim ~ келмайъдъм ~ *kelmäjidim*, kelar ekan ~ келайъкән ~ *keläjikän*, kelmas ekan ~ келмайъкән ~ *kelmäjikän*, kelmas emish ~ келмайъмъш ~ *kelmäjimiš*.

Lahja leksikasidan namunalar. Bu lahjaning leksikasi butun lahja uchun umumiy bo'la olmaydi, balki Toshkent, Farg'ona vohasi, Buxoro guruh shevalari va shimoliy o'zbek shevalari leksikasida muayyan farqlar mavjud.

Toshkent, Farg'ona shevalarida quyidagi kabi so'zlar qo'llanadi: arg'amchi ~ аргамчь ~ *äryämçi*, agat ~ агат ~ *ägät*, masxara ~ аджувә ~ *äžuvä*, oynak ~ айнак ~ *äjnäк*, yaroqsiz ~ акча ~ *äkčä* (Toshkent), shakarob ~ ачу:-чуччу: ~ *äčču:-čučču:*, sirg'a ~ зьрәй ~ *ziräj*, ammo ~ ъ:ллә ~ *i:llä*, goh-gohda ~ йәгә:дә ~ *jägädä* (Andijon), uchrashish ~ кезькъыш ~ *kezikiš* (O'sh), darg'azablik ~ купър ~ *kupir* (Toshkent), o'jar ~ қыйъқ ~ *qijiq* (Andijon), sopol idish ~ қоқәчә ~ *qoqäčä* (Andijon), janjalkash ~ лоль ~ *loli* (Farg'ona), so'ta ~ мәрдәк ~ *märdäk* (Farg'ona), qo'lqop ~ мыйәләк ~ *mijäläk* (O'sh), holat ~ әлпәз ~ *älpäz* (Toshkent).

Buxoro guruh shevalarida quyidagi kabi so'zlar qo'llanadi: belanchak ~ әлвәндж ~ *älvänž*, kekirdak ~ әрук ~ *ärük*, bexostan ~ бәнәхәс ~ *bänäxäs*, agar ~ бәлле ~ *bälle*, salomlashmoq ~ вәхордә ~ *växordi*, beshik ~ гәвәрд ~ *gävärd*, sovg'a ~ зәллә ~ *zällä*, nimcha ~ ьчък ~ *ičik*, ko'ra ~ кәмпәл ~ *kämpäl*, yenglik ~ әстәнчә ~ *ästinčä*.

Shimoliy o'zbek shevalarida quyidagi kabi so'zlarni uchratish mumkin: katta ~ дәв ~ *däv*, ko'rsatkich barmoq ~ барамалтақ ~ *baramaltaq*, ora ~ айтотъ ~ *ajtoti*, og'ir xarakterli ~ арқальқ ~ *arqaliq*, namroq ~ ьгал ~ *iyal*, boyagi ~ йаңағь ~ *janayï*, ho'l ~ йаш ~ *jaš*, ochko'z ~ йерък ~ *jerik*, nuqul ~ өңкәй ~ *öñkäj*, vazmin ~ салақа ~ *salaqa*, barmoq ~ шавшақ ~ *šavšaq*.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

Chigil, xalaj, yag‘mo, uyg‘ur, qarluq [chigil, khalag, jagma, ujugur, karluk] – qadimgi turkiy qabilalar.

Mavzu: Qipchoq lahjasining muhim xususiyatlari

Reja:

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahjaning leksik xususiyatlari

Qipchoq qabilalari ham uzoq o‘tmishda Oltoy o‘lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. XIII asr o‘rtalarida ular *kimak/imak* (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo‘yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo‘ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O‘rta Osiyo, Volga bo‘yi territoriyalarida istiqomat qiladilar.

Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida, Qozog‘istonning So‘zoq tumanida, Turkistonning Suvnoq, Cho‘rnoq qishloqlarida yashaydilar.

Fonetik xususiyatlari. Qipchoq lahjasi shevalarida singarmonizm qonuni to‘liq amal qiladi. Hatto fe’llardagi yetakchi va to‘liqsiz fe’ldan iborat fe’l shakli ham singarmonizmga bo‘ysunadi: bor ekan ~ *барақан* ~ *baraqan*, boribmi ekan ~ *барьннақан* ~ *barïppaqan*, ko‘p ekan ~

күвәкән ~ *küväkän*. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi:

- kontrast juft unlilar: *γ/у* ~ *ü/u*, *θ/o* ~ *ö/o*, *u/ы* ~ *i:/i:*, *ь/ь* ~ *i/i*, *ə/a(ɔ)* ~ *ä/a(/ā)* mavjud;

- palatal singarmonizm to‘liq, labial singarmonizm esa qisman saqlanadi;

- diftonglashish kuchli: *^ʋe, ^yo, ^ʏθ* ~ *ⁱe, ^uo, ^üö*;

- so‘z boshida *й* ~ *j* undoshi *дж* ~ *ž* undoshiga o‘tadi: yo‘l ~ *джол* ~ *žol*, yoamon – *джаман* ~ *žaman*;

- *г/ғ* ~ *g/γ* undoshlari *й* ~ *j* undoshiga o‘tadi: yig‘in ~ *джьйьн* ~ *žijīn*, tegdi ~ *тъйдъ* ~ *tijdi*, sigir ~ *сьйьр* ~ *sijir*;

- unlilar o‘rtasida *п* ~ *p*, *к* ~ *k*, *қ* ~ *q* undoshlari jaranglashadi: gəp ~ *гəбъ* ~ *gübi*, ekin ~ *егън* ~ *egin*, chiqin ~ *чъгън* ~ *čijīn*;

- *x* undoshi *q* undoshiga o‘tadi: xotin ~ *қатън* ~ *qatin*, tuxum ~ *туқум* ~ *tuqum*, xayol ~ *қъйал* ~ *qijal*, xat ~ *қат* ~ *qat*, aksincha *q* undoshi *x* undoshiga ham o‘tadi: vaqt ~ *вахт* ~ *vaxt*, oq ~ *ох* ~ *ox*;

- so‘z oxirida *k*, *q* undoshlari tushib qoladi: sariq ~ *саръ* ~ *sarъ*, kichik ~ *къчъ* ~ *kiči*;

- unli bilan boshlanadigan so‘zlar boshida *h* undoshi ortadi: ayvon ~ *хайван* ~ *hajvan*, aqlъ ~ *хақль* ~ *haqlī*;

- so‘z o‘rtasida va oxirida *ғ* ~ *γ*, *қ* ~ *q*, *к* ~ *k* undoshlari *v* undoshiga o‘tadi: og‘iz ~ *авуз* ~ *avuz*, bog‘ ~ *бав* ~ *bav*, tog‘ ~ *тав* ~ *tav*, bo‘yoq ~ *бойав* ~ *bojav*, ellik ~ *елүв* ~ *eliv*.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich va tushum kelishiklari affiksida *n* undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarda *d*, jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarda *t* tovushlari bilan almashadi: uyning ~ *уйдуң* ~ *ujduŋ*, otning ~ *аттъң* ~ *attīŋ*, ishni ~ *ьштъ* ~ *išti*, gulni ~ *гүлдъ* ~ *güldi*;

- jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ *әрмьйә кеткән* ~ *ärmiyä ketkän*, o‘qishga bordi ~ *оқув бардъ* ~ *oquv bardī*;

- kishilik olmoshlarining jo‘nalish kelishigi shakli menga ~ *маған* ~ *mayan*, senga ~ *саған* ~ *sayan*, unga ~ *уған* ~ *uyan* shaklida qo‘llanadi;

- soʻzga koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ джъгъллар ~ **žigillär**, atlar ~ аллар ~ **allar**;

- harakat nomi -в/уѵ/үѵ ~ **v/uv/üv** affiksi bilan ifoda qilinadi: boruv ~ барув ~ **baruv**, keluv ~ келүѵ ~ **kelüv**, qoluv ~ қалуѵ ~ **qaluv**;

- hozirgi zamon davom feʼli -джатър ~ **žatir** affiksi (uning old qator varianti yoʻq) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ барьнджатър ~ **baripžatir**, ketyapti ~ кетънджатър ~ **ketipžatir**;

- kelasi zamon sifatdoshi -тъган ~ **tïyan** affiksi (uning ham old qator varianti yoʻq) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ келәтъган ~ **kelätïyan**, boradigan ~ баратъган ~ **baratïyan**;

- hozirgi-kelasi zamon feʼlining III shaxsida -дъ ~ **di** affiksi qatnashmaydi. **Kelmoq** feʼli tuslanishi: келәтән, келәсэн, келә ~ **kelämän, keläsän, kelä**; **bormoq** feʼli tuslanishi: бараман, барасан, бара ~ **baraman, barasan, bara**;

- **bilan** koʻmakchisi -мән/ман ~ **män/man** tarzida sintetiklashadi: ishi bilan ~ ѳшъмән ~ **išimän**, oyogʻi bilan ~ айагъман ~ **ajayïman**.

Lahja leksikasidan namunalar: jarchi ~ айтьмчь ~ **ajtimčï**, mayda ~ ачарва ~ **ačarva**, xayriyat ~ бавджьт ~ **bavžit**, bosh barmoq ~ бармалтақ ~ **barmaltaq**, titroq ~ вараджа ~ **varaža**, iliq ~ джъльм ~ **žilim**, issiqroq, sovimagan ~ ѳльмьқ ~ **ilimiq**, farosat ~ ѳндъм ~ **indim**, moyillik, xohish ~ ѳгджьм ~ **ïžim**, oʻpich ~ муччь ~ **muččï**, choʻqqi ~ сала ~ **sala**, taxchil ~ санджан ~ **sanžap**, janjalkash ~ тьрджьқ ~ **tiržiq**, yolgʻon ~ ѳшәк ~ **öšük**, soʻqmoq ~ қасага ~ **qasaya**, erchil ~ гадаң ~ **γadaŋ**, kuy ~ әдәвүр ~ **ädävür**.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday soʻzlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

Qipchoq, kimak/imak (yimak) [Kipchak, kimak] – qadimgi turkiy qabilalar.

Mavzu: O'g'uz lahjasining muhim xususiyatlari

Reja:

1. Lahjaning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjaning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari.
4. Lahjaning leksik xususiyatlari.

Qadimda o'g'uzlar ile daryosi bo'ylarida shakllanib, IX-X asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi va Orol bo'yi tumanlarida istiqomat qilganlar. Keyinchalik g'arbga qarab siljiganlar.

Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar.

O'g'uz lahjasi, asosan, Xorazm vohasida keng tarqalgan, lekin bu voha faqat shu lahjadan iborat degan so'z emas. Professor F.Abdullayevning ko'rsatishicha, bu territoriyada qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor.

Fonetik xususiyatlari:

- bu lahja shevalarida $a \sim a$, $y \sim u$, $\gamma \sim \ddot{u}$, $u \sim i$; $\text{ь} \sim \text{i}$, $\text{ы} \sim \text{i}$; $b \sim \text{i}$, $o \sim o$, $\text{ө} \sim \ddot{o}$, $\text{ə} \sim \ddot{a}$, $e \sim e$ unlilari qo'llanadi;

- o'zbek tili qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unlilar mavjud;

- qisqa va cho'ziq unlilar farqlanadi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho'ziq unlilar (birlamchi cho'ziq unlilar) mavjud: at (ism) $\sim a:\text{ə} \sim a:d$, o't (o'simlik) $\sim o:m \sim o:t$;

- dastlabki bo'g'inda e unlisi $\text{ə} \sim \ddot{a}$ unlisiga o'tadi: kel $\sim \text{гәл} \sim \text{gäl}$, dedi $\sim \text{дәдә} \sim \text{dädi}$, berdi $\sim \text{бәрдә} \sim \text{bärdi}$;

- $\text{ə} \sim \ddot{a}$ unlisi $\text{ь} \sim \text{i}$ unlisiga o'tadi: shunday $\sim \text{шундәй} \sim \text{šundij}$, bunday $\sim \text{бундәй} \sim \text{bundij}$;

- so'z boshida **t** undoshi jaranglashadi: til $\sim \text{ди:л} \sim \text{di:l}$, tun $\sim \text{дү:н} \sim \text{dү:n}$, tep $\sim \text{дә:p} \sim \text{dә:r}$, tush $\sim \text{дү:ш} \sim \text{dү:š}$;

- so'z boshida **k** tovushi jaranglashadi: ketti $\sim \text{гәтти} \sim \text{gitti}$, kel $\sim \text{гәл} \sim \text{gäl}$, kun $\sim \text{гү:н} \sim \text{gү:n}$, ko'z $\sim \text{гө:з} \sim \text{gө:z}$;

- **к** \sim **q** va **ғ** \sim **γ** undoshlari **к** \sim **k** va **г** \sim **g** undoshlariga moyil talaffuz etiladi: qani $\sim \text{қ(к)ань} \sim \text{q(k)anī}$, qanday $\sim \text{қ(к)андай} \sim$

q(k)andaj, G‘arib – *F(ə)ary:n* ~ *γ(g)arī:p*, tog‘lar ~ *da:ɛ(ə)la:* ~ *da:γ(g)la:*;

- **bo‘l** fe‘lining boshidagi b undoshi tushib, *ол* ~ *ol* tarzida talaffuz etiladi;

- **к** ~ **k**, **қ** ~ **q** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: tilagi ~ *тълакь* ~ *tiläki*, sochig‘i ~ *са:чақь* ~ *sa:čaqi*;

- ayrim shevalarda ko‘hna *ε* unlisi talaffuzda bor: kel ~ *гел* ~ *gel*, ber ~ *бер* ~ *ber*, er ~ *ε:p* ~ *ε:r*.

Morfologik xususiyatlari:

- qaratqich kelishigi affiksining *-ъң/ьң* ~ *iŋ/iŋ* varianti ham qo‘llanadi: otning boshi ~ *a:тъң башь* ~ *a:tiŋ baši*, bizning shahrimiz ~ *бъзъң қа:ламьс* ~ *biziŋ qa:lamis*. Urganch, Xiva shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari *-нъ/нь* ~ *ni/nī* affiksi bilan ifoda qilinadi;

- jo‘nalish kelishigi affiksi *-a/ə* ~ *a/ä* variantida ham qo‘llanadi: otinga ~ *a:тъма* ~ *a:tīma*, ishga ~ *u:шə* ~ *i:šä*;

- sifatning intensiv shakli *дьм* ~ *dīm* ravishi bilan shakllanadi: *дьм йахшь* ~ *dīm yaxšī*, *дьм u:ссь* ~ *dīm i:ssī*, *дьм йаман* ~ *dīm jaman*;

- *men, sen, u* olmoshlari yolg‘iz holda *мəн, сəн, у* ~ *män, sän, u* tarzida, jo‘nalish kelishigida *маңа, саңа, уңа* ~ *maŋa, saŋa, uŋa* variantlariga ega bo‘ladi;

- III shaxs kishilik olmoshi birligida *ʰy/ʰy* ~ *ʰu/ʰu* ko‘pligida *ʰулар/ʰулар* ~ *ʰular / ʰular* tarzida diftonglashadi;

- ko‘plik affiksi *-лə/ла* ~ *lä/la* variantida ham qo‘llanadi: gullar ~ *гүллə* ~ *güllä* olinglar ~ *альңла* ~ *aliŋla*;

- tartib son *-нджъ/нджъ* ~ *nži/nži* variantida qo‘llanadi; birinchi ~ *бърънджъ* ~ *birinži*, beshinchi ~ *бешънджъ* ~ *bešinži*, *алтънджъ* ~ *altinži*;

- harakat nomi *-мақ/мəк* ~ *maq/mäk* affiksi bilan hosil qilinadi: ko‘rmoq ~ *гөрмəк* ~ *görmäk*, ishonmoq ~ *ы:нанмақ* ~ *i:nanmaq*;

- hozirgi zamon davom fe‘li *-йатьр* ~ *jatir* affiksi (u ham bir variantli) bilan shakllanadi: kelyapti ~ *гəйатьр* ~ *gəjatir*, boryapti ~ *барйатьр* ~ *barjatir*;

- kelasi zamon fe'li -джэк/джақ ~ **žäk/žaq** affiksli shakl bilan ham hosil qilinadi: keladigan ~ гэлджэк ~ **gülžäk**, boradigan ~ барджақ ~ **baržaq**;

- buyruq-istak fe'lining ko'plikdagi I shaxs shakli -(ə)ль/(а)ль ~ (ä)li/(a)li affiksi bilan shakllanadi: kelaylik ~ гэлэль ~ **güläli**, boraylik ~ бараль ~ **barali**;

- buyruq-istak fe'lining II shaxs birligining o'g'uz lahjasi shevalarida o'ziga xos shakli bor: bersangchi ~ бэрсэңэ ~ **bärsäñä**, borsangchi ~ барсаңа ~ **barsaṅa**;

- kelasi zamon fe'lida -a/ə ~ **a/ä** affiksli ravishdoshi asosida -сь/сь ~ **si/si** affiksi bilan hosil qilingan shakli qo'llanadi: аласьм, аласьң, алась ~ **alasim, alasin, alasä**; аласьмьз(с), аласьңьз(с), алась ~ **alasimiz(s), alasiniz(s), alasä**; и:чэсьм, и:чэсьң, и:чэсь ~ **ičäsim. i:čäsin, i:čäsä**; и:чэсьмьз(с), и:чэсьңьз(с), и:чэсь ~ **ičäsimiz(s), i:čäsiniz(s), i:čäsä**. Bu so'z гэлдь ~ **güldi** so'zi bilan birga qo'llanadi.

Lahja leksikadan namunalar: go'zal ~ айпара ~ **ajpara**, ha ~ ава/хавва ~ **ava/havva**, poraxo'r ~ а:льмсақ ~ **a:limsaq**, kichik sandiq ~ а:рджа ~ **a:rža**, arava shotisi ~ а:рью ~ **a:ryš**, katak ~ а:танақ ~ **a:tanaq**, avarak (burunga taqiladigan bezak) ~ э:вэрэк ~ **ü:väräk**, poygak ~ э:дэн ~ **ü:dän**, ayb, gunoh ~ э:ләшмэ ~ **ü:läšmä**, yirik/katta ~ бабаң ~ **babaṅ**, chorraha ~ бэндърйэ ~ **bändirjä**, maza qilmoq ~ ҳэзэтмэк ~ **hüzätmäk**, danak ~ би:дженэ ~ **bi:žänä**, sabzavot ~ зьлал ~ **zilal**, chiziq(yol) ~ зы:г ~ **zi:γ**, shamol ~ йе:лпъс ~ **je:lpis**, bedarak ~ қуйьн ~ **qujin**, qishloq ~ о:ва ~ **o:va**, o'tin ~ о:мча ~ **o:mča**, tutandiriq ~ пә:ззә ~ **pä:zzä**, qaddi-qomati kelishgan ~ тақсь ~ **taqsä**, serjahl ~ тосалаң ~ **tosalaṅ**, boshliq ~ ҳо:n ~ **ho:p**, yosh yigit ~ джо:джьқ ~ **žo:žiq**.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lahjaning eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Lahjaning asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Lahjaga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar:

O'g'uzlar [oguz] - qadimgi turkiy qabilalar.

MAVZU: LINGVISTIK GEOGRAFIYA

Reja:

1. Areal lingvistika to‘g‘risida umumiy ma‘lumot.
2. Areal lingvistika metodlari.
3. Areal lingvistika manbalari.
4. Til va dialektal zona. Dialektal continuum.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) tushunchasi va uning mohiyati. Bu terminlarning birinchisi lotincha *area* – maydon, kenglik, hudud hamda *lingvistika* – tilshunoslik, ikkinchisi esa *lingvistika* va *geografiya* tarkibiy qismlaridan iborat.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida karta(xarita)da aks ettirish bilan shug‘ullanadigan dialektologiyaning bir bo‘limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo‘lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir.

Lingvistik geografiya shevalarni o‘rganishning bir metodi hamdir. Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariga ham e‘tibor qaratiladi. Bu ikki hodisaning obykti bir bo‘lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug‘atlar yaratish orqali o‘rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ularni tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug‘ullanadi, shuning uchun ham lingvistik geografiyani dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Lingvistik geografiya quyidagi tushunchalarga asoslanadi:

Izoglossa. Bu so‘z lotincha bo‘lib, **izo** – teng, **glossa** – til degan ma‘nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko‘ra tarqalishini ko‘rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning **izofonema, izomorfema, izoleksema** tiplari belgilanadi Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho‘ziq **o:** unlisi izofonema sifatida, *-ə/a* ko‘plik affiksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ~ *calaqa* ~ *salaqa*, epidemiya ~ *ьpaн* ~ *iraн* kabi so‘zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda

izoglossalarning *izofon* (fonetik izoglossa), *izomorf* (morfologik izoglossa), *izoleks* (leksik izoglossa), *izosema* (semantik izoglossa) haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. O'zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylikka ega bo'lgan tillarga aloqador bo'ladi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari (kontakti) natijasi samarasi sifatida yuzaga keladi va har ikki til uchun umumiy bo'ladi. Bunda qarindosh bo'lmagan tillar o'z mustaqilligini saqlaydi.

Areal (area). Izoglossalarning tarqalish hududini bildiradi. Yuqoridagi izoglossa turlarining bir necha hududlarda tarqalishini ko'rsatadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unlilar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilarda kartada aks ettiriladi.

Areal termini biologiya, geografiya, kimyo, antropologiya fanlarida ham qo'llanadi. Biologiyada hayvonlar va o'simliklarning, geografiyada tabiat hodisalarining, kimyoda tabiiy boyliklarning, antropologiyada xalqlar va irqning tarqalish hududlari kartalashtiriladi.

Til landshafti. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning joylashishi (manzara) xususiyatidir. Ular turli ranglar vositasida ko'rsatiladi.

Innovatsiya. U izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Masalan, labial singarmonizm qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, qirg'iz tilida mustahkamlanib qoldi va bu til orqali boshqa til va shevalarga tarqaldi. Demak, labial singarmonizmning innovatsion markazi vazifasini keyingi davrlar uchun qirg'iz tili bajaradi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiy turlari amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalarda amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til

hodisalarini – izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bevosita o‘zini ham yozish mumkin.

Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning turi *lingvistik* yoki *dialektologik atlas* deyiladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tilning tarqalish chegarasini ko‘rsatgan rangli kartalar yig‘indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasning klassik namunalari bor. Bular quyidagilar:

Venker G. Shimoliy va markaziy Germanuyaning dialektologik atlas. 1881-y. (6 karta).

Jilyeron J., Edmon E. Fransiya lingvistik atlas. 1896 -1908-yillar.

Vrede F. Nemis lingvistik atlas. 1926 -1932-yillar (6 jild).

Yaberga K., Yuda I. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlas. 1928-y.

Bular ichida J. Jilyeron, E. Edmonlarning lingvistik atlas keyingi davrda boshqa shu xildagi atlaslarning tuzilishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarining tarqalishini ko‘rsatish maqsadida ham yaratiladi.

Til zonasi va dialektal zona. Til zonasi o‘zaro yaqin tillar (idiomlar)ni yaqinlik darajasi va bir fokus nuqtasiga ko‘ra birlashtiradigan hududdir. **Dialektal zona** bir til doirasidagi lahja, dialekt va shevalarning fokus nuqtasiga ko‘ra joylashish hududlaridir. **Fokus nuqtasi** yirik shahar shevasi bo‘lib, atrof shevalarga doimiy ravishda o‘z ta‘sirini o‘tkazib turadi va qayta aloqada bo‘ladi hamda dialektal zonaning o‘ziga xos rivojlanishini ta‘minlaydi.

Bunday zonalarni belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o‘zbek tili massivi (o‘zbek tili tarqalgan hudud) geografik, dialektal farqlanishi, tarixiy-etnografik xususiyatlari, ma‘lumotlari asosida uning shevalari guruhlashtiriladi. Shu asosda A. Jo‘rayev o‘zbek tilining 11 dialektal zonasini belgilagan (bu haqda “O‘zbek tilining dialektal bo‘linishi” mavzusida ma‘lumot beriladi).

Aksariyat hollarda bunday zonalarni belgilashda qarindosh til yoki dialekt masalasi muammo bo‘ladi. Axborot tizimlarida ta‘kidlanishicha,

bunday vaziyatda o'xshashik 92-96% ni tashkil etsa, ularni dialekt deb hisoblash lozim⁹. Til va dialektning farqlashda fanda *sotsiolingvistik* va *struktur* me'yorlarga asoslaniladi.

Sotsiolingvistik me'yorga ko'ra, idiomlar (qarindosh til) mustaqil til bo'lishi uchun:

- o'z mustaqil yozuv standartiga ega bo'lishi;
- turli sohalarda yozma va og'zaki muloqotning amal qilishi;
- funksional jihatdan mukammal bo'lishi lozim. Bunda siyosiy va etnik omillar muhim ahamiyatga ega.

Struktur (struktur-lingvistik) me'yorga ko'ra, mustaqil til bo'lishi uchun:

- fonetik va grammatik qonun va qoidalar yagona bo'lishi;
- asosiy lug'at tarkibi idiom a'zolarining barchasiga tushunarli bo'lishi;
- idiom tarkibidagi lahja, dialekt va shevalar barcha uchun tushunishga oson bo'lishi lozim.

Dialektal kontinuum (lotincha *continua to'xtovsiz, muhit* degan ma'nolarni bildiradi). Shevalarning kichik lingvistik xususiyatlari bilan farqlanishi adabiyotlarda kontinuum tushunchasi bilan ifoda etiladi. Bu jarayon uzoq yillarning mahsuli va muayyan territoriya bilan bog'langan.

Bir dialekt tarkibidagi shevalarda o'zaro bog'langan, lekin kichik va muhim bo'lgan, 3-rasmda ko'rsatilgani kabi, farqlar bo'ladi.

Adabiyotlarda dialektal kontinuumning ikki turi to'g'risida ma'lumot beriladi:

Geografik dialektal kontinuum. Bu bir geografik zonada joylashgan shevalarning va kelib chiqishi umumiy bo'lgan xalqlar shevalari doirasida belgilanadi. Bunga yuqoridagi – Toshkent dialekti tarkibidagi shevalarning kichik farqlar bilan ajralib turishi misol bo'la oladi. Kontinuumning bu turida shevalar bir-biridan uzoqlashgan sari dastlabki shevadan tobora farqlari ortib boradi, pirovard natijada, eng so'nggi sheva mustaqil dialekt yoki til bo'lib shakllanishi mumkin.

⁹ Kaufmann T. The native languages of Latin America: general remarks// Atlas of the World's Languages (edited by C. Moseley and R. E. Asher). – 1994.

Ijtimoiy dialektal kontinuum. Bu siyosiy va uzoq tarixiy taqdir tufayli qarindosh bo‘lmagan va qarindosh tillar orasida yuz berishi mumkin. Kontinuumning bu turiga Kembrij universiteti darsligida Yamaykadagi kreol shevasi misol qilib ko‘rsatiladi. Surinamda sranan tili ingliz tili asosiga qurilgan kreol (pidjin) shevasi shakllanganki, yuqori tabaqa kishilari ingliz tilida gaplashsa, pastki tabaqa kishilari esa ingliz va kreol tili o‘rtasidagi shevada gaplashadilar va shu bilan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Buni biz o‘zbek – tojik, o‘zbek – turkman, o‘zbek – qozoq, o‘zbek – qoraqalpoq xalqlari aralash va qo‘shni yashagan joylarda ham ko‘ramiz.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) metodlari. Areal lingvistika (lingvistik geografiya) shunday sohaki, u har bir sheva va dialekt haqida, uning madaniy, tarixiy xususiyatlari, o‘ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug‘ullanadigan xodimlar, mutaxassislarni keng tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, avvalo, o‘rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo‘ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko‘rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo‘yash texnikasi belgilab olinadi.

10-rasm

O‘zbek tili lahjalarining tarqalishi



1. Қарлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси
2. Ўғуз лаҳжаси
3. Қипчоқ лаҳжаси

Areal lingvistikaning asosini lingvistik tadqiqotlarda foydalaniladigan til faktlari tashkil etadi, shuning uchun *areal lingvistika metod*larini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi¹⁰. Ular quyidagilar:

1. Muayyan til (shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlarini *qayd qilish*. Bu jihatdan dialektologiya va lingvistik geografiya metodlari mos keladi. Sheva faktlarining haqqoniyligi areal lingvistikaning mukammalligini ta'minlaydi.

2. Areal lingvistika uchun tanlanadigan sheva materiallarini *sharhlash*. Dialektologik atlas tuzishda sheva faktlarining sharhi muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi aniq lingvistik vazifalarni bajaradi:

a) o'rganilayotgan til yoki shevalarning aloqada bo'lgan (qo'shni) til va shevalar bilan *interferensiyasi* natijalarini talqin qilish. Avvalgi

¹⁰Taniqli olim **V.M. Jirmunskiy** dialektologik atlas yaratish metodikasi deganda uning ikki tamoyilini tushunadi: muayyan hududdagi sheva xususiyatlarini yalpi o'rganish va har bir kartalashtiriladigan izoglossalar chegarasini belgilash. Qarang: **Жирмунский В.М.** Немецкая диалектология. – Москва - Ленинград: ИАН.1956, – С.134.

sahifalarda ta'kidlanganidek, o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda uning shevalari bilan kesishgan o'rinlarga ega. Shevalar kesishgan joyda har ikkala tilga o'xshamagan shevalar paydo bo'ladi. So'zsiz, bu shevalardagi o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammo sharhlash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo'shni yashaydigan o'zbeklar shevasida egalik affiksi va o'rin-payt, chiqish kelishigi o'rtasida *n* undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo'lida ~ *эльндә* ~ *älindä*, qolidan ~ *элынән* ~ *älinnän*. Qirg'iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar *n* undoshining yo'qolib borishi ham o'zbek tili shevalari bilan interferensiyaning natijasidir.

b) *ijtimoiy omillarni hisobga olish*. Interferensiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bunda ikki sheva yoki tilning interferensiya sharoitida qo'shib ketishi chog'idagi til qarshiligi bo'lishi hisobga olinadi. Bunga Qashqadaryodagi (masalan, Kitob tumani Chechak qishlog'i shevasi) "й ~ j"lovchi shevalar "дж ~ ž"lovchi shevalarga qorishuvi natijasida "й ~ j"lovchi shevalar aholisining ko'pligi tufayli "й ~ j"lashishning ustun kelishi misol bo'la oladi.

d) *muayyan hududda turg'unlashmagan til hodisalarini sharhlash*. Ikki sheva yoki dialektga xos xususiyatlarning shu sheva va dialektlarda qo'llanishi hamda ulardan birining g'olib kelmasligi interferensiyaning tugallanmaganligini, ya'ni bir sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Bunga o'zbek tilidagi *ɔ ~ ā* va "a"lashish, *й ~ j* va *дж ~ ž* hodisasining parallel qo'llanishi misol bo'la oladi.

e) *konvergensiya hodisalarini farqlash*. Ma'lumki, o'zbek tili taraqqiyotida shahar shevalarida $\emptyset \sim \ddot{o} \leftrightarrow o \sim o$, $\gamma \sim \ddot{u} \leftrightarrow y \sim u$, $u \sim i: \leftrightarrow ы \sim i:$ unlilari konvergensiya uchragan. Ular ham kartada izohlar bilan beriladi.

Innovatsion markazni aniqlash. Bu tamoyil, albatta, til tarixi bilan bog'langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo'lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda *й ~ j* // *дж ~ ž* paralleli bo'lmagan. Hozirgi qipchoq shevalarida va ba'zi

turkiy tillarda soʻz boshida дж ~ ž undoshining paydo boʻlishi keyingi hodisadir. Oʻzbek shevalarida “дж ~ ž”lashish oʻrnida “й ~ j”lashish (qipchoq lahjasi shevalarida *джахишъ ~ žaxšī* oʻrnida *йахишъ ~ jaxšī*) varianti paydo boʻlmoqda hamda u tobora kengroq tarqalmoqda. Koʻrinadiki, й ~ j undoshining innovatsion nuqtasi qadimgi turkiy til boʻlgan. Hozirgi singlarmonizmni yoʻqotgan shevalar ham qadimda singlarmonizmli boʻlgan. Bunda ham innovatsiya nuqtasi sifatida qadimgi turkiy til qatnashadi.

Til substratlari taʼsirini aniqlash. Substrat hokim til yoki shevaning qoldiqlari boʻlib, muayyan hududda uning elementlari qolgan boʻladi. Masalan, hozirgi Xorazm shevalarida “Avesto” tilining substratlarini uchratish mumkin, jumladan, Xorazm (Hvairizm), Asfandiyor (Spandudota), Bahrom (Varxram). Oʻzbek va tojik shevalari interferensiyasi sharoitida tojik shevalariga xos xususiyatlar shu shevalarda saqlanib qoladi. Bu substratlar ham izohlar bilan kartalarda aks ettiriladi.

Oʻzbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. Oʻzbekistonda dialektologik atlas yaratish ishi endigina rivojlanmoqda. Bu sohada Sh. Shoabdurahmonov, A. Joʻrayev, Q. Muhammadjonov, A. Shermatov, N. Murodova, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalarning tadqiqotlari mavjud. Sh. Shoabdurahmonov Oʻzbekistonda birinchi boʻlib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. A. Joʻrayev areal lingvistikaning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildi. Q. Muhammadjonov shimoliy oʻzbek shevalarini, A. Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol boʻyi oʻzbek shevalarini, N. Murodova Navoiy viloyati shevalarini kartalashtirgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Lingvistik geografiya nima?
2. Dialektologik atlas deganda nimani tushunasiz?
3. Oʻzbek shevalari kimlar tomonidan kartalashtirilgan?

Tayanch tushunchalar:

Atlas [Atlas] – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan oʻquv quroli.

Innovatsiya [innovation] – izoglossalarning tarqalish markazi.

Izoglossa [izogloss] – til, sheva faktlarining teng kelish holatlarini ko‘rsatuvchi belgi.

Kreol tili [Creolized languages] - mahalliy tillarning Yevropadagi tillar bilan aralashishidan hosil bo‘lgan tili, jumladan, Surinamdagi sranan tilining ingliz tili asosiga qurilgan kreol (pidjin) shevasi

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) [areal linguistics (linguistic geography, dialect geography)] – o‘zbek shevalarini o‘rganishning bir metodi, shevalardagi til faktlarini maxsus o‘rganadigan soha.

Lingvistik karta [linguistic map] – izoglossalar joylashtirilgan karta.

Til landshafti [linguistic landscape] – izoglossalarning joylashish xususiyatlari.

Mavzu: O‘zbek adabiy tili va dialektlar

Reja:

1. Adabiy tilning ta’rifi.
2. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari.
3. Adabiy til va tayanch dialekt.
4. Badiiy adabiyot va dialektizm.
5. O‘zbek adabiy tili va dialektlari avtonomiyasi va geteronomiyasi.

Matn

Adabiy tilning ta’rifi. Ma’lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo‘lib, u normalashgan yoki normalashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta’rifni berish mumkin: “Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so‘z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir”(11-rasm).

O‘zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.

Adabiyotlarda har bir tilning adabiy shakli va dialektlari uning **turli ko‘rinishilari, namoyon bo‘lishi** (“разновидность” termini qo‘llangan) deb yuritiladi¹¹.

¹¹ Русская диалектология. – Москва: Просвещение, 1989. –С. 6.

Adabiy til biror dialektga teng kelmaydi, u bir til doirasida barchaga birday xizmat qiladi, hech bir dialekt adabiy tilga tenglashtirilmaydi.

Adabiy til va dialektlar turli funksiyalariga ko‘ra farqlanadi:

1. Adabiy til davlat, siyosat, fan, san‘at tili hisoblanadi, ayni zamonda bu tilda savodxon shaxslar ish ko‘radi. Dialekt esa muayyan hududda qo‘llanadi va shu hududning o‘zidagi aholigagina xizmat qiladi.


2. Adabiy til yozma va og‘zaki shakllarga ega bo‘ladi, dialekt esa faqat og‘zaki ko‘rinishga ega.

3. Adabiy til qat‘iy amal qilinadigan normalardan iborat bo‘ladi. Dialekt ham muayyan hududda o‘ziga xos normalari bo‘ladi, lekin u umumtil doirasiga chiqa olmaydi.

4. Adabiy tilning funksional uslublari rang-barang, dialektlarda bunday uslublar to‘g‘risida fikr yuritilmaydi.

5. Adabiy til va dialektlar o‘rtasida ziddiyatlar bor, lekin ular adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi

11-rasm



Har bir milliy tilning ikki bosqichi bo‘ladi:

1. Milliy tilning quyi bosqichi. Bu mahalliy shevalar demakdir.

2. Milliy tilning yuqori bosqichi. Bu uning adabiy tilidir.

Ayrim manbalarda bu ikki bosqich oralig‘da *koyne* termini bilan yuritiladigan til to‘g‘risida ham ma‘lumot beriladi, ya‘ni aksariyat dialektlar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlashuv tili *koyne* deb yuritiladi. Bunga xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini ham kiritish mumkin, bu asarlar tili ham adabiy til, ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlarni aks ettiradi, shuning uchun ham shevalar o‘rganilganda, xalq og‘zaki ijodidan ko‘plab misollar keltiriladi.

Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari. O‘zbek adabiy tili ikki shaklda bo‘ladi: og‘zaki va yozma. Og‘zaki adabiy til orfoepik normalarga bo‘ysundiriladi. Og‘zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o‘qish-o‘qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo‘llanadi. Yozma adabiy til esa orfografiya qoidalari asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy o‘zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an‘anaviy, ramziy va boshqalar.

Adabiy tilning tayanch dialekti. Har bir adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma‘lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya‘ni o‘zbek adabiy tili muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o‘sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo‘lib, u doimo rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda “o‘lik til” degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida “o‘lik tillar” mavjudligi haqida ma‘lumotlar ko‘p.

O‘zbek adabiy tili shartli ravishda **fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg‘ona dialektiga tayanadi.** Ma‘lumki, Toshkent shevalari 6ta unlili ($y\sim u$, $o\sim o$, $\varepsilon\sim \ddot{a}$, e , $\varepsilon\sim i$, $\varepsilon\sim \bar{a}$) dialektdir. Farg‘ona dialektidagi so‘z shakllari, xususan, fe‘l

shakllari o‘zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog‘lab qo‘yish juda ham to‘g‘ri emas, balki o‘zbek adabiy tili barcha shevalar hisobiga boyib, mukammallashib boradi. Shu ma‘noda shevalar adabiy tilning boyish manbai bo‘lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining unsurlari ko‘p uchrasa-da, unda qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o‘rinlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun, jo‘natmoq, jo‘ni, jo‘nalish* so‘zlari qipchoq lahjasiga xosdir. Bu so‘zlarning ayrim qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga oid shevalarida *йүн, йөнәт, йөнһ* (*и:иһһһг йөнһһһ бъл* - Turkiston), *йөнәльи* ~ *jün, jönät, jöni, jönäliš* variantlari bor. Adabiy tildagi *kelajak, bo‘lajak, o‘laroq, kelasi* kabi soz shakllari aslida o‘g‘uz lahjasi shevalariga xosdir.

Badiiy adabiyot va dialektizm. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *leksik dialektizm, fonetik dialektizm va morfologik* hamda *sintaktik-stilistik dialektizm* turlariga ega bo‘ladi.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. *Rozi bo‘ldi, palakat* (Qo‘nalg‘a), *galdi* (“Xorazm”). *Bormasangiz bo‘lmiydi* (“Qo‘nalg‘a”). ...*zeykash* (*zaxkash*) *tomonga enib...* (“Qo‘nalg‘a”). *Ishni bildirmasdan xufya bitirsa bo‘lardi, man bo‘laman, man bo‘laman, deb kerildi* (“Oltin vodiya shabadalar”)¹².

Leksik dialektizm shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, *darpanmangla* (bezovtalanmanglar (Xorazm), ...*kelinbiyning* (kelinoyi) *biror marta noroziligini eshitgan emasman* (Qo‘nalg‘a). *Toshkentdagi axtiqlarini* (nevaralarini) *o‘zlari Urganchga kelganlaridayam ko‘raveramiz* (Qo‘nalg‘a). Badiiy asarlarda shevaga xos so‘z yasalishidan ham foydalanilgan: *Shoshma, hali qo‘llarim qanotini yozgani yoq, mana bu termakash* (g‘iybat terib yuruvchi)

¹² Badiiy asarlardan olingan misollar lotin yozuviga ushbu asar muallifi tomonidan o‘girildi – A.S.

O'sarjonni chetga chiqarib qo'yaman. – Hoy, sen vahmakash (vahima qiluvchi) *ekansan-ku!* (“Oltin vodiya shabadalar”)

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo'llanishidir. Masalan, *Shatta* (shu yerda, “Qora ko'zlar”). *Dim* (juda) *gech galdingiz* (“Xorazm”). *Qarindoshim bilan bir maishat qilali* (Qo'nalg'a).

Sintaktik-stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko'rinadi: *Shukur, odamga o'xshab so'zlab bilar ekansiz* (“Qo'nalg'a”). *Alni na, o'n marta yuvamilar* (“Qo'nalg'a”).

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlarini bayon qilish jarayonida muayyan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adiblar dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni:

1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;

2) adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi. Masalan, yozuvchi Komil Avaz “Qo'nalg'a” asarida *sazaq* (o'simlik nomi), *tuncha* (mis qumg'on), *kalchaya* (qumlikning taqir joyi), *itdunak* (yovvoyi qovun turi) kabi dialectal so'zlarni qo'llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to'lig'icha sheva xususiyatlaridan foydalangan asarlar mavjud. Bunga J. Sharipovning “Xorazm”, Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarlarini ham keltirish mumkin.

Dialektal so'zlarni badiiy adabiyotda qo'llashda yozuvchilar turli usullardan foydalanadilar. Ayrim mualliflar shevaga oid so'zlarni izohsiz ishlatgan bo'lishsa, ayrimlari sahifa tegida uning ma'nosini ham keltirib boradilar (masalan, “Xorazm” romanida). Dialektal so'zning ma'nosini izohlashda yana quyidagicha usullardan foydalanilgan:

- dialogik nutqdagi dialektal soʻz muallif gapida reallashtiriladi:
- **Buvijon**, - dedi u **onasining mayus yuziga termilib**. – Shirmon xoladan qarz olib tursangiz boʻlmasmikan (“Fargʻona tong otguncha”);

- dialogik nutqda ayni bir yoki turli personajlar nutqidagi shevaga xos soʻz adabiy tildagi variantlarini keltirish bilan izohlangan: - *Ugra osh qilsak ham boʻladi, manjuza qilsak ham boʻladi. Lagʻmonga goʻsht kerak* (“Fargʻona tong otguncha”). - *Polvon, nega anqayyapsan. Xiva shahrini koʻrmaganmiding? – dedi. – Katta qalʻa, hamma yerini goʻrib boladimi, - dedi Polvon* (“Xorazm”);

- shevaga xos soʻzlar juft soz tarkibida (antonim, sinonim tarzida) keltirilgan: *Uzoq-yovuqdan ancha odamlar keldi* (“Oltin vodiyan shabadalar”). ... *barcha xalq bel, kapcha koʻtarib, yop-anhor, daryo boʻyi sohil tomon yoʻl oldi* (“Xorazm”)¹³;

Ayniqsa, dialektal soʻzlardan hazil, kinoya sifatida ham foydalanilgan oʻrinlar bor:

Miraziz Aʼzamga:

Bolalarcha kasha yeb,

Bolalarga yozadir.

Shuytib, sakson yoshda ham

Bolalardek tozadir.

(“Oʻzbek adabiyoti va sanʼati”, 2015 yil 1-yanvar)

Shuni taʼkidlash lozimki, dialektizmlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri boʻlib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning taʼsirchan kuchi orqali bir asarda qoʻllangan dialektizm keyingi asarlarga oʻtadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilga oʻzlashib ketishi mumkin.

Oʻzbek adabiy tili va dialektlari avtonomiyasi hamda geteronomiyasi. Avtonomiya (autonomy) termini til va shevalarning mustaqil faoliyat yuritishiga nisbatan qoʻllanadi. Geteronomiya esa (heteronomy – qadimgi yunon tilida *boshqa qonun* degan maʼnoni anglatgan) falsafa, psixologiya, huquqshunoslik, biologiya va boshqa

¹³ Bu faktlar B. Fayzullayev va O. Xidirovlarning “Dialektizm va kontekst” maqolasidan olindi.

fanlarda qoʻllanadigan tushuncha boʻlib, uni dialektologiyaga german tillarining qarindoshligi negizida ularning mustaqil til va dialekt munosabatlarini asoslash jarayonida J. K. Chambers, Peter Trudgillar olib kirishgan¹⁴. Unga koʻra, u yoki bu til va shevalar bir necha mamlakatlarda joriyda boʻlishi mumkin, lekin ular toʻliq mustaqil boʻla olmaydilar. Buni oʻzbek tili misolida shunday izohlash mumkin: oʻzbek adabiy tili va dialektlari Oʻzbekistondan boshqa mamlakatlarda ham amal qiladi. U yerlardagi oʻzbek adabiy tili mustaqil rivojlantirilmoqda, shevalarida ham oʻziga xosliklar bor, masalan, Afgʻonistonda oʻzbek adabiy tili arab grafikasida muayyan imlo tizimiga ega, oʻziga xoz soʻz qoʻllash anʼanasi bor, shevalari uchun oʻzbek lahjalari asos boʻlsa-da, afgʻon tilining kuchli taʼsiri bor. Bu jihatdan u avtonom faoliyatdadir. Ayni zamonda bu yerdagi adabiy til grammatik qoidalarning yagonaligi, fonematik tizimi, asosiy lugʻat tarkibi jihatidan Oʻzbekistondagi adabiy tilning aksariyat qonuniyatlarini saqlab qolgan, shuningdek, shevalarining ham leksik fondi Oʻzbekistondagi shevalar leksikasiga monand, lekin dialektal farqi bor, bu jihatdan esa u yerdagi adabiy til va dialektlar geteronomik munosabatda boʻladi, yani toʻliq mustaqil emas. Bu fikrni Qozogʻiston, Tojikiston, Qirgʻizston Respublikalaridagi oʻzbek adabiy tili va dialektlariga nisbatan ham muayyan darajada tatbiq etish mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Adabiy til deb nimaga aytiladi?
2. Adabiy tilning yozma va ogʻzaki shakllariga qanday izoh berasiz?
3. Tayanch dialekt tushunchasiga izoh bering.
4. Dialektizm deb nimaga aytiladi?

Tayanch tushunchalar:

Adabiy til [literary language] – meʼyorlashgan til.

Adabiy tilning shakllari [forms of literary language] – adabiy tilning yozma va ogʻzaki shakllari.

Avtonomiya [autonomy] – ayni bir til va dialektlarning turli mamlakatlarda mustaqil taraqqiy etishi.

¹⁴ Chambers J. K., Peter Trudgill.. Dialectology.- Cambridge University Press. – T. 4

Geteronomiya [heteronomy] - ayni bir til va dialektlarning turli mamlakatlarda negiz til va dialektlar xususiyatlari va qonuniyatlarini saqlab qolishi.

Tayanch dialekt [basic dialect] – adabiy tilga biror jihatdan, ya'ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo'ladigan dialekt, sheva.

O'lik til [dead language] – muomaladan chiqqan til.

Mavzu: O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi

Reja:

1. O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari.
2. O'zbek shevalarining tasnifi.
3. O'zbek dialektologlari.

Matn

O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari. Tilshunoslikda til sistematikasi degan tushuhcha bor. U to'rt a'zoli shkalani aks ettiradi: *sheva* → *dialekt* → *lahja* → *til*. Bunda til tarkibiga kiruvchi lahjalar, dialektlar, shevalarning muayyan tartibini belgilash *lingvistik klaster* deyiladi.

O'zbek shevalari, asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o'rganila boshlandi va shu asnoda uning dastlabki tasniflari paydo bo'ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida V. Nalivkin, M. Nalivkina, A. Starchevskiy, A. Vishnegorskiy, Z. Alekseyev, N. Ostroumov, T. Qiyosbekovlar jonli til faktlari asosida o'zbek tili

lug'ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ularni sof dialektologik ishlar deb ham, adabiy tilni aks ettirgan deb ham bo'lmaydi.

XX asrning boshlarida o'zbek adabiy tiliga asos bo'ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o'zbek shevalari keng miqyosda o'rganila boshlandi. Shu jarayonda o'zbek shevalari tasnif qilindi.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tamoyillardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

- o'zbek (turkiy) tiliga xos bo'lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo'lishi;

- ma'lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan, singarmonizm va umlautning mavjudligi;

- tarixiy qatlamga oid leksik birliklarning miqdori, o'zlashgan qatlam so'zlarining ishtiroki;

- o'zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo'lmagan til va shevalarning ta'siri;

- shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo'lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darajasi;

- so'zning fonetik strukturasi va boshqalar.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O'zbek shevalarini professor I. I. Zarubin (1887 - 1964) tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro kabi to'rt guruhga bo'linishini ko'rsatadi, lekin ularga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto qipchoq va shimoliy o'zbek shevalari uning e'tiboridan chetda qolgan.

O'zbek shevalari tasnifi. O'zbek shevalarini dastlab professor K. K. Yudaxin (1890 - 1975) tasnif qilishga musharraf bo'ldi. U o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlashi darajasiga ko'ra tasnif qilib, 4ta guruhni belgilaydi:

- asl turkiy tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari;

- o'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar;

- eron tili unlilar tizimini saqlagan o‘zbek shevalari;
- o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik K. K. Yudaxin o‘zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib, uni 5 guruhga – Toshkent, Farg‘ona, qipchoq, Xiva va shimoliy o‘zbek shevalariga ajratadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda **Y. D. Polivanov**(1891 - 1938)ning ulug‘ xizmatlari bor. U o‘zbek tili va shevalari bo‘yicha 250dan ortiq nomda katta va kichik hajmda asarlar yaratgan. Hozirgi kunda uning 150dan oshiq ishlari e‘lon qilingan. Y. D. Polivanov o‘zbek shevalari bo‘yicha “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” (1933), “Toshkent shevasining tovush tizimi” (1922), “O‘zbek tilining singarmonizmni yo‘qotgan shevalari namunalari” (1928) kabi ishlari mavjud.

Y. D. Polivanov o‘zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Keyingi davr dialektologlari Y. D. Polivanov o‘zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiyani (qardosh bo‘lmagan tillarning aralashuvi) hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu e‘tibordan chetda qoladigan fikr emas, lekin Y. D. Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog‘lab qo‘yish ham noto‘g‘i bo‘ladi, balki Y. D. Polivanov turkiy tillar, o‘zbek tili va uning eroniy tillar bilan munosabati kabi holatlarni ham hisobga olgan. Aslida u deyarli barcha o‘zbek shevalarini shaxsan o‘rganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi, urug‘, qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtayi nazardan shevalarni tasnif qilgan hamda o‘zbek tili tarkibida uch yirik lahja mavjudligini belgilab bergan:

Chig‘atoy lahjasi. Bu lahjani 7 tipga ajratadi: 1. Samarqand-Buxoro. 2. Toshkent. 3. Marg‘ilon-Qo‘qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A. Chortoq yoki umlautli shevalar. 5. Qo‘qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o‘zbek shahar (Chimkent, Turkiston) shevalari. 7. Shimoliy o‘zbek qishloq (Mankent) shevalari.


O‘g‘uz lahjasi. Uningcha, bu lahja 2 tipdagi shevalarni o‘z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G‘azavot, Hazorasp, Yangiariq) shevalari. 2. Shimoliy o‘g‘uz (Iqon, Qorabuloq)

shevalari.

Qipchoq lahjasi. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. Xorazm qipchoq shevalari: a) Shimoliy Xorazm (“ž”lovchi); b) O’rta Xorazm (“j”lovchi) shevalari. 2. Qurama shevalari. 3. Qozoq-nayman, Farg’ona-Qoraqalpoq shevalari. 4. Shimoliy o’zbek qipchoq dialekti (So’zoq, Cho’laqo’rg’on).

Chig’atoy lahjasiga qarashli, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli *eronlashgan* shevalar deb hisoblaydi (12-rasm).

12-rasm



G'ozim Olim (1893 -1939) tasnifi. U shevalarni leksik, morfologik va fonetik xususiyatlari jihatidan tasnif qilish lozimligini uqtiradi va shevalarni o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjalariga ajratadi.

O'zbek-qipchoq lahjasini qirg, jaloyir-laqay, qipchoq, Gurlan; turk-barlos lahjasini Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasini Xiva, Qarluq guruhlariga ajratadi.

A. K. Borovkov tasnifi. A. K. Borovkov (1904 – 1962) shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib, dastlab “a”lovchi va “o ~ a”lovchi shevalarni farqlaydi. “o ~ a”lovchi shevalarga Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo'l, shevalarini; “a”lovchi shevalarni esa, o'z navbatida, “u ~ j”lovchi va “dʒ~ž”lovchi shevalarga ajratadi. “u ~ j”lovchilarga Chimkent, Mankent, Turkiston; “dʒ ~ ž”lovchilarga

Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A. K. Borovkov o‘zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana 4 dialektga ajratadi:

1. *O‘rta o‘zbek dialekti*. Uning ikki guruhini belgilaydi: 1) O‘rta O‘zbekiston shevalari: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va boshqalar; 2) shimoliy o‘zbek shevalari: Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2. *Shayboniy o‘zbek yoki “дж~ж”lovchi dialekti*. Bunga Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Shimoliy Xorazm va Farg‘ona vodiysidagi “дж~ж”lovchi shevalarni kiritadi.

3. *Janubiy Xorazm dialekti*. Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘azovot, Sho‘raxon kabi shevalarni kiritadi.

4. *Alohida guruh shevalariga* 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent; 2) umlautli shevalarga (Namangan)ni kiritadi.

V. V. Reshetov (1910 -1979) tasnifi (tasnif to‘liq keltirilmoqda)¹⁵.

Hozirgi O‘zbekiston territoriyasida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos etnogenetik jarayon hamda qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar tilining bir-biriga ta’siri o‘zbek tilining juda murakkab dialektal kompleksini vujudga keltirdi. Tarixiy-lingvistik jihatdan bu kompleks uchta komponentdan iborat:

1) *shimoli-garbiy guruh* – o‘zbek tilining qipchoq lahjasi. Bu guruhga o‘zbek tilining qipchoq shevalari, territorial yondosh qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2) *janubi-g‘arbiy guruh* – o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. Bu guruhga territorial yondosh turkman tili taalluqlidir.

3) *janubi-sharqiy guruh* - bu guruhga qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini tashkil qiluvchi ko‘pchilik o‘zbek shahar shevalari, hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg‘ur tili kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko‘pchiligi uchun shu narsa xarakterliki, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqador bo‘lgan.

¹⁵Qarang: **Решетов В. В.** Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. – Б. 3-14.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining dialektal tarkibi haqiqatan ham murakkab bo‘lib, u O‘rta Osiyo va Qozog‘iston territoriyasidagi xalqlar tilining kichik lingvistik xaritasini eslatadi.

Tarixiy-lingvistik faktlar ko‘rsatganidek, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston territoriyasida mavjud bo‘lgan uchta (qipchoq, o‘g‘uz, qarluq-chigil-uyg‘ur) til birligi o‘zbek tili tarkibida ham xuddi shunga mos uch lahjaning (qipchoq, o‘g‘uz va qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalarining) mavjud bo‘lishiga olib kelgan.

Qipchoq lahjasi. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruh vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qangli, mitan, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, ongut, qiyot, do‘rmon, arg‘in, uyg‘ur* kabi ko‘pgina urug‘lar mavjud¹⁶.

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Bugina emas, o‘zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalari territoriyasida ham bor.

O‘zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avlodan-avlodga o‘tib kelgan juda boy xalq og‘zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi o‘zbek xalqining milliy g‘ururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan bo‘lgan o‘zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini o‘rganish, o‘z navbatida, qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi o‘z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra, o‘zbek adabiy tili normalaridan ham ko‘p jihatlari bilan farq qiladi.

¹⁶ Qipchoq lahjasining urug‘ va qabilalari X. Dohiyorov tomonidan mufassal yoritilgan. Qarang: X. Дониёров. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: ФАН, 1968.

O'g'uz lahjasi. Xorazmning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G'azavot, Yangiariq, Sho'raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarda, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog'istonning bir qator tumanlarida o'g'uz lahjasining vakillari juda ko'p.

Shimoliy o'zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o'g'uz elementlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog'don qishlog'ida) ham uchraydi.

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi. O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi shahar shevalarini va ularga yondosh bo'lgan shahar tipidagi qishloq shevalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur dialekt birligining shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniylar harakati bilan bog'langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg'ur til birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi yirik punktlar aholisining shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O'zbekistan territoriyasidan tashqarida ham ko'p tarqalgan. Masalan, Qozog'iston territoriyasidagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent¹⁷; Qirg'iziston territoriyasidagi O'sh, Jalolobod, O'zgan va boshqalar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg'onistonda ham uchratamiz. Ma'lumki, 1630-yillarda o'zbek urug'laridan qatag'onlarning bir qismi Shoshdan (Toshkent vohasidan) Afg'onistonga ko'chib ketganlar. O'zbek shevalarini klassifikatsiya qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli guruhlariga kiritganlar, holbuki, mazkur shevalar o'rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham, ba'zi grammatik shakllarda ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

¹⁷ Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent shevalarining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasiga kiritilishiga qo'shilib bo'lmaydi. Bu shevalar o'g'uz lahjasiga oiddir. – A.S.

Uyg‘ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman “umlaut”ning mavjudligiga qarab Namangan shevasi, xususan, Namangan atrofidagi ba’zi qishloq shevalari, masalan, Uychi shevasi alohida o‘rin tutadi.

Bu lahjani tubandagi guruhlarga ajratish mumkin:

Farg‘ona guruhi. U bir necha dialektlarni o‘z ichiga oladi:

Namangan dialekti. Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) taalluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi).

Mazkur dialektga oid shevalar uyg‘ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Andijon-Shahrixon dialekti. Bu dialektga Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

O‘sh-O‘zgan dialekti. Bunga O‘sh, O‘zgan, Jalolobod va shu tipdagi boshqa shevalar taalluqli bo‘lib, ular uchun janubiy qirg‘iz shevalari bilan bo‘lgan metisatsiya xarakterlidir.

Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti. Bu dialektga Marg‘ilon, Farg‘ona, Vodil, Qo‘qon va boshqa shu tipdagi shevalar kiradi.

Toshkent guruhi.

Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

Jizzax dialekti. Bunga Jizzax, Xos(Xovos) Qashqadaryodagi Po‘loti, Mo‘loti, Boyterak shevalari kiritilgan.

Qarshi guruhi.

Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.


Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o‘g‘uz va qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).

Shimoliy o'zbek guruhi.

Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba'zi shevalar taalluqli bo'lib, ular o'zining tarkib topish jarayonida avvalo o'g'uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan.

Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur dialekt o'g'uz tili elementlarining kam bo'lishi, biroq Janubiy Qozog'iston shevalari bilan metisatsiyaga kirganligi sababli qipchoq tili elementlarining ko'proq bo'lishiga qarab Iqon-Qorabuloq dialektidan farq qiladi (13-rasm).

13-rasm



Takrorlash uchun savollar:

1. Shevalar qanday tamoyillar asosida tasnif qilinadi?
2. O'zbek shevalari kimlar tomonidan tasnif qilingan va ulardagi farqlar nimalardan iborat?
3. Qaysi o'zbek dialektologlarini bilasiz va ular qanday tadqiqot ishi olib borishgan?

Tayanch tushunchalar:

Gibridizatsiya [hybridization] – qardosh bo‘lmagan til va shevalarning aralashib ketishi.

Klaster [cluster] – sheva, dialekt, lahjalarning yagona tilga yaqinik darajasi.

Metisatsiya [metisation] – qardosh tillar va shevalar chatishuvi.

Shevalarni tasnif qilish [classification of dialect] – shevalardagi o‘xshash va noo‘xshash xususiyatlarni hisobga olib, ularning guruhlarini belgilash.

Til sistematikasi [linguistic systematization] – tilning to‘rt a‘zoli shkalasi(til-lahja-dialekt-sheva).

Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar

(An‘anadagi transkripsiyada yozib olingan matnlar)

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi

Toshkent shevasi

Мән озъм ескъ бэ:вэммән. Хэзър он уч сотъх йеръм бэ:. Йәрмь тэк, йәрмьгә мевәльй дәрәхлә еккәммән. элмә-пэлмә, нэк-пэк дьгәндәй – хәммәсь бэ:. Әзгьнә сәвзъ-пыйз, кәртъшкәйәм еккәммән, йегулуvgә йәрәшә. Бәллә дәләдә ьшләшәдъ. Кәрып қәлдъм, қәдъм мәнәм дәләдә ьшләп кәлдъм. Хэзъ(р) тэмрқәгә еккән нәрсәлә:гә, тәккә кәрәп турәмән. Джъм турьболәдъ дьйьсмь,

ышлэп оргэнгэн (оргэнцэн) эдэмгэ. Йэздэ дэлэ бэгьдэ кэрэвулчълыйэм қълэмэн, бэллэгэ йэрдэм босын дьп. Ышқьп, қьмьллэп тургэнцэ ньме йессын. Қьмьллэсэн қьр эшэсэн дыйышкэн. Кельн, сызгэ бэ:дэрчълыйдэн гэпърь берэқълый. Бэ:ныйэм джэ: ышь коп болэдъ. Еттэ кохлэм тэк эчълэдъ, шорэсь осып кетмэстэн. Пэйэлэ сынган, бэгэзлэ чушып кеткэм босэ, ышкэм, бэшқэттэн ышлэнэдъ. Бу шундэ: болэдъ - сынган пэйэнь эп тэшэп, онныгэ йенгъ пэйэ койьлэдъ, кегьн пэйэлэ егып ышкэм қълэнэдъ. Пэйэгэ йэмбэшлэтып бэгэз бэйлэнэдъ. Бэгэзъ ыстэй мьнэм бэйльйвуз. Тэллъ ыңгычкэ нэвдэсынъ ыстэй дыйвуз. Кегьн тэккь ышкэмгэ котэрэвуз. Нэвдэлэрьнь тэрэп, чьптэмьнэм бэгэзгэ бэйлэп койэвуз. Йэздэ тэк осып, ышкэмь орэп кеткэндэ хэмтэв (< хэмтэк) қълэвуз. Бомэсэ, нэвдэ пышмьй қлэдъ, узьмэм бемэзэ болэдъ. Хэмтэв қьгэндэ, кун йэхшь чушэдъ. Нэвдэйэм пышэдъ, узьмэм шьрэль болэдъ. Кун йэхшь чушышьйчун бэ:йлэнь йульп тэшэшшь хэмтэв дыйвуз. Узьм пышкэндэ, ышкэмь устыгэ бэгъь оттэсыгэ хэвэзэ қълэвуз. Хэвэзэдэ отьрып кушшь қорыйвуз. Йэздэ тут пышьгьдэм бэшлэп қэрэйэлэ:, чуғурчу: келэдъ. Қорып турмэсэн, узьммь шьльп кетэдъ. Тэртэрэй чэлсэн қэчэдъ. Энув кэттэ йэңцэ:гэйэм қоңцърэ: қьп койэмэн, куш қорышкэ. Қоңцърэ:нь пэкьрдэн қълэмэн. Пэкьррь ычгэ быттэ темьррь эсылтьрып бэйлэп, пэкьррь йэңцэ:нь учыгэ эсып койэмэн. Ычьдэгъ темьргэ кэнэп бэйлэп хэвэзэгэ тэртъп келэмэн. Хэвэзэдэн турьп кэнэппь тэртъп кэсэм, дэрэнц-дурунц қьп кетэдъ, куш бэлэсь йолэп корсынчы. Хэвэзэдэ йэтэмэн, кушшь эвэзь кесэ, йэткэн джэйьмдэ кэнэппь тэртъп койэмэн, қоңцърэ: джэрэнлэп кетэдъ, куш бэқкэ йолэмьйдъ. Кечэсьйэм хэвэзэдэ йэтэмэн. Йэзъ ыссық дьм кечэлэрьйэм оттэ (<у ерда) ғыр-ғыр шэмэл. Хэвэзэдэ йстышьыйэм гэштъ бэ:. Бу йьл йэздэ бьр кельйлэ. Хэвэзэгэ джэй қьбьрэмэн, ошэндэ бьлэсьс хэвэзэнь гэштънь. Еттэмэн ыккь вэш шэкэрэнгулль (*тож.* шакар ангур) сувгэ сэп, муздэй қьп берый, кэрсьллэтып йеп қорьн, ошэндэ бьлэсьс бэгъь, узьммь хэсьйэтынь. Узьм джэньвэрэм мьң бьр дэрткэ дэвэ. Е, рэстэнэм бьнньмэ дьвэстувдьм. Хь, бэ:дэрчълыйгэ

кесэв (< келсак), куздэ узьмлэ узьп эльңңэндэн кегън тэккь комъш керэй. Комъшдэн элдън узьммь зэңгъ нэвдэлэрънь ышкэмдэн чушърьп хэсылсэз нэвдэлэ кесъп тэшлэнэдъ. Кегън қондэ: қълънэдъ. Узьммь нэвдэлэрънь йьгъп, бэйлэп қуйышшъ қондэ: дъйвуз. Қондэ: қьгэндэ, узьммь нэвдэлэръ йэсткэзьлып, узун қьп нэвдэмьнэм бэйлэп қойьлэдъ. Кегън устыдэн бэрдъ йэпсэйэм болэдъ, турпэ: йэпсэйэм болэдъ. Мэн бэрдьгэ комэмэн. Энув кэлэвэтть устыдэгъ тэк аймэқъ. Унь коммьймэн, оргэңңэн, қыштэйэм турвурэдъ. Энувнъйэм аймэқъ қьмэ:чъмэн. Джъйдэнь устыга чькэрвэрэмэн. Ошэнь устыдэ сэп йэствурсън, хэвлъгэйэм сэйэ берэдъ. Келгусь йьл мэмбъ қьрмьскэнь пэрхъш қьмэ:чъмэн, пэрхъш қьп копэйтьрэмэн. Мундэнэм бьттэ соръ қьп қойьй, йэхшъ турэдьгэн узьм, мэгъзыйэм кэттэқорғэңнъкъдэн қэлышмьйдъ. Қэлэмчэсэдэн сьзгэйэм бьттэ екьп берый, бэхэнэмьнэм узьмлъй боп қэлэсьс, узьмлъй ойгэ нъмэ йессън, о:льм.

Farg'ona shevasi

Ertaklar

Бър кун девэнайъ Мэшрэп сэхрэгэ сэйьл еткэнь чьккэньдъ. Сэхрэдэ бэрэйэтып этрэпъгэ қэрэсэ бър дейқэн қош хэйдэйэсткэньмьш. Дейқэн қош хэйдэрэкэн-у, Мэшрэпть йэзгэн гзэллэръдэн бьрънь бузьп куйлэйткэньнь ышьтыпть. Дейқэн хэйдэлгэн шудгэрдъ мэлэ бэсьп өткэч, Мэшрэбъ девэна мэлэ бэсьлгэн йердъ эйэқ вэ қоллэръмьнэн бузьпть. Бунъ коргэн дейқэн „дэ:д-пэрийэст" қълъп: „Ей девэнайъ Мэшрэп, не сэвэптуркьм, мэнь мэлэ бэскэн йерьммь бузэсэн?" – депть, уңгэ джэвэбэн девэнайъ Мэшрэп: “Сэнь мэлэ бэскэн йерьйнь шул сэвэптын буздьмкъ, мэнь йэзгэн гзэлымь бузьп эйтйэпсэн", - депть. Дейқэн Мэшрэптэн узр сорэпть.

Боръ бьлэн тулкь екэлэсь джэ: қэлын дос большыпть. Улэр бър кун бър дэштэ кетъйкэнлэръдэ джъдэ қэннълэръ эчқэп, нъмэ қыльшънь бьльшмэстэн, у йэқ-бу йэқларигэ қэрэшсэкъ, узэқтэ бър бэғ (бэх) корьныпть қорғэңдъ ычъдэ. Уңгэ йэқьн бэръшыпть, йэқьн бэръшып узьм оғьллъх қьлмэхчъ вольшыпть. Қэрэшсэкъ, қорғэн

джьдә бәләт экән. Ньмә қылышынь бьльшмәстән қәрәшсә, эмьзый(k) тургәнәкән. Шу эмьзыйдән бьр бәлә қылып қьсьлып йьтп отьшыпть екәләсь, шундә тулкь борьгә бьр гәп әйтпть: “Узьмләр хоп пьшыпть йетьлып, узьмдь шундәй йьйлккь тойьп бунньмьздән чькьп кессьн”, - дьпть. Рә:сә узьмдь екәләсь йьйдь. Тулкь шундә хьйлә ьшләтпть. Хьйлә ьшләтп, бунньгә бьр узьмдь тьквәпть - екәлә бунньгә узьмдь тьквәлып, борьгә: “Хәльйәм қәннъң тоймәдьмь”, - депть. Борь унъң сәрь шәшьлып, қьзькьп йу::рпть узьмдь. Әхьрь, қәннъ йәрьлып кетәдьгән дәрәджәгә йетп қәпть. Шундә тулкь дувәлдь устьгә ь:рғып чьквәлып, хә:дьп: “Бәғбән әкә, оғьрь кетть-йә:”, - деп чәкьро:рпть. Шундә борь ньмә қылышынь бьлмәстән эмьзккә йугьрсә, эмьзккә сьғмәпть. Дувәлгәйәм ьрғьйәлмәпть. Шундә бәғбән чькьп қәлып, рә:сә тохмағләп урпть. Чәлә ольй қылып тәшләпть. Шундә бәғбән ендь борьнь олып қәлдь деп кетпть әрқәсьгә қәрәп. Шундә келтейдь зәрбьгә борьнь йегән узьмләрь чькьп кетпть. Тулкь дәрров дувәлдән ьрғып чушыпть хәл-әхвәл сорәгәнъ. Тулкь әлдьнь әлып, борьгә әйтпть-дә: “Мәнйәм әнийердә рә:сә кәлтейләшть. Екәлә бькьньмь әләлмәй қәлдьм. Тур ендь кетәмьз”, - депть борьгә. Борьйәм “мәйль бо:мәсә” деп эмьзыйдән әлдьн отьпть. Әрқәсьдән тулкьвәй отьпть. Қәрәсә, борь джә: хәлләсләп кетәйәткәньмьш. Тулкь ойләп корьп қәрәсә, борь әлдьн кетйәпть. Кейьн тулкь “вәй әйәғьм!”- деп әхсәғләньп йурйәпть. Унғә борьнь рәхмь кельп: “Ке, әрқәмгә мьнвәл, бо:мәсәм”, - депть. Шундә тулкь мьнвәлып: “Хьх ешәғьм, сәнъ әлдәмәсәм кьмь әлдәймән”, - деп борьнь мьнъп тәккә қәрәп чькьп кетпть. Шу мьнән борьмьнән тулкь мурәдь мәхсәтьгә йетпть.

Namangan shevasi

Suhbat

Күлләдән бьр күн оттәғьммьнәм тәғәммькьгә кьрүдүг, бьззь йәңәчәм қәшшъ (қарши) әддь, шьйпәңгә отқуздь. Ендь әлдьмьзгә у-бу қойьп түрүддь, шу вәхттә қошнұсь қетьккә чькьп қәддь.

- Қошну, қетьғьңгьздән босә бьр кәсә берьң.

- Бър хурмача қалуддь, ындьгьнә гүзәргә сәткәнә эпчәп кетгьйә.

- Есьзгьнә, зәддрәв-мәддрәвйәм йо:мь, бәшымьмь тәтәләвәләй дудум.

- Зәддрәв йоғ-у, өзъмьзгә эп койгәндьм, өшәндән берәқәлей, бәшьңьзгә восә.

- Худзйә, мәльңьз гәмуш восун, йольмьмь йәқьн || йәқьн қәлдз. Вәй қошну, шәшьлгәньмнән хәл сорәшәм есьмнән чәп қәптә, ендә сорәшәйнүк: түзүмьсьз. Түнүкүн тәвьңьз йоғ деп ышьтып хәлә йьрәгьм әчьшмәсә.

-Хә, ендә түзүмән. Духтур кәлп қәрәп, дәр-мәр йәзәп берүддә ычәп әнчә өзүмгә кәп қәддәм.

-Ылзйә әйьлләрьңьз бәхтыгә түзү волуң. Еткәндәй, оғльздән хәт кәлүттәмь? Тьнчәкәммь?

-Хә, кәлүттә, тьнчәмуш, ойнәп-күлүп йургәньмуш. Ык-уч кун боддә рәсьм йувәрпәтә, гәләтә эркәсьдә пәпугь вәр шәпкәләдән кьйвәптә.

-Хә тузу:, тьнчә восә воптә. Оғльз бомәсә морйәгәкәндә пәпулуг шәпкә кьйгән восә.

-Хә, шунәқәймуш.

-Вәй өлмәсәм, әшшә қәп, дәмләп чькү:ддәм, ендә ләнджәм боп қәддә. Өткән сә:р шунәқә тәкльг әш қәлу:ддәм тә:гь эп, қьрмәч боп қәптә. Хоп көрьшгүнчә хәй, йоқәсә.

-Хәй.

Уннән кь:н йәңәчәмьз бьззә әлдәмьзгә кәп: “Сьләнйәм зерьктәрьвәддүммь... хәтунләгә гәб босә. Шуньчун әйтәшәдәдә: еләккә чьққән хәтуннә елльг әғуз гәпә вәр деп. Ыктәмьз бьрвоп қәлду:мь, бодлдә гәпә бәйьтәв ерәмьз. Хәй, әбәң түзү:мь, әчәңләйәм йүрпәтәләмь, үкәләрьң”.

- Хә, хәммәләрә йәхшә, қьрсәң сорәп қой дейьшудә.

- Сәломәт болуссун, хьч кәләйәм дәмәйсьлә.

- Көрмәйсьмь, ышлә джудә коп, ендә муннән бәқә кәп турәмьз.

Хәй. ендә бьз турәйлук, бьр ышмьнәм бьджджәйгә кәтүткәндүг

бейгә кърьвөтәйлүг деп қалдым, Мәну: эшнәммыйәм бәшләп кърәведдым.

- Жудә йәхшъ къпсылә-дә. Джә тез қәйтуссылә-йә, э:қәт-п:эқәт късә: бәләддъ, әхър.

- Ышъмъз зәрурәғ, бәшқә күнъ келәрмъз,

- Хәй... дәрәп кетуссыләйә, тә:бә, бәшқә кельинә, бомәсә.

Kitob tumani Ayronchi qishlog'i shevasi

Бъзәддъ қышлэх халқъ қыйәнъ, бәлғаль, ходжә уруғләрәдән. Бъзә еннъ шу уруғләдән ургъп қәгән-дә. Қадъм әкәль-укәль мәлдәр къшьләр богән дыйдыләр, улә түйә сәвгән, қой сәвгән, әйрән қыған.

Бъз әктъб боп келлкъ, ығрмә сәккызынчы йъл йер токәтыш боллъ, ығрмә тоқкызынчы йългә кельп кәлхәзләшткъ. Бър селсәвът бойчы мен кәлхәс рәйсы боллъм. Бър әйдәң сәғум бьздъ селсәвътты рәйсы къп қойдылә, ^йеккы йъл ышләдъм. Қышләқ-қышләққа кәлхәс түзүллъ. ^вОттыз ^йеккынчы йъл “Ғалаба” кәлхәзъ боллъ, ^йекки йълләң кейын уштә қышлэх - Әчәмәйлъ, Қайчыль, Әйрәнчы бър кәлхәс боллъ. Кейын йәнә кәлхәзлә бьлләштъ. Қыр бърынчы йъл йәнә бьздъ рәйсы къп сәйләдылә. ^вОшә йьль хәсыл йәхшъ бомәдъ. Рә:бәр өзи буйруқ къп, ыш көрсәтмәсә бекәр-дә. Қыр бърынчы йъл уруш боп қаллъ, ығьлләддъ урушкә йувәрәйәппыз. Шүйтып, қыр ^йеккынчы йьлләгә бәрп кәлхәзъмъзгә куч кәм қаллъ. Ә:рәнум мьнән өзъмьс сув сувәргәммъз, сьзгә, бу къшыгә охшәгән ығьлләр қейгә, бьзгә уштә тьрә:тьр бәрды, ышләвчылә ғьжьлләгән хәммәгьнәсь әйәл. ^вОшә вәхлә хәм шәль екәйдьк, хәм пәхтә. ^вОнәккынчы мәттән ләйшәңнә чүшәйдьк, әпрьл эйгә дәвур шәльнъ егьб боләйдьк. Сәғун пәхтәнъ егәйдьк. Тьрә:тьлләръмъз гә: йурәдъ, гә: йәтәдъ, жәнвәр ков егсә, беш-әлтъ гектәр егәйдъ, ығрмәтә-оттыстә эт селкә мьнән чьгьтты егьб боләйдьк. Хәммә нессә пәхтәгә қарәтыләйдъ. Медъмьс къп сәвун, чәй, шәкәр, чьт тәхсымләйдьк. Чьтты қарасынъ әләсьзмъ, сурпынъ әләсьзмъ. Қайсы керә: босә әләйдьс, ғаллайәм шуннәғ. Кәлхуччыләйәм йәхшъ ышләйдъ, хәммә тәң әзәннән ышкә чьғадъ, хәддъ йоғьдыкы бьрәнтә чьғмәй қәсә.

Шүйтгьп, хэр йль дэвлэткэ пэхтәнъ пьләнъдән эшърьп тэпшърьп турдык-тә. Бър хьл кьшьлэ эрдьн элль, ^уоттуз беш- ^уоттуз элтэ эрәвэ пэхтәнъ өзъ кэшъккэ сэлъп, бър кьшь тэрэзыйә тэртгьп берьп келәйдь, полә-шолә дегән гәб бомайдь.

Шәкәр лэвлэвнъйәм көв егәйдьк. Бър куң кәлхуччъләддъ хәммәснъ бър от бәскән әңнәр борьдъ, лэвлэвь егьлгән, шуңнә эп чьхтгьм, ьдәрәгәйәм хьч кьм кәмәдъ, хәммә бәлә-чәқаләрь мьнен чьғдъ. Бьттә ьнвьрсәльмьз бә. Бър вәштән чүштгьм-дә хәммәгә сәнәб беддгьм, бър хәттән тгьйдъ, озьмәм элльм. Йәгәнәдән чьққаньнъ эп кетгьйлә дедгьм, чүччъ шәкәр лэвлэвь-дә, хәммә терьп-терьп эп кетәйдъ. Қарәсәм, рәйәннъ вәкьлләрьйәм бо:рә келәйәптгь-дә. Бър упәлнәмәчъ бәрьдъ, бър вәх ләп ьтгьп элльмьзгә кеп қәллъ. Шу турушкә, хәшәр қьпсән-дә, дедъ. Кейгьн рәйкум бәвә кеп қәллъ, кечқурун, бойрәгә чәқьддъ.

Кечкәчә хәммәснъ чөвьп тәйләдгьк, кәмә:дъ еннъ. Рәйкумбәвә лэвлэвнъ пәйдәсъ кәттә деп гәпърьп-гәпърьп кеп, кейин бьзәддъ махтап бәщқә рәйьсләрдъ қьзәртгьрдъ. Еннъ бьзә эпннъккә отгьп қәллък. Бър сувәрьп, сувәргәннең кейн тәйь бошәйдъ, кәвләп хәр-хәр джәйгә үйдьк, шүйтгьп хәммә джәйдъ лэвлэвь бәсгьп кеттгь, хәсьллъ тәхсьмләйдьк, чьт кесә кәлхәскә дәррәв хәсәвләп чьғамьз, қанъ неччъ метьддән тгьйә:дъ, сәғун хәвәр қьләмьз, Ғалләнъ қәл мьнән орьп, хом мьнән йәнчәйдьк, ьнтъзәм шуннәй қаттгь едгькь, йәнчгьн, сәв(у)ргьн, тәййәлләң, некгьн хьйәнәт қьмәң, дгьйдгьм.

^вОшә вәғләр кәлхуччъләрдә мәләм кувьдъ, шунчә мәл кәлхәздъ йергьнъ бәсмәгьчгьйдъ. Кәлхәздъ нәннъ йесәң, хәләлләв йе, дейдгь-дә, эдәмләгә, сьз пьрәнтгь әрқәснъ мә:кәмләсә:нъз, пьрәнткә йәддәм бергәнъңьз шо болә:дъ, дгьйдьк.

Бър джәйгә шәлъ екувдгьк, эдәмнъ кәмлгьгьдән, когәрьп чьғгьп, кейгьн ^вот бәсгьп кеттгь, шундәй бәсәйәм, бър розғәргә бър туннәчә шәлъ тгьйдъ. Бър кун рәйкумбәвә чәқьрп: “Сәңнә эт-хәкьз йетгьшмәйдгьмә?”- деп сорәдъ.

Бър кун ъстъмэ зорэлэйвѣддѣ, бэдәнъмңэ варэджэ къръвѣддѣ, хъппэ дэвушъм пѣттѣ, ^бентькѣп-^бентькѣп нэпэс элэмэн, эйэлъм бър мэмэ чақыргәнэкән, у қолънъ шүтып тэмэғъмңэ эп кельвѣддѣ: “Е, кой, кой”,- дедъм. Сув ъччэм отмәйдѣ. Соғун қарасэм, бэдърләп уч къшь оқыйвѣддѣ, эйэлъмнъ чәқъръв әйттъм: “Бър къшьгә буйур, шә::рдән тэвә:мә, Ғузәддән тэвә:мә бър вьрәч тәпсә-дә, йувәрсә”, - дедъм. Қарасэм, әвхәл шо. Соғун шә::рдән вьрәч кев эп кеттѣ менъ, ендѣ йәтѣппән, бә:рѣсѣ өзъчә гәпләшәйәптѣ, қуләғъмңә кьрәдѣ, чүшмәймән уләддѣ гэвьгә, хъштъмәнъ бълмәймән, некън нэпэс гьттәккънә рөшәм боллъ бэргәннәң кейн. Шүтип, әпәрәстә қып түзәлып кеттъм. ^бЕннъ эдәмләгә белбувәрдән йуғрәрдән йәрә чъхсә, меңә йувәрсән, дедъм. Бър къшьнъ сәнъдән бър сом дегән йэмән йәрә чъғыптѣ, бәхшьңңә, пәлчъңңә йугурәвьрәсәммә, бэр чоләг вьрәчкә, деп қәғәз йәзъб бердъм. Тағъ бьттәсәнъ қарасэм уштәсѣ оқув йә::птѣ, тэмәхтѣ бър тэмәнънъ қьсѣв эгән, хъллә нэпэс эләдѣ. хәзър вьрәчкә бэр, деп жонәтѣв йувәрдъм.

Кәлхәзгә йеттѣ йуз гектәр эвѣ йер бэр ѣдѣ, сув йетѣшмәйдѣ, кум бәтѣш пәйтѣ ту:рѣ элләгә бәддъм. Вәтхузгә ьшләгән устә къшь бош кетә:мә, меңә сув берәсәммә, йохмә?- дедъм. Сув учун уруш-соғьшәм боп турәт(ь)тә еннъ. Бу гэвьңңѣ кой, улум, дедѣ.

Нькә тойдә әрзѣ-хәвсѣ бэр-ку:, нә къшьлә тоққьс тәвәк қьләдѣлә, йыгът бергән нессәдән тоққьс хъл тәвәм қьләдѣ: әнәр, хәлвә, нән, шәшльк..., хәммә қассьгә сәльвәләдѣ. Той кунъ бър қас йәзъп қойәллә, шу қаскә към қанчә тәйләсә тәйләйдѣ, пулль кьйәв тэмәңңә тәпшърәллә. Шу кунъ хәмсәйә хәвләгә қьз дугәнәләрѣ мьнән ^воттърәдѣ, қьздѣ вәкълънъ сорәб бэрәллә(р). Кәмпърләр ләләләддѣ гүп-гүп урып, тезрә: гәпър деб мәжмур қьгәннәй қьләллә. Шунъ учун вәкъл сорәп кегәллә кәмпьлләгә пул берәдѣ. ^бЕннъ қьз къмңә вәкълънъ бергәм босә, шунъ гэвь гәп боләдѣ. Ъгът тэмән әйәлләрѣ ьгъттѣ кьптъдән, тонъдән ь:нә откәрѣп турәдѣ, кейън ьгът ектә жорәсѣ мьнән чъмьлльққә кьрѣп учәвьйәм сәләм сәләдѣ. Кәмпьллә: “... ков йәшәсән! Мьң йәшәсән!”- қьп қәләллә(р). Еккѣ жорәнъ кьйәвбәшләтәр дейдѣлә. Уләгә әтәп қалпәк, **қас (белбоғ)**,

тэвэм тэтгып эллыгэ койэллэ, бэркэшгэ пул тэйлэп, улэ элып кетэллэ. Пулль кыздэ енэсгэ берэллэ(р). Кельннэйэм кыйэвдэ эллыгэ кыйрып койэллэ(р), ойгэ эдэм толэ болэдэ. Кейн кельң-кыйэвдэ хешлэрэ чъмьллькка қарэп ссчэллэ.

Еттэмьнэң қайннэсэ кыйэвдэ қэшгэ чынтэвэх, чэйнэй-пыйэлэ, бэркэш кетэрып койэдэ. Кыйэв унэ элып кетэдэ. Нэмэзэ эсыргэ бэрып қыз эткэ мьнэп кыйэвдэ кыйэ жонэйдэ. Йоллэгэ **бақам** тутэллэ эдэмлэ, қыздэ мьндэрыб бэргыч йэ экэсэ, йэ укэсэ улэгэ пул берэдэ. Қыз эт мьнэн элэвдэ гьддэдэн эйнэлэдэ, қыздэ ыгыт котэрыв элэдэ. Кейин бетэчэрэ, джойығары қыз коддысэ болэдэ. Қыз коддыгэ қыздэ этэ-енэсэ корганэ кельп, **хэпэвэн**, эттуйэқ эп кебберэдэ.

Kitob tumani Chechak shevasi

Бэр йыль, йыгыллыг вэхтымга басмачылардэ қолыгэ чүшкэммен. Ғалла алыш учын Пэйшэмьнэ бэзэрыгэ үч кышь боп бэрдэқ Ек(кы)кышь бэргэ қышлэгдэн бэрдэқ-тэ, быттэмьз бэзэрдэн қошыллык, уштэ боп ғалла элэмьс деб бэрувдэқ, бэр қышлэқка бэрып йэттык//джаттық. Быздэ бэр эшнэмьс бэрыдэ, шу ыяэртгып бэрдэ-дэ, кыйн шу қышлэқкэ йэттык//джаттық. Шоордэн, эндэ хэзыргэ хэсэпкэ бэр йүзү он келэ бувдай эллым, бэр хэмрэйым йетмыш келэ эллы, бэр хэмрэйымьс қыр келэ эллы, хэммэсэ боп еккы йүзү йегьрмэ келэ ғалла эллык-тэ. У вэхты ғалла мьнэн куннузыгэ йуруш қыйн. Кечэсэ хэйдэйымьс деп ошергэ йэттык//джаттық. Шу йэткэн эхшам(мь)мьс хава булут боп қараңлығ боллы, пычы хава йығды:, йурэлмэдэқ-тэ йэтып қаллык Куннузыгэйэм жонэлмэдэқ, бу эхшэмь йонэдэқ, эй эйдэн боллы, хава ғувэр-пувэр бомэдэ, джэ бэр қырэв чүшүп, эйдэн боп, элыстағы йоллэр корунып, шүтып, учэв(ы)мьс келэйэтувдук-қо,... хей, берйэгдэн, эллымьздэн, шо қышлэгдан чыгып бэр йетты-сэккыс келэметырлэр йурувдэқ, эллымьздэн уч эллы(к), шо элыстэн былдырэп бьзэ(р)гэ қарэп кельвэрдэ. Бьзэ быйақ(к)а қарап кетывэрдэқ, улэ бьзэ(р)гэ қарэп кельвэрдэ, шо, бэр-бэрымьзгэ қаршы кельвэрдэқ-тэ. Бьзэдэн отты-йу қайтып быйақа отты-дэ „тохтаңнар" дэды. Хоп, тохтадық.

-Қайердән чыхтыйнәр? - деп сорә:дь.

-Хә, мәнә шу қышлэхтән.

-Хоп, кеддән съләрдыкь?

-Бъзәрдыкь Кътәптән.

-Нъмә бу эртқалларьң?

-Бувдэй...

-Хоп, қыйтәр бергә - дедь-дә, шә:ннәң ке:йн бьзәрды қыйтәрды, учәвннәйм кыймь түзүй. Хәмрәймьзды екәвдән ғаллань элды-дә, менә ындәмәй турды. Соғун менңә келль-дә, сен кым, дедь. Лекьн хәмрәйләрьм шун(д)әйчь йүргән кышыйды, менңә пьрәстәйгьнә хәмрәйды.

Быйәхтән кегән хәмрәйь әйтгь: “Мунь менән әйтшьв отьрәсәммь, мунь мәргь бьттә пәчәх-тә, бьттә пәчәгды бер, әнә джак(к)а йумәләтп тәйлә-қой-дә”, - дьды. Шун(д)әй дегәннәң ке:н қохтум. Мен әйтгьм, хә, бу бәсмәчыйәкән, еннә бьлльм, нәвдә этп тәйләмәсьн, деп йәңәгыйә: “Сорамагды айбь джох сьзләр кым боләсьсләр”, - дедьм.

- Е, мень ертә Чьрәхчь бәрсәң, бьләсән, мень кымльгьмнә,- дедь.

Бчьмңә Чьрәхчь бәрмәстән шейгә бьр ыш қып қоймәсә, деп қорқайәппән. Кейьн бьр вахть бьттәсь келль-дә, шо мьнән коб мәйдә-чүйдә қьв отьрмә, дедь, эттән чүштүм-у, этгь устыгә бувдэй эртьлғань:йды, шу эртьғань мьнән этгь йьләвдән олль-дә: “этгь быйак(к)а бер”, - дьды. “Бу менькь йемәс, мень некьн бьрәвдәң ка(р)здәр қьласьләр, меннән ундурув эләт(ь)тә”, - дьдым. Еннә мәйдә-чүйдә десәм, бьннәмә зәләлләнтьрп, этп-пәтп тәйләмәсьн дьймән, кечәсь бьр әвләх чолгә. Ек(кь) хәмрәйм чә:т ыннәмәй турьптгь. Гәпурувурвдым, бу мә:мәдәнә мәнән әйтшьв отьрмә, әйтшьшәң ертәмәңңәчә дәвур сень әйләнтьрәды, гәб тәвуб берәйкән. “Мунь, әйтм-ко сеңә, әйтшьв отьргунчә бьр пәчәгды бер, шунь мьнән чуқурға эвдарьп тәйлә, қәлувурәт(ь)-тә”, - дьды. Сәғун этгь йүләвннә беддым, “мә!” дьдым. этгь йүләвннә шуннәй элль-дә, хәй нәрәлакка бьр беш мьтьр-әлтгь мьтьр джәй-гә бьттәсьгә етгьб берды. Буньсь менңә, элльмңә келп қарамат(ь)-да,

шу, чәппә қарап турупты. этты йетәләб бәрды-дә, йүләвннь уңә бедды-дә, соғун:

- Қань еннь, болыйнәр, сьләрды мәнә шу йол топпә-торь Чьрәхчыгә эбрәды, - дьды, - кәтә йол өзә некьн. Шо Джәмнән келәйткән кәттә йол озь, шу йолгә тушьрды-йу, топпә-тоғрь кетәвурәсьлә шу йоллән, бу тәмәңнә чьхсәңәм әтьләсән, бу тәмәңнә чьхсәңәм әтьләсән, - дедды-дә, хәйдәды. Бьттәсь бир омбьр мьтьр әллнь, бьттәсь бьр омбьр мьтьр кейнь, әлльдәгьннь қолыгә ләгән// нәгән бьр, кьйндәгьннь қолыгә мьлтығ. Мьлтығь, шу, пәнштьрәгә охшәгән мьлтығ-у, пәнштьрәльгьнньйәм әньгьннь бьлмәймән, башқалыгьнньйәм некьн. Кечәсь бәттәр мән өзәмәм, бәйнә:, „әтып тәйлә" дейәнньгә қохтым-да. Соғун йолгә сәп қойды бьзәрды, хьч ьннәмәй йурәсьлә, дьды, ьннәмәй кетьвурдык учәвьмьз, бәрә-бәрә мән йәнә сорәдым, сьләр өзә кьм бөләсьләр, буйтып ньмә қьль(в) йурьпсьләр, дьдым. Хә. у-бу деп, бьттәсь-бьттәсьгә әйтты-ко: “Бьзәр чәйхәнәгә турәмьз, әтлә(р) мьнән бувдәйдь қойып, ше:гә келәсән”, - дьды-дә, у қәлль, бьзәр кельвурдык Ендь өзәм бьльп қойдым уләрды бәсмәчьльгьннь. Екәвннь ортәсьгә бьзәр учәв(ь)мьс келәйәппьз, бьттәсь ләгәннь, бьттәсь мьлтығды қолыгә ушләгән, шуйтып келәйәпты. Кьйнь бәрә-бәрә әлдыңдәгь, шо ләгәннь, ек(к)ь-уч қарашып әллнь-әллнь хәйдәп, кьйнь қаттық қьчәв хәйдәп кетты. О корьммәй, йох воп кеткәннәйкьн соғун мән: “У қайа кетты – дьдым, - қой, йурәвур, ьшьң бомәсьн”, - дьды. Шо бьр джәйгә келувдык, бьр йәнәгә, шуннәй тәрмәшып йәнәгә чьғайт(ь)кән джәйгә, шо, әтыннь охшәтып бьр қәмчь урды-дә, шуннәй кьйньң қарасәм, шо, ьзыгә бурды-йу, бьзә(р)ды тәйләп өзәйәм сә:лль-кетты-дә, қәчьп кетты. Бьзәр ше:гә әрә чолгә қәлльк Бьр сәккьс кьләмьтьрләр йол йурувдык, хәмрәйләрьм: “Ен(нь) ньмә қьләмьз, буннәй болль - у-бу девды, - хәй, еннь қәйтәйык, шо бьзәрды буғдәйдь әгән джәйгә дәвур бәрәйык кань, кань ньмә гәб бәр”, - дьдым, Әстә-әстә йәнәгь джәйгә дәвур еннь пьйәдә бәрдык, бәрсәк бәйнәгь, йолдән, бәзәрдән қошылгән хәмрәйьмьзды ешәгь бәрды, бьзәддыкь әтьды екәв(ь)мьздыкьйәм, унь ешәгьннь йолды устыгә хәләчөкьсьннь шуннәйгьнә тоқумьгә суғьпты-дә, әйәғьдәм бәйләп

кетъпть. Бъзэрдъ этларам йоғ, ғаллайэм йоҳ, кетъпть. Хъч хъсэбъ йоғ еннь, ке:гә бэрэръмъздъ бълмәймъз, ше:гә йэттык кьмьлләмәй, бу қаннәй болль еннь деп. Е(р)тәмьнә(н) турдык, қарасәк элльмъзгә бър қышләғ бэрәкән, әстә-әстә бэрдьк шунә. Е(р)тәмьнә(н) шергә бэръп, эдәмләрдь коръп: “Шунәй-шунәй, хъдж бълмәдьк, кьмльгънь тәнъмәдьк. Некън шо эгән эдәмләрдь йус кьшьнь тьчйә босәйәм, мен тәнъймән, джудә йәхшьләп белгъләп қойдым, ышқьлып, көрсәм тәнъймән”, - дьдым. Хәй, бьзә(р)дән сорәп-сорәп, шунәйчъ қайгә элль, қайгә қойды, кьм элль, кьмьдь, деп, еннь сьзәр кетъвьрьңләр, бьзәр буләрдь тәпәмъз, әдрьсләръздъ қойып кетъңлә, тошнь қып, бьз нъмә богәнънь кьйн хәбәр қъләмъз, дьдылә. Шуйтып, озь ғалла тә:чъл вәхть буғдәйъмъздъ элдьръп, озъмъз бър ольмнән қэвьдьк. Уләрдь шо қышләғдь эдәмләръ бъләйкән, кьйн сәлләдләргә хәбәр қып, ошә қалқаммьнән устыгә бэръп бәсмәчъләрдь йәткән джәйьгә сәлләдләр бәсьп эгән. Бу учэвь, шу, ғалла-палла тэвуп кетърьберъп турәйкән уләргә, кьйн бълльй. (*Sheva vakillarining guvohlik berishicha, bu sheva avval “dj”lovchi bo ‘lgan*)

О‘g‘uz lahjasi Urganch shevasi

Гүррән

Мән ^Вон сәккьз йа:шьмда қо:й бақарәдым. А:там қа:ссапчъльк әтәр әдь. Мән қо:й бақмақа бър геткәннән ^Вон-^Вом беш гү:ндә бър гәләрәдым. Бър гү:н гәсәм, бьзләнъ е:ләтнь а:қсаққальнь йи:пәкнь ^Воғьллаптыла. Бу а:қсаққальнь Мә:тмьрат а:қсаққал дәр әдылә. Бу а:дам жа:mmaпчъльк (түқувчилик) әтәрәдь. Бу ^Воғьллаңнан йи:пәкнь

мәнъ мо:йньма ташадьла. Қо:й бақыштан гәлийәнәдъм, бу йи:пәк мән гәмәстән ү:ч гү:м бурьн ^Воғьллаңнан. Бър гү:нь гешлькә гәльп, ^Воғьллап гетть, дәп тө:мәт ташадьла. Мәнъ а:там ^Вула вълән урьштъ, болмадь. Соң йанқъ а:қсаққал йа:ньна бър тода ба:йлань альп, ха:на арз әтмәкә барьптьла. Ха:н мәнъ чақьртърдь. Мәнъ и:ккь па:шшап(миршаб) альб гьттъ. Мәннән: “Йи:пәкнь қачан алдъң, нешәтьп алдъң”, - дәп сорадьла. мән хәммә ва:қыйань сөлләп пәрдьм. Қачан қо:й бақыштан гәлийәнъмнь, бу гә:пләдән ха:варьм йоқлькьнь айттьм. Ха:н маңа йи:рмә та:зый урьшнь буйьрдь. Мәнъ урьп зы:ндана ташадьла. ү:ч гү:ннән соң мәнъ қа:зьға қоштьла. Қа:зьға Мә:тмьрат а:қсаққаллам бардь. Қа:зь бьзләдән ва:қыйань сорадь. мән хәммәсьнь айттьп болғаннан соң: “Шу айтқалларьң рас оса, ант и:ш”, - дәдь. Мән а:нт и:штъм. А:қсаққалам хәммә гә:пләнъ сөлләп: “Шу ба:ла йи:пәкнь ^Воғьлладь”, - дәдь. Қа:зь ^Вунь сө:зьнь қуватладь. Маңа қарап қа:зь: “Йи:пәкнь не:рә гьзләдъң, алғанда йа:ньңда бьрәв ба:мәдь?” - дәп сорадь. Мән айттьм: “Иби, - дәдьм, - мән йи:пәкнь ^Воғьлламадьм, - дәдьм, - мәнъ ^Вөзъм ә:р ва:қьттан ^Вө:й йа:на бър гәльп гьтәмән, мән гәсәм, йи:пәкнь ^Воғьллаңнаньна үч гү:н боған әкән, йәнә мән ^Вунь кьм мьнән ^Воғьлльйман?” - дәдьм. Қа:зь мәнъ гә:пъмә қу:лақ салмада:м, маңа: “Қьрқ тьлла төльйсән”, - дәп хө:күм чьқардь. Шүндәтьп, а:там бар ду:йнасьнь сатьп, зо:рдан қьрқ тьлла төләп, мәнъ қутқарьп алвәдь (Хива шахри).

Айзада

Бър варәкән, бър йоғәкән, бър па:шшань А:йзада дьйән қы:зь варәкән. бър гү:нь А:йзада а:тась вълән шәтрәнч ^Войньйдь, а:тасьнь утадь. А:тасьна и:ззә вәрьп: “^Вө:йнь ^Вө:й етәдо:нам ха:тьн, ^Вө:йнь йоқ әтәдо:нам ха:тьн”, - дьйдь. ^Вуннан соң, а:тась: “Йәнә ^Войньймьс”, - дьйдь. Йәнә:м ^Войньйдьла. А:йзада йәнә ^Войнап, а:тасьнь утадь, үчньжь мәртә ^Войнағанда:м шунньйн боладь. А:йзада йәнә а:тасьна и:ззә вәрьп: “^Вө:йнь ^Вө:й әтәдо:нам ха:тьн,

^Вө:йнь йок этәдо:нам ха:тын”, - дыйдъ. А:йзадань а:тась уйальп чыкып гытәдъ. Па:шша қы:зынь сө:зынә дым қа:рь гәләдыда:н, са:райна варып: “Жа:лладла, барың, қы:зымнь ^Вөлдърьң”, - дыйдъ. Па:шшань бър ха:қыллық вәзи:рь варәкән, и:шу вәзи:рь: “Па:шшайым, бьлйән бьлып сөллъйдъ, бьлмәйән гүлп сөллъйдъ, навчун ^Вөлдърәмьс, сәвәпнь айтың!” - дыйдъ. Па:шша бо:ан гә:пнь айтады. Ха:қыллық вәзи:рь: “^Вунныйн о:са, ^Вөз қы:зыңьзынь ^Вөлдърьп нәтәсыз, ^Вөлдърмьйн бър ди:ва:на:а вәрәмьс, жазасынь тартып йүрьйвәрсьн”, - дыйдъ.

Шуннан соң қы:зынь чө:ллькә чықарадыла. Чө:лдә Мә:ткәрьм дәйән бър кәмма:л йантақ чапып йүрьйәнәкән. Вәзи:р Мә:ткәрьмнь қычрады, Мә:ткәрьм вәзи:рнь йа:ньна гәләды. Соң: “Саңа и:шу қы:зынь вәрәмә, аласаммы?” - дыйдъ. Мә:ткәрьм: “Йок, маңа ха:тын гәрәкмьйдъ!” - дәп қалтырьйдъ. Вәзи:р: “Алмасаң, сәнъ ^Вөлдърәмә!” - дыйдъ. Шуннан соң Мә:ткәрьм: “Йахшь әсә, алама”, - дыйдъ. Вәзи:р қы:зынь Мә:ткәрьмнь ^Вөйньнә ташап, соң қайтып гытәдылә.

А:йзада та:йха тыкындә дү:йна:да бърьнжъ әкән. А:йзада та:йха тыкәды, Мә:ткәрьм ба:зара аппарьп сать(б) гәләды. Шунныйн әтып, и:ккьсь ге:джәнъ-ге:джә дәмьйн, гү:нньзынь гү:нньз дәмьйн, и:шләп, йахшь ^Вольп гытәдылә, ^Вө:йлә салып аладыла.

Бър гү:нь А:йзада а:тасынь чакьрып. у:лль зыапат вәрәды. зыапатта шәтрәнч ^Войныйдыла. Па:шша хәммәнъ утады. соң А:йзада ә:рьнь ги:йьмьнь гьйып, па:шша вьлән шәтрәнч ^Войныйды. А:тасынь утады. Соң и:ззә вәрәды: “^Вө:йнь ^Вө:й этәдо:нам ха:тын, ^Вө:йнь йок этәдо:нам ха:тын”, - дыйдъ. Соң А:йзада ба:шындакь чө:ьрмәнъ чықарады. Па:шша қараса, ^Вө:зынь қы:зы. Соң па:шша у:лль то:й әтәды. Па:шшачьлькынь қы:зына вәрәды, мьрат - махсатларына йетәдылә. (*Urganch tumani, Chakka sholikor qishlog'i*).

Xorazm xalq qo'shiqlaridan

Ә:льмдә йү:зыкьм қа:шы қалқадь,
Қалққанда:ам су:в йү:зындә қалқадь,
Ань гө:ңль гү:ндә-гү:ндә гәләджәк,
Нә:ладж әтсьн а:пасьннан қорқадь.

И:ккъ ту:тнь арасьннан қарь:йман,
Моторкәңнь а:вазьннан даньйман,
Моторкәңнь а:вазьнь ьшьтмәсәм,
^вӨ:йә варьп, ро:мал альп йьльйман.

Ту:т йегәммән а:йвандағь ту:тьңнан,
Мән айнаныьн тавлап қойан бу:ртыңнан,
Йазан ха:тларьма джувап пәрмәсәң,
Қувдьраман Хь:йва дә:ән йу:ртыңнан.

А:йақьмда зәрль кә:вьш қадақль,
Деймә ба:ла, мән бьрәвә адақль,
Гү:ндә бары:н дәсәм, и:зъм сорақль,
А:хшам бары:н дәсәм, а:йла қараңь.

Ә:нъндә дже:мпьрь дар әкән,
^vӨзь хо:ш пьчьмлль йа:р әкән,
Арқасьннан ьхлас мьнән қарасам,
Ба:бамьзьң айтқаньча ба(р) әкән.

Qipchoq lahjasi
Samarqand viloyati “дж”lovchi shevalaridan namuna
Qulota qishlog‘i

Айт-айт Кәръм, қалқа айт, айт, айтқан қалар.
Чулдьраған тьльндь қатқа салар.

Бул дунйада ^войнаған, күлгән қалар.
Ардақлаған джаньңнь ақыр алар.

^вӨлән қайдан чыгады сөз бомаса,
Кым джетәләп джүрәды көз бомаса,
Адамзатты бекәпән көмәрәкән,
Сарт тоқыған сарала бөз бомаса.

Арғымақтың баласы харьмайды,
Дәрә дыйды джүрәккә сарьмайды,
Джахшыға айтқан сөзың дасмайды,
Джаманга айтқан сөзың парьмайды.

Бешты бешкә қоссаңнар ^вом болады < үн бұлады,
^вОн тоқлынъ терьсы том болады, <түн бұлады.
Джыгытты алған йары джақшы боса,
Быр муратқа джеткәнъ шо(л) болады.

Тойға мьнып кегәнъм джыйрән чыбар,
Қой- қойдағы қувмақ сөз быйдән чығар,
Джыгыттың алған йары джақшы боса,
Тал чыбықтай буралып үйдән чығар.

Арғымақтың баласы харьмайды,
Дәрә дыйды джүрәккә сарьмайды,
Джыгыттың алған йары джақшы боса,
^йЕки джеңъ сьрәйм тозьмайды.

Тойға мьнып келгәнъм қуралай көк,
Авдарылып чапаман айылым берк.
Қызды көргән джерьмдә қылығым көп,
Кымыз сорап ычәмән сувсадым деп.

Тойға мьнып келгәнмән чыбарьмды.

Чъбарьмға тақкамман томарьмдь,
Беш, алть авьз сөзьм басып айссам,
Тарқатар тәмәкъдәй кумарьмдь.

Той-той базар, той базар боса бүгьн,
Уй айлана кумар көз қонса бүгьн,
Джақшьлар қьзыл гулдәй толса бүгьн,
Джаманнар джапрақ больп солса бүгьн.

Tamahrin qishlog‘i shevasi

Xatirchi tumani.

Туврь бълән Ейрь

Қадьм заманда бър қышлақта бър джыгьт барақан. ^ВОнъ ать Туврьбайақан. ^ВОнъ бьттәгьнә аррық атьдан башқа хеш не:сәсь джоғақан. Барьп-барьп қышлақта ьш қамапть, шоннан соң о атьнь мьньп мәрдыкәр ьшләшкә кетьпть. О атть мьньп джол джурьпть, джол джүрсәйәм, мол джурьпть Джолда уңа бър пьйәдә кьшь джолдаш бопть. ”Қайға бараджатырсан?”- депть Туврьбай. “Мәрдыкәрчлькқа,” - депть хальгь адам. Туврьбай ^Вонъ атьнь сораса, уңа Ейрьбай дев айтпть. О йам Туврьбайдь атьнь сорав ағандан кей айтпть: “Екәвьмьздь атьмьз джьдә масақан, ке, джора боламьс”, - депть. Туврьбай ^Воньң пьйәдә джүргәньгә рә:мь кеб, уңа атьнь бергәнәкән, о боса атть мьньп бър хамчь урьп, джөнәп қапть. Туврьбай ньмә қьльшьнь бълмәй кетьверьпть. Бър орманға джетьп өрдә бър тандьрға көзь чүшьпть. “Ке, қараңьда джүргәнчә, шо тандьрдь ьчьгә кьрьп джатай”, - депть. Бу джәй хайаваннардь бәзм қьлатьрған джәйкән, арслан пашшайақан, о ^Воньндан турьп мейльсть башлапть. О гәпьрьп боғаннан кей, түлкь дастан башлапть: “Шо ормандь арқасьда бър ғар бар. Мен шо ғарда тураман. О джердә көрпә-төшәктәр, авқаттар, хәммәсь бар.” ^ВОннан кей шағал гәб башлапть: “Мен турайтқан джердә бър чьчқам бар. ^ВОнъ қьхта тыллась бар, әр күнь о шо тыллаларьнь аптапқа апчьгьп ^Войнайды”. Еннь навват айкқа кепть: “Шо ^Ворманда бър дарах бар. ^ВОнъ ектә шахь бар. О көв дәрдыкә дува. Шул мәмләкәттә

пашшасънънъ қъзы көб джылдан беръ кәсәл боб джатыпть. Шо бәркләрдь към шашшанънъ қъзыға берсә, о тузәлып кетәдь”. Айықтан соң бөръ гәб башлапть: “Шо вормандь нарьджағьда бър байдь қъх мьнъ қойь бар, мен шо қойлардан әр куни ектәсънъ джъймән, шо арада бър бавайдь бър күчъгъ бар. Ә:әр шо күчүхть бай аса, менъ шо күчүх қойларға қоймайдь.” Шо гәбләрдь Туврьбай хәммәсънъ ешътыпть. Шо арада күн чъғыпть. Туврьбай аввал туврь түлкь айтқан ғарға барьпть, ^Вөрдәкь авқаттардан джепть-дағьн, пъчъ дәм апть. Соң шағал айтқан тевәгә қарап кетъпть. ^ВӨрдә чъчқандь тавупть, ^Вонь ^Волдъръп, қъх тылласънъ апть. Соң байдьн алдьға барьп, уңа: “Қойларьнъсть сақлап қасам нъмә берәс”, - депть. ”Қъхта қой берәмән,”- депть бай. Туврьбай туврь бөръ айтқан бавайдь алдьға барьп, ^Вонь күчүгънъ сатьвапть. Шоннан соң қойлар бөрьдән қутульпть. Кей(ън) Туврьбай шә:ргә барьпть, ^Вөрдә пашшанънъ сарайьға барьп, өзънъ пашшанънъ қъзынъ түзәтъшънъ айтыпть. ^ВОнъ пашшанънъ сарайьға кърътыпть. Туврьбай пашшанънъ қъзыға айығ айтқан бәрктъ езып перьпть. Қъз ^Вон күндә түзәлыпть. Пашша хурсан боп қъзынъ Туврьбайға берьпть. Бър джейгә уңа үй курып перьпть.

Күннәрдән бър күн о Ейрьбайдь көрп қапть. О Ейрьбайдь үйьга кърғъзып мехман қыпть. Ейрьбай бу байлық мьнән хүрмәткә қандай джеткәнънъ сорапть. Туврьбай уңа боған вақыйалардь айтып перьпть. Ейрьбайам туврь барьп шо тандърға кърп джатыпть. Кеч боғаннан соң хәммә хайваннар джъйльпть. хәммәсъ ышләр чәппә кеткәнънъ айтыпть. Шо вақ бър чъмчық учьп кепть-дағьн: “Чақъмчы тандърда,”–деп қъчърьпть. Хәммә хайваннар тандърға қарап джүгүрьпть, ^Вөрдәкь Ейрьбайдь көрп, ^Вонь ғаджып тәйләпть. Шуннай қып, Туврьбай мурат-махсатъға джетъпть.

Yangi o‘zbek transkripsiyasiga o‘girilgan matnlar

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi

Farg‘ona viloyati shevalari

Bir äpändi bär äkän. U bir kuni jeñi etig äpti, uni kijip koçägä çiqipti. Qäräsä, hiç kim ungä “etigiñ qulluy osin” demäjmiş. Äpändi bir

āšnāsini āldigā bārip, etigini qoli bilān korsātip, diyārmiš: “Āgār šu etigim bilān seni bir tepsām, ho ānejgā bārip čušāsān”. Shu āpāndi jānā bir jeņi šim, topli āp kijip, jeņi sā:āt tāqip, kočādā ketjātsā, hič kim qārāp hām qojmāsimiš. Šundā āpāndi jonidān otup ketajturyān bir bolā uni šimini kir qip ketipti. Āpāndi bolāni čäqirvolip diyārmiš: “Hej bolā, āgār māni šimimni kir qigāniņ učun seni mānā šu jeņi topli bilān bir tepsām, beš minittā olāsān”, - diyārmiš sā:ätini korsatip.

Farg‘ona viloyati shevalari

Kunlārdān bir kun ilān ārigā dunjādā nimāni eti širin ekānligini sorāp, dunjādāgi bārčā etlārđi tātip kelišti bujuripti. Āri ketipti. U dunjāni ājnālip, butin etlārđi tātip, kečigip qālipti, qāldiryāč undān xābār āliš učun jolgā čiqtıpti. Joldā ārigā duč kelip, undān sorāpti: “Dunjādā nimāni eti širin ekān”, - dep sorāsā, āri ājtipti: “Dunjādāgi bārčā etlārdān ādām eti širin ekān”, - depti. Qāldiryāč ārini: “Tilijni čiqr bir opāj”, - depti. Āri tilini čiqrāgānākān, tilini čišlāp, uzvālipti.

Āri sāqov hāldā ilāndi āldigā bāripti. Ilān āridān nimāni eti širinligini sorāgānākān, āri yuņyillāp žāvāp ejtālmāpti. Qāldiryāč ājtipti: “Dunjādāgi bārčā jāxši etlārdān qurbāqāni eti širin ekān, dijāpti”, - depti. Šundān bujān ilāndi jemiši qurbāqā eti bolip qālgānākān.

Koson shevasi

Bir bārākān bir joyākān qādim zāmāndā bir kiši bogānākān. U kišini uštā oyli bārikān. Kunlārdān bir kun u kiši āyir kāsāl bolib qālipti, kättā oylini čäqirip šunnāj depti: “Oylim, meni jāšāšdān korā olimim jāqin qālli. Āgār mān olsām, gorimni uč kun pājlejsāmmi?” - depti. Oyli: “Joq pājlemājman”, - depti. Šunnāj kejin u ortānči oylini čäqirtiripti. Lekin ortānči oyli hām ātāsini gorini učh kun pājlaškā rāzi bomāpti. U kiši qättiq xāpā bopti vā kenžā oylini čäqiripti: “Oylim, mabādā mān olip qālsām, gorimni uč kun pājlejsāmmi?” - depti. Kenžā oyli uč kun emās, jus kun disājām pājlaškā tājjārligini ājtipti. Ārādān bir nečči kun otkānnān kejin u kiši oлъртъ. Ātāsidān qālgān merāsni uč oyil bolip āptilā. Lekin ektā kättā oyil māišāt, ojin–kulgigā berilip ketipti. Tez kundā ulā ozlārigā qārāšli bogān mirāsni ičib tāmām qiptilā. Ulādā hič nersā qāmāpti. Ulāni hār kuni birgā māišāt qilājkan doslārijām tājlāp ketipti. Šjnnān kejin ulā ukālārini āldijā kelip pul sorāptilā. Kenžā oyil

ākälärini gäpini qäjtärälmäj ulägä pul beräveripti. Lekin ulä tez kundä bu puldijäm içip tāmām qipti vā jänä ukälärini äldijä keptilä.

Kenžä oyil ātāsi olgännän kejin birinči kuni gorgä bāriпти. Bir četkā otivālip, gorni päjlāj bāšlāпти. Bir päjt āsmānnän bir qärä āt tušipti vā gorni uč mettä äjnālip ketäjkāndä, kendjä oyil ātti ušlāvāпти. Šundä āt šunnāj deпти: “Män ātājni ātijdim, ātāj olgännän kejin uni gorinä zijārät qilišgä čušgānidim. Ägär kerāj bop qāsām, mänä bir jālني tutätāsän”, - dip jālidän julip beripti-dä, āsmāngä kotāriliпти. Ikkinči kuni bir zāngär āt kelip (kev?), gordi uč mättä ejnālip ketejkāndä, oyil unijām ušlāvāпти. U ātām jālidän julip berip, kozdän gājip boпти. Učiniči kuni bir sāmān āt kepti. Ujām gordi uč mättä ejnālip endi ketejkāndä, oyil ušlāvāпти. U ātām jālidän uč tälä julib berip, kozdän joqāliпти. Kenžä oyul uvgä kelip bu sirdi ākäläri gä äjtmäпти. Äkäläri içip kenžä oyildijäm bār - joyini kokkā sāvuriptilä. Šunnän kejin ulä bošqā jurtkä bāš āp ketiptilä vā bir kišigä čopānlikkā išgä kiriptilä. Kunlādän bir kun ākäläri kenžä oyilni qojlāni äldigä qāldirip, ozlāri šä:ärgä čušip ketiptilä. Ulä šä:ärgä bārip šunnāj xābārdi ešitiptilä: ägär kimdākim āt minän qirq zinālik nārvānnän čiqip pāššāni qizini qolidän suv içip, uzugini ālip čussä, pāššā qizini ošāngä berädi. Ulä uvgä kelip, bu xābārdi kenžä oyilgä äjtiпти. Kenžä oyil mānijām ābārijlā, dip jelinsājām ākäläri uni ābārmäпти. Šundä kenžä oyil qärä ātti jālني tutātiпти, ustigä kijimlāri minän āt päjdā boпти. U kijimlāni kijip, pāššā sārājigä jol āпти, zināni äldijä bārip, ātgä bir qāmči uripti, āt 38 zinägä čig‘ipti. Kenžä oyil ātini bāšini qājirip čušip ketipti vā heč nersä kormāgāndāj pādägä qārāp juripti, ākäläri kelip, bugungi bogän vāqijāni gāpiripti. Ikkinči kuni kenžä oyil zāngär āt minän bāriпти, 39 zinägä čiyip, qājtip ketipti. Učiniči kuni sāmān āt minän bārip 40 zinägä čig‘ipti. Pāššāni qizidän suv ālip içipti, qolidän uzugini ālip čušip ketipti vā pādāsini bāqip jurijvuripti. Pāššā šunnāj bujruq čiqāriпти: “Hämmāni qolini juvdirip čig‘ijlā”, - dip. Lekin 40 zinägä čiqqän āzāmātti tāpāmmäпти. Pāššā: “Kim qālli, jänä, qolini juvmāgän”, - diпти. Hizmātkārlā bir pādāči qāgānini ejtiпти. Pādāčinijām čäg‘irip, qolini juvdiriptilä vā uni qoligä uzukti koriptilä. Šunnāj kejin pāššā 40 kečāj-u, 40 kunduz toj qilip, qizini kenžä oyilgä beripti vā pāššālijdijām

tāpširipti. Kenžā oyil ektā ākāsini vāzir qilip āpti vā mālikā minān birgā murāt māxsätigä jetipti.

Ләтпә

(prof.E.D. Polivanov Turkiston shevasidan yozib olgan)

Ešäk, ökiz, tujä äsrätläšipti, ešäk depti: “Doslar, men šu dujnaya káp (kelib – A.S.), bir nä:sä körmästin armanda ketjappan”. Ular sorapti: “Ni:ni körmädiñ”, - depti. Ešäk etipti: “Šu vaxxači:(j) bir ässiñ nanyinani qajmaqqa batirip jijamadim”. Ökiz etipti: “Seniñ armaniñ armammī? Meñ (mening – A.S.) armanimni ešit, men šu vaxxači:(j) jaxši ässiqqana šalyam šorpa i:čamiñ ketjappa(n)”. Tujä etädi: “Eköviñniñäm armaniñ e:š nä:sägä turmijdi. Meñ armanimni ešitiñär. Meñ armanim šu vaxxačiñ jaxši ässiqqana sandalya tö:t ayañimni sa::p otiramastin ketjappa(n)”.

Ertäk

(prof.E.D. Polivanov Turkiston shevasidan yozib olgan)

Bar äkä, joy äkä, böri bākävül äkä, tülki jasavul äkä, čimčiq čaqıymčī äkä. _Bir qarya bilä bir qozī bar äkä, jürip-jürip ekövi dosti bopti. Qarya qozičaqa qarap: “Dostī, dostī, - depti, - qujruyındin bir čoqit-či”, - depti. Qozī: ”Tumšuyiñ haram. Barip dajradin juvip kä”, - depti. Qarya dajraya baripti.”Dajra, dajra, berñ (aslida:berñ) suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz”, - depti. Dajra etipti: “Suv berädoyon idišim joq, külaldin barip közä äkkä”, - depti. Qarya külalya baripti: “Külalči äkä, beriñ közä, alij suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz”, - depti. Külal: “Tajjar közäm joq, sayčiya barip say (soz tuproq –A.S.) äkkä”, - depti. Qarya sayčiya baripti. “Sayči äkä, beriñ say, apparij külal, qisın közä, alij suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz”, - depti. Sayči: “Kijik šax(mügüz) äkkä”, - depti. Qarya kijikčigä baripti. “Kijikči äkä, beriñ šax, alij say, apparij külal, qisın közä, alij suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz”, - depti. Kijikči etipti: “Kijiklar süjt işmäsä, šax bemijdi, süjtčidin barip süjt äkkä”, - depti. Süjtči: “Sigirlär pičan jemäsä, süjt bemijdi”, - depti. Qarya pičančigä baripti: “Pičanči äkä, beriñ pičan, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin šax, alij say, apparij külal, qisın közä, alij suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqip, bolij semiz”, - depti. Pičanči etipti: “Oraq joq, oraq äkkä, orip perämä”, -

depti. Qarya oraqčiya baripti: “Oraqči akā, beriñ oraq, aliñ pičan, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin šax, aliñ say, apparij külal, qisın közä, aliñ suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqıp, bolij semiz”, - depti. “Tajjar oraq joq, kömirčidin barip kömir äkkä”, - depti. Qarya kömirčigä barıptı: “Kömirči akā, beriñ kömir, apparij usta, qisın oraq, aliñ pičan, jesin sigir, besin süjt, issin kijik, besin šax, aliñ say, apparij külal, qisın közä, aliñ suv, juvij tumšiq, qozičaq čoqıp, bolij semiz”, - depti. Kömirči bir xalta kömir bepti. Kömiriñ içidä bir dana čoq bar akā, kömirni qarya arqalap barapqan akā, haliyi čoqtin kömir ot ap ketip, qarya küjip ölip qapti.

O‘g‘uz lahjasi
Xorazm viloyati Xonqa tumani Qoraqosh
qishlogi shevasi
Ertak

Bir varäkän, bir joqäkän, qadi:m za:manda bir pa:šša bo:an äkän. I:nšu pa:ššanı ä:šikini ä:ldindä bir da:rax va: äkän. I:nšu da:raxni bir jo:rpayı a:ltinnan, bir jo:rpayı kü:müštän äkän. Gü:llädä bir gü:n är gü:ni bir jo:rpaq joq oladi ämiš. Soñ pa:šša sa:raj a:damnarini sa:qçiliq ä:tmäkä qojipti, lekin ^volaram jo:rpaqni kim oyillap getisini bilmäptilä, coñ pa:ššanı ba:laları sa:qçiliq ätiptilä. Gänzä ba:lası sa:qçiliq ätip duran va:xda u:xisi gälädi. Šonda ^vo ba:rmaqına gäsip du:z säpädi. Da:ña qarap bir qu:š gälip, bir jo:rpaqni ^vü:zup alipti. Munı görjän pa:ššanı balası qu:ša qarap ^voq ätipti, lekin qu:šın bir pä:ti düşip, ^vö:zi uçup gätipti. Pa:ššanı gänzä ba:lası pä:tni alıp, äkäsini (otasining) ä:ldinä baradi. Soñ äkäsini ^vüş balasını jıynap/ jıñnap, i:nšu qu:šni tavup gälišini ajtadi. Pa:ššanı ba:laları qu:šni qarap jo:la çıqadila. Jo:l jürüsälää:m, mol jürüp, uš jo:liñ gäsilän jerinä gälädiä. Bi jo:llara “barsa gälmäs”. “barsa gälär”, “barsa gäliši guman” döp qojilyan äkän. Pa:ššanı gänzä ba:lası “barsa gälmäs” däjän jo:ldan, a:yalari qalyan jo:lladan getädilä, gänzä ba:lası uzaq jo:l jürüp harip qaladi, soñ bir a:yaçın sa:jasında u:xlap qaladi. U:xlap jatqan va:xtında bir bu:rjut gälädi, balanı ujatıp, ^vunнан ma:xsadini sorıjdi, Bu:rjut qu:šni tapıša ji:jitä jardam ätadi. Jijit bu:rjut vilä qu:šni tapadila. Ji;jit qu:šni i:ndi oyillijzaq bop duranda, ä:lä(qo‘lga) düşädi. Qu:şuñ a:pası ji:jitni öldirišä bujuradi, lekin bu sö:zinnän qajtadi.

Ji;jitā qoṅṣī ä:lätin pa:šsasini qī:zīni alip gāsān (äkkāsān), saṅa qu:šni vārāmā, dijdi. Ji;jit bu:rjut vilān birjā jo:la čiqadi. ^vUla qī:zni tapadila. Ji;jit qī:zni i:ndi oyillijzaq bop duranda, bunīsida-da ä:lā dūšadi. Bizā ^voninčun uçar a:t tapip gāsān, saṅa qī:zni vārāmā, dijdi a:pasī. Ji;jit bu:rjut vilān birjā uçar a:t tapadila. Soṅ ^vu hajjarliq ātip, uçar a:t onnina a:ta ajlanan bu:rjutni vārip, qī:zni aladi. Soṅ qu:šuṅ a:pasina qī:za ajlannan bu:rjutni vārip, qu:šni aladi. Qu:šni alip, ju:rtina qarap gitadi, bu:rjut vilān xošlašadi. Bu:rjut ^vuṅa pä:tinnān vāradi. Ji;jit jo:lida a:ḡalarina joliqadi, a:ḡalarī ji;jitni ä:lindiji qu:šni görip, ^vuni ^völdirāžāk ^voladi. Ü:kāsi qiličini saja ātip jatqanda, a:ḡalarī qiličini urup jaradila. Qilič gānzā ba:lanī a:jaqini čapadi. A:ḡalarī qī:zni, uçar a:tñi, qu:šni alip gitadilā. Ä:kāsi ^vulanī bi:rini pa:šša, bi:rini vāzi:r ātip sajlījdi, a:jaqī čapilyan gānzā ba:la äsā bu:rjutni jardama qičirip düzäladi. Osin ä:kāsinā varip, ba: gā:plāni ajtadi. Ä:kāsini qa:rī gālip, ulli ba:lalarini zī:ndana saladī, gānzā ba:lasina qirq ge:čā, qirq gü:ndüz to:j vārip, qī:za ö:vlāntirāidi, ^vuṅa pa:ššačiliqnī vāradi. Šundij ātip, gānzā ba:la miratma:xsadina jetadi.

Gurlan tumani Olg‘a qishlog‘i shevasi¹⁸

Gü:lländä bir märtädä:m boyammasiz? Bomayan bosañiz ešitiṅ. Mān sizärä kičkinā Gü:llān haqqında ajtip pärāmā. Azan minām turdiq-ta, a:xšam Samarka:ttaṅ kegān žo:ram A:sqar minām (ä:rmijädä birgā bovī:dīq) ča:j ičip bop, ma:šinya otirdīq.

¹⁸ Bu sheva Xorazmning ko'pgina shevalaridan farqli xususiyatlarga ega.

Rü:stämniñ to:jına kegän äkän. A:sqardñ iltıması minäm äväldi Gü:llänä barıp, osin to:jya baratovyn boldıq. Minä minav, qalxazimizdñ bayı. A:sqardñ havas minäm altındaj tavonıp turyan e:riklärinä, şa:xlapı sinı:n döp turyan a:lmalarına qarap kijatıyanını körüp, tüşüntirmä:ä qaradım.

- Zor-qu, - dädi A:sqar, - Samarqa:ttñ ba:ylarına, oxşı:däkän.

- Şunun uçuna:m burunnarı qarılar “ Kä:rlän “ däsälär, i:mdi – Gü:llän, – dijdi-dä, irastanam, jaxşı bovatır xazırları. Hämmä ža:jda quruliş.

A:sqar minäm käjp etip qıdırdıq. Su:vya tüşätovyn kö:lgä bardıq. Häzzätip, qajıqqa mindik. Qa:rmaq qurdıq, lijkın hämmä-hämmädä:m ba:lıq tutavirmijdi-da... Ba:yya barıştı, ki:noya kirişti, i:ndijskij ki:no bovatır äkän, to:jdan soñya qaldirdıq. Axır, to:jya keç bop ketti. Barsaq, to:j eli (hali) başlammaptı. Rü:stämniñ käjpi zor. Bügün, axırp, jaxşı körgän qızınıñ to:ji bovatıryan bosa, unda käjp bomaj, kimdä bosın, ekoviä:m du:xtır.

Du:xtırçılıqta Samarqa:tta oxıyan. O-бі i:şlärđi etip, mijman savıp, kelinniñ kegäninä:m bilmäppän. Bizärdä mijmannarya köbinčä jaşlar xızmat etädi. Bir mä:li kelindi ma:şinnan çüşirgän qızlar ja:r-ja:r ajtmaya qaradı. Qızlar kelinniñ atınnan kijövgä gül apparadı. Ärti:slär ojnhamaya qaradı. Başlandı «tojlar mubäräk». To:jarimizdñ bir qızziyi bardı-da. A:sqar dım hajran boldı. Bälki Samarqa:ttñ to:jarı başqača bolatovyındı. Menäm körmädım-av Samarqa:ttñ to:jarını. Tojda A:sqardı hajran qaldıryan narsä kelinniñ atınnan salam ajtuv, kijöv žo:ralar süzülişip “Belbav čečiş “. A:sqardñ tojdan dım vaxtı xoş on qajttı. Axır, ^Bonı Gü:llänniñ ädätläri dım hajram qaldırıptı-da, ertäninä jenä Gü:llängä bardıq. Gü:lländi qıdıryavsın dajra bojına bardıq, işqılıp, A:sqardı to:j bä:nä qıdırtırdım. Bizärdän vaxtı xo:ş on ketsä boyanı. Jaqi:nda A:sqardan xat aldım. Jazda ĩenä baraman depti.

Xorazm termalaridan

Nama:şşamnan çiqqan a:jla batmayaj,

Şul ja:rıma gälän da:vlat qajtmayaj.

Gälmi:n-gälmi:n, bir gälipsis to:jıma,

Doqqıs a:qşamyača da:ñla atmayaj.

ʋÜ: čäkiḡnän kä:ptär ʋučip ʋötmägäj,
Männän bašqa jara kö:ḡlün gitmägäj.
Männän bašqa ja:ra kö:ḡlün gitändä,
Tapqan ja:rīḡ ʋuč a:ptaya jetmägäj.

Kä:stimiḡni kim pičipti dar ätip,
A:ya bilä sölläšmi:sän har ätip,
Sölläšmäsä, sölläšmäsin har ätip,
Män gitämä qa:damīma zar ätip.

Qara sa:čim ja:ryinimda, bä:limdä,
Mäni ja:rīm özi Ürgänč ä:lindä,
Ža:nīm pī:da osin šunī jo:linda,
Gül jü:zli sävärim, xa:ta žuvap pār.

Bä:är gäldi, gü:llä äktim gö:čämä,
Gü:llärimä su:v salama tü:nčädä,
Ba:ya girip gü:llä därsän, nä bolyaj,
Gälip, mäni ha:līm sorsaḡ, nä bolyaj.

Qipchoq lahjasi
Bekobod Eski ovul qishlog‘i shevasi

Hämmä žaqta saratan qizip ždžatir. O aptabustan čušip kettä žoldan šä::rčägä qarap žürä baštadi. Žol žayasida paxta egilgän edi. O birdän paxtazarya qarap buruldı. Är bir tüp paxta xuttı ^voyan ijilip salam beräžatqandaj edi. Baražatip uzaqta kötarilgän chañ-tozandı körip qaladı. Bu chañ-tozan ^voyan qarap keläberädi, qarasa, bir mašin tola qizlar keläžatir. ^vOlar davušlariniñ bariča ašula ajtip keläžatir edi. O mašin ^votip ketkänčä qarap turdı. Käj jänä ketä baštadi. ^vOniñ əsli atı Qoşqar. Näkin ^vortaqları äzilläšip Shajir dijdi. Shajir degänčäjäm bar. O är zaman - är zamanda šeräm žazip turadi. Qoşqar keš baqqanda üjigä žetip aldı, üjigä kirip apası äpkegän avqattan azyana žep, däräv žatip qaldı. O žudä čarčayan edi. Bügün o qanča žol žürdi, aqir.

Surxondaryo viloyati Shorob qishlog‘I shevasi

Ertak

Ilgäri adamnar zuda köv zašajdı aqan. ^vOlar ekki miñ, uš miñ, atta ^vonnan köv žašasajam ^volim žoyaqan. Bir žigittiñ atası qarip qaptı. ^vOnı endi başqa žejgä, čölgämä čiyarip täjläškä tuvri kepti. Žigit atasini uzaq arqasida kötarip žüripti, aqiri čarčap, bir aq taštın üstigä kev (kelip) otiripti. Šonda heš saza čiqmaj žatqan čal külü(v)žüväripti. Žigit xajram boptı, čünkö atası gäpiriškäjäm bomaj qayan aqan-da. Atasidan külganiniñ säväbini surasa, atası ajtipti: “Ilgäri menäm atamdı kötarip kelip, šo žejdä däm alivedim, ^jendi meniñäm bašima čüšti.” Žigit atasini qajtarip ap kev (kelip) baya baštaptı. Bir kün šavqun-surannan tilsiz čal jana tilga kiripti. Ulıdan soraptı: adamnar nimä natiniš? Šonda ulı žu(v)ap beripti: žurtta suvsizliq, adamnar šuñ natiniš. Atası ulıya bir paqir berip: “Sen bir zamburđı u:slap, ajayına žip bäjlä-da, adamnardi ijartip, šo učqan tamanya qarap žür, o qajžejdä suv barliyni bilädi”, - depti. Žigit xuttı šondaj qiptı. Zambur bir yarya kirip ketipti, adamnar izidan barsa, suv barağan. Šüjtip, qari čal xaliqqa žaxšiliq (jaxšiliq) qiřanaqan. Qari bilgändi päri bilmäs, degän maqal šonnan qalyan dijdi.

G‘uzor tumani, Mang‘it qishlog‘I shevasi

Luqmoni Hakim

Luqmanī Hākim žašayan dāvrdā bir kāttākān baj boyanaqan. O žuda bādāvlātākān. Onī bittājū-bittā ulī baraqaqan. Baj bir vaxlar goš žijmān dep, tamayīya sūjāg tīyīlip qayanaqan. O bajdī uzax vax qijnap žatqanaqan. Baj žuda kušli tāviplārgā özini kōrsātipti, nekin ilaž tappapti. Šonnan kej Luqmanī Hākim tuvrīsīdayī ikājālārdi ešitipti. Hākimdi tapīš üçin turli tarapqa adam žüväripti. Aqīri Hākimdi tavup kepti. Luqmanī Hākim bajdī kōrgānnān ajtipti-qo: “Sizgā uluñizdī qanī dava, unī sojip qanīdan i:ččāñiz, tüzälāsis”, - deпти. Baj ojlap-ojlap ulīni sojīšqa ruqsat beripti. Hākim balanī māxtāpidān čayirtīrip, baj žatqan tamdī naryīsīya ötkāripti. Balaya čüčüntīrip ajtipti-qo: “Men qojdī bašini keskānnān, sen “vaj atažan, siz üçin öldim”, dep činqīrasan”, - dep balanī kōndīripti. Hākim qojdī sojyannan bala dad salīpti. Baj ulumnan ažraldīmma, dep šondaj qattī nar tartīpti-qo, tamayīya tayalīp turyan sūjāg birdān čiyīp ketipti. Kej Hākim bajdī ulīni qajta tapšīrip, bajdan žuda kōv savyalar ayanāqan.

Samarqand viloyati

Qulota qishlog‘i shevasi

Aytishuv

Ulbaš:

Anav qīrdīn arqasī Sārsābizdi (r),
Bizdi ¹eldīn mallarī kōv semizdi (r),
^vOn ¹eki aj žumasīn sorasañis,
^vOn ¹eki aj žumasī qīr sākkizdi (r).

Kārim:

Qulatanīn žollarī qalīn tarbīz,
Qalīn tarbīz ^vözimgā mālim tarbīz.
Ajtīssañ ajtišaber, hāribbazīm,
Ajtīšmasañ, ketāmān üjüm žalyīz.

Ulbaš:

Qīz ajtadī qīzīldī kijmādim dep,
Ul ajtadī žūjūrūk at mimmādim dep,
^vOramīn kelgān tojda ^vojna-da, kül,
Arman qīlip ajtišīp qanmadīm dep.

Kārim:

Ej häribbaz, uruyiñ qırqma, žuzmä,
Ketti dep bizlärdän güdär üzmä,
U kečä ketkämänäm bir ajlanip
Kelämis^j endigi žil žana küzgä.

Ulbaš:

Sen degännän žaqšidir siz degäni,
Qırq qazınanñ biri qız degäni,
Oramñ kelgän tojda^v ojna-da, kül,
On^v eki ajda bir kelär küz degäni.

Kärim:

Boran tursa, quvanar ala qarya,
Quvalašip qonadi duvallarya,

Aldiñña kelgän adam ketämmäjdı,
Oqip turyan aldiñda duañ barma?

Ulbaš:

Öländi ajtar bolsañ, kel qašima,
Taqija tigip peräj bašñña,
Tigip pergän taqijam žarašmasa,
Qajazyayñ tögilsin žanbašñña.

Kärim:

Ölän ajssañ barajñ men qašñña,
Taqija tigip persañ käl bašima,
Tigip pergän taqijañ kijip alip,
Alipqana žatajñ žambašima.

O‘zbek dialektologiyasidan test topshiriqlari namunalari

1. O‘zbek dialektologiyasining predmetini aniqlang:

- A. O‘zbek shevalarini o‘rganadi.
- B. O‘zbek dialektlarini o‘rganadi.
- D. O‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarni o‘rganadi.
- E. O‘zbek tilidagi sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganadi.

2. Lingvistik geografiya nima?

- A. Shevalarning leksikasini yozma ravishda o‘rganadi.

- B. Shevaga xos xususiyatlarni o‘rganadi.
- D. Shevaga xos xususiyatlarni kartada aks ettirish orqali o‘rganadi.
- E. Shevaning grammatik xususiyatlarinigina xarita orsali o‘rganadi.

3. “Transkripsiya” so‘zining ma'nosi nima?

- A. Bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o‘tish.
- B. Yozuvda tovushlarni aniq ifodalash.
- D. Qayta yozish.
- E. Harf va tovush munosabatini belgilash.

4. ä, e unlilari tavsifi to‘g‘ri aks etgan qatorni toping.

- A. Old qator, yuqori-tor.
- B. Old qator, lablangan.
- D. Old qator, quyi-keng.
- E. Old qator, lablanmagan.

5. Chig‘atoy, o‘g‘uz, qipchoq lahjalari qaysi olim tasnifida tilga olingan?

- A. Polivanov Y. D.
- B. Reshetov V. V.
- D. Borovkov A. K.
- E. Yunusov G‘.O.

6. Labial singarmonizmning tavsifi qaysi qatorda to‘g‘riroq berilgan?

- A. So‘zdagi unlilarning old qator va lablanganlik darajasiga ko‘ra uyg‘unlashuvi.
- B. So‘zda lablangan unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlariga ko‘ra uyg‘unlashuvi.
- D. So‘zdagi lablangan unlilarning uyg‘unlashuvi.
- E. So‘zdagi orqa qator lablangan unlilarning uyg‘unlashuvi.

7. Tovush mosligi mavjud so‘zlar qatorini belgilang.

- A. teräk, terägi
- B. oraq, orayï
- D. toppi, doppi
- E. ketdi, ketti

8. Qaysi dialektlarda o‘rin-payt, chiqish kelishiklari va egalik affikslari orasida “n” undoshi orttiriladi?

- A. Toshkent, Samarqand.
- B. Xorazm, Samarqand.
- D. O‘g‘uz, qipchoq.
- E. Xorazm, Sariosiyo.

9. Toshkent shevasida *-lar* affiksi qaysi turkum soʻzlariga qoʻshilib hurmat maʼnosini ifoda qiladi:

- A. Faqat otlarga.
- B. Faqat feʼllarga.
- D. Ham otlarga, ham feʼllarga.
- E. Ham sifatlarga, ham feʼllarga.

10. Toshkent va Samarqand shevalari qaysi unlining qoʻllanish-qoʻllanmasligiga koʻra farq qiladi?

- A. e va ā
- B. a va ā
- D. i va e
- E. e va ā

11. Sheva deb:

- A. Oʻzbek tilining kichik territoriyasiga oid qismiga aytiladi.
- B. Oʻzbek tilining oʻziga xos leksik xususiyatlariga oid bir qismiga aytiladi.
- D. Sheva territorial tildir.
- E. Oʻzbek tilining leksik, fonetik va grammatik xususiyatlariga ega boʻlgan kichik qismiga aytiladi.

12. Oʻzbek adabiy tiliga berilgan nisbatan toʻliq taʼrifni aniqlang:

- A. Oʻzbek adabiy tili asrlar davomida bir qolipga tushgan, silliqlashgan tildir.
- B. Oʻzbek adabiy tili milliy tilning yuqori bosqichi boʻlib, soʻz sanʼatkorlari tomonidan sayqal berilgan, bir qolipga solingan tildir.
- D. Oʻzbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, meʼyorlashgan tildir.
- E. Oʻzbek adabiy tili leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan bir qolipga solingan, soʻz ustalari tomonidan silliqlangan tildir.

13. Fonetik transkripsiyaga berilgan taʼrifni belgilang:

- A. Tarixiy yodnomalardagi matnlarni talaffuz qilish normalarini belgilab beruvchi yozuv sistemasidir.
- B. Fonemaning variatsiyalari va variantlari boʻlgan konkret nutq tovushlarini yozib olishda qoʻllanadigan yozuv sistemasidir.
- D. Toʻgʻri talaffuz normalarini aks ettiruvchi harflar yigʻindisidir.
- E. Toʻgʻri yozish va talaffuz qilishga xizmat qiladigan belgilar sistemasidir.

14. a, ā unllilariga berilgan toʻgʻri tavsifni belgilang:

- A. Umumturkiy unllilardir.

- B. Orqa qator unlilardir.
- D. Barcha shevalarda uchrovchi unlilardir.
- E. O‘zlashgan unlilardir.

15. Qarlug‘-chigil-uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari kimning tasnifida aks etgan?

- A. Polivanov Y. D.
- B. Reshetov V. V.
- D, Yudaxin K. K.
- E. Yunusov G‘.O.

16. Umlaut deb:

A. Oldingi bo‘g‘indagi unliga keyingi bo‘g‘indagi unlining moslashishiga aytiladi.

B. Keyingi bo‘g‘indagi unlining oldingi bo‘g‘indagi unliga ta'sir etishidir.

D. Affiksdagi unlining o‘zakdagi unliga ta'sir etishiga aytiladi.

E. Affiksdagi old qator unlining o‘zakdagi orqa qator unliga ta'sir etishi va o‘z xarakteriga o‘xshatib olishiga aytiladi.

17. Unli va undoshlar mosligi qanday nomlanadi?

- A. Assimilatsiya.
- B. Dissimilatsiya.
- D. Spirantizatsiya.
- E. Akkomodatsiya.

18. -luk, -luy, -lu: affikslari qaysi shevada ko‘plik ma'nosini ifodalaydi?

- A. Qurama shevalarida.
- B. Marg‘ilon shevasida.
- D. Qorako‘l shevasida.
- E. Toshkent shevasida.

19. Toshkent dialektiga xos hozirgi zamon fe‘l tuslanishini aniqlang.

- A. bārāmmān
- B. barjatīrma(n).
- D. bārvāmmān.
- E. bārāttim.

20. -səmvz affiksi qaysi dialektda va qaysi fe‘l shaklini hosil qiladi?

- A. Shimoliy o‘zbek shevalarida, I shaxs buyruq-istak shakli.
- B. Toshkent dialektida, I shaxs buyruq-istak shakli.
- D. Toshkent dialekti, I shaxs shart-istak birlik shakli.

E. Toshkent dialekti, I shaxs shart-istak ko‘plik shakli.

21. Dialekt deb:

A. Bir-biriga teng bo‘lgan shevalar yig‘indisiga aytiladi.

B. Bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalarni bildiradi.

D. Dialektlar asosida shevalar paydo bo‘ladi.

E. Leksik, fonetik va morfologik jihatdan yaqin bo‘lgan hamda o‘zbek tilining nisbatan kattaroq territoriyasiga oid qismiga aytiladi.

22. Adabiy tilning tayanch dialektiga to‘g‘ri baho berilgan qatorni aniqlang.

A. Adabiy tilning leksik normalarini tayanch dialekt belgilaydi.

B. Adabiy tilning eng muhim fonetik va morfologik normalari tayanch dialektdan olinadi.

D. Adabiy tilning rivojlanishi tamoyillarini tayanch dialekt belgilab beradi.

E. Tayanch dialekt adabiy tilning barcha normalarini belgilab beradi.

23. *u, ü* unlilari tavsifi to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping.

A. Orqa qator, lablangan.

B. Old qator lablangan.

D. Yuqori-tor, lablangan.

E. Old qator, yuqori-tor.

24. Turk-barlos shevasi qaysi olim tasnifida tilga olinadi?

A. Polivanov Y. D.

B. Reshetov V. V.

D. Yudaxin K. K.

E. Yunusov G‘. O.

25. Ushbu ta'riflardan qaysi biri singarmonizm qonunini to‘g‘ri ifoda qiladi?

A. Unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlariga ko‘ra uyg‘unlashuvi.

B. Unlilarning old qator va orqa qator hamda lablanish darajasiga ko‘ra uyg‘unlashuvi.

D. So‘zda dastlabki bo‘g‘indagi unlining xususiyatiga ko‘ra keyingi bo‘ginlardagi unlilarning uyg‘unlashuvi.

E. So‘zda dastlabki bo‘g‘indagi unlining orqa qator va old qator lablangan va lablanmaganligiga ko‘ra keyingi bo‘g‘indagi unlining uyg‘unlashuvi.

26. Kontrast juft unlilar berilgan qatorni toping.

- A. a - ā
- B. ä - e
- D. i: - i
- E. o - ö

27. Qaysi dialektlarda o‘rin-payt va jo‘nalish kelishiklari almashinib qo‘llanadi?

- A. Toshkent va Farg‘ona.
- B. Qorako‘l va Xorazm.
- D. Namangan va Andijon.
- E. Qashqadaryo va Surxondaryo.

28. O‘g‘uz lahjasiga xos harakat nomi affiksini aniqlang.

- A. -jāp, -maq
- B. -maq, -māk
- D. -māk, -š
- E. -v, -maq

29. Qaratqich kelishigining -iη, -iη, -uη, -üη affiksi qaysi shevalarda qo‘llaniladi?

- A. Barcha shevalarda.
- B. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda.
- D. Singormonizmli shevalarda.
- E. Qipchoq lahjasi shevalarida.

30. Qipchoq lahjasi uchun xarakterli bo‘lgan harakat nomi affiksini ko‘rsating.

- A. -maq
- B. -v
- D. -š
- E. -uš.

31. Lahjaning ta'rifini aniqlang.

- A. Bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar jamidir.
- B. Bir-biriga yaqin bo‘lgan dialektlar jamidir.
- D. Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan dialektlarni birlashtiradi.
- E. Lahja - bu aslida til, sheva ma’nolarini anglatadi.

32. O‘zbek lahjalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.

- A. O‘g‘uz, qipchoq, Jizzax.
- B. O‘g‘uz, qirg‘iz, Qoraqalpoq.
- D. O‘g‘uz, qipchoq, qarluq.
- E. O‘g‘uz, nayman, qarluq.

33. o, ö unililari tavsifi qaysi qatorda berilgan:

- A. Quyi-keng, lablangan.

- B. Yuqori-tor lablangan.
- D.Oʻrta-keng, old qator.
- E.Oʻrta-keng, lablangan.

35. Palatal singarmonizmning toʻgʻri javobini belgilang.

- A. Soʻzda unlilarning old qator va orqa qator xususiyatlariga koʻra uygʻunlashuvi.
- B. Soʻzda unlilarning old qator xususiyatlariga koʻra uygʻunlashuvi.
- D.Soʻzda unlilarning lablanganlik xususiyatlariga koʻra uygʻunlashuvi.
- E.Soʻzda unlilarning old qator va orqa qator hamda lablanganlik xususiyatlariga koʻra uygʻunlashuvi.

36. Ikkilamchi choʻziq unlilar qanday yuzaga kelgan?

- A. Soʻzdagi biror unli tovushning tushib qolishi natijasida paydo boʻladi.
- B. Soʻzdagi biror undosh tovushning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- D. Soʻzdagi biror boʻgʻinning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- E. Soʻzdagi urgʻu oʻrnining oʻzgarishi bilan yuz beradi.

37. Tushum kelishigi qaratqich maʼnosida qaysi shevalarda qoʻllanadi?

- A. Toshkent, Shimoliy oʻzbek shevalari.
- B. Toshkent, Samarqand.
- D.Toshkent, Qarshi.
- E. Toshkent, Forish.

38. -žan affiksi qaysi dialektida xotin-qizlar ismiga qoʻshilib hurmat maʼnosini ifodalaydi?

- A. Toshkent dialektida.
- B. Samarqand dialektida.
- D. Xorazm dialektida.
- E. Andijon dialektida.

39. -žäk, -ažaq affikslari qaysi lahjada qoʻllanadi?

- A. Oʻgʻuz lahjasida.
- B. Qorakoʻl shevasida.
- D. Qipchoq lahjasida.
- E. Qarluq-chigil-uygʻur lahjasida.

40. Quyidagilardan qaysi biri lahja emas?

- A. Qarluq.

- B. Qipchoq.
- D. Qozoq-nayman.
- E. Qarluq-chigil-uygʻur.

41. Oʻzbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Oʻrta oʻzbek.
- B. Qarluq.
- D. Doʻrmon.
- E. Jaloyir.

42. Oʻzbek adabiy tilining tayanch dialektlari koʻrsatilgan qatorni belgilang:

- A. Toshkent, Fargʻona.
- B. Toshkent, Andijon.
- D. Samarqand, Toshkent.
- E. Fargʻona, Namangan.

43. i, ĩ: unlilari tavsifi toʻgʻri berilgan qatorni belgilang.

- A. Yuqori-tor, lablanmagan.
- B. Quyi-keng, lablanmagan.
- D. Orqa qator, yuqori-tor.
- E. Orqa qator, lablangan.

44. Dialektolog olimlarni koʻrsating.

- A. Asqarova M., Shoabdurahmonov Sh., Abdurahmonov Gʻ.
- B. Shoabdurahmonov Sh., Abdullayev F., Ibrohimov S.
- D. Abdullayev F., Reshetov V., Abdurahmonov Gʻ.
- E. Shoabdurahmonov Sh., Aliyev A., Rahmatullayev Sh.

45. Birlamchi choʻziq unlilarning saqlanib qolishi qaysi omilga bogʻliq?

- A. Biror unli tovushning tushib qolishi hisobiga yuz beradi.
- B. Biror shevaga boshqa shevalarning taʼsiri natijasida yuzaga keladi.
- D. Qadimgi turkiy tildagi choʻziq unlining saqlanib qolishi natijasidir.
- E. Shevaga boshqa turkiy tillarning taʼsiri natijasida paydo boʻlgan.

46. Oʻzbek shevalarida kelishiklarning eng kam miqdori va qaysi dialektlarda qayd qilinadi?

- A. 5ta, Toshkent va Fargʻonada.
- B. 4ta, Qipchoq va oʻgʻuz lahjasi dialektlarida.
- D. 4ta, Surxondaryo va Buxoroda.
- E. 4ta, Jizzax va Andijonda.

47. -lar/lär ko‘plik affiksi qaysi shevalarda qo‘llaniladi?

- A. Toshkent shevasida.
- B. Buxoro o‘zbek shevalarida.
- D. Singarmonizm qonunini saqlagan shevalarda.
- E. Assimilatsiya qonunini saqlagan shevalarda.

48. -čä affiksi qaysi shevalarda erkalash, kichraytirish, ma’nosini ifodalashda qo‘llanmaydi?

- A. Shimoliy o‘zbek shevalarida.
- B. Farg‘ona dialekti shevalarida.
- D. Jizzax dialektida.
- E. Toshkent dialektida.

49. Qaysi qatorda egalik affikslari variantlari qo‘llangan?

- A. -im, -si
- B. -in, -siz
- D. -i, -k
- E. -miz, -dir

50. η undoshi to‘g‘ri tavsifi berilgan qatorni toping.

- A. Til oldi, portlovchi.
- B. Til orqa, qorishiq portlovchi.
- D. Til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi.
- E. Til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi.

51. Bārāvuz fe’li qaysi dialektida qo‘llanadi va qanday fe’l shakli?

- A. Toshkent dialektida, I shaxs aniqlik mayli ko‘plik shakli.
- B. Toshkent dialektida, I shaxs aniqlik mayli jamlik shakli.
- D. Toshkent dialektida, I shaxs aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon birlik shakli.
- E. Toshkent dialektida, I shaxs aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon, ko‘plik shakli.

52. Dialektal leksika deganda nimani tushunasiz?

- A. Faqat muayyan shevaga xos bo‘lgan so‘zlar.
- B. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan so‘zlar.
- D. Biror shevaga xos bo‘lgan barcha so‘zlar yig‘indisi.
- E. Barcha shevalarda uchraydigan so‘zlar.

53. Transliteratsiya nima?

- A. Shevalarni yozib olishda qo‘llanadigan yozuv tizimi.
- B. Bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o‘girish.
- D. Matnlarni qayta yozib chiqish.
- E. Talaffuz me’yorlarini belgilab beruvchi yozuv.

54. O‘zbek shevalarida unililar miqdori to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

- A. 7-8 ta.
- B. 6-13 ta.
- D. 9-10 ta.
- E. 6-12 ta.

55. -lär/lar affiksi qaysi lahjada hurmat ma'nosini ifodalashda qo‘llanmaydi?

- A. Shimoliy o‘zbek shevalarida.
- B. Forish lahjasida.
- D. O‘rta o‘zbek dialektida.
- E. Qarluq lahjasida.

56. “H” undoshi qo‘llanmaydigan shevani ko‘rsating:

- A. Toshkent.
- B. Sayram.
- D. Xorazm.
- E. Buxoro.

57. Assimilatsiyaga uchragan tovushli so‘zni toping:

- A. Mämläkät - mälmäkät
- B. Doppi - toppi
- D. Däptär - däptärri
- E. Dunjā - dujnā

58. O‘zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Samarqand.
- B. Qipchoq.
- D. Buxoro.
- E. Marg‘ilon.

59. O‘zbek tili tarkibidagi lahjani aniqlang.

- A. Toshkent.
- B. O‘g‘uz.
- D. Jaloyir.
- E. Baxmal.

60. Fonematik transkripsiya nima?

- A. Konkret nutq tovushlarining talaffuzini aks ettiruvchi yozuv.
- B. Tarixiy obidalar matni talaffuzini belgilovchi yozuv.
- D. Fonemalarning talaffuzini aks ettiruvchi yozuv
- E. Fonemalarni ajratuvchi belgi.

61. Unlilarning uchlamchi cho‘ziqligi qaysi dialektda yorqinroq ko‘rinadi?

- A. Namangan shahar dialektida.
- B. Namangan atrof shevalarida.
- D. Andijon dialektida.
- E. Fargʻona dialektida.

62. Tasdiq ifodalovchi “hava” soʻzi qaysi shevalarda uchraydi?

- A. Sariosiyo shevasida.
- B. Xorazm shevalarida.
- D. Forish shevasida.
- E. Iqon shevasida.

63. Qorabuloq shevasi V.V.Reshetov tasnifi boʻyicha qaysi lahjaga kiradi?

- A. Oʻgʻuz
- B. Qipchoq
- D. Shimoliy oʻzbek
- E. Qarluq, oʻgʻuz.

64. Soʻz boshida “k” undoshi qaysi lahja shevalarida “g” undoshiga almashadi:

- A. Iqon shevasida
- B. Qorabuloq shevasida
- D. Xorazm shevalarida
- E. Turkiston shevasida

65. “Shayboniy-oʻzbek dialekti” deb nomlangan shevalar guruhi qaysi olimning tasnifida aks etgan?

- A. Reshetov V. V.
- B. Yudaxin K. K.
- D. Borovkov A. K.
- E. Polivanov Y. D.

66. “ājimgilū” soʻz shakli Toshkent shevasida:

- A. Faqat oyisini bildiradi va hurmat maʼnosini anglatadi
- B. Oyisi va singlisini bildiradi
- D. Otasi va onasini anglatadi va hurmat bildiradi.
- E. Onasi va oila aʼzolarini bildiradi va hurmat ifodalaydi

67. Soʻz boshida “j” oʻrnida “ž” ishlatadiganlar qaysi lahja vakillari?

- A. Qarluq, qipchoq
- B. Oʻgʻuz, qipchoq
- D. Qipchoq
- E. Qarluq

68. Prof. Y.D. Polivanov va V.V. Reshetovlarning o‘zbek shevalari tasnifida farqlanadigan asosiy atamalar qaysilar?

- A. Qarluq-chigil uyg‘ur, chig‘atoy
- B. Qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq
- D. Chig‘atoy, o‘g‘uz
- E. Qipchoq, o‘g‘uz

69. “Diftong”ga berilgan aniq javobni belgilang.

- A. Unlilarning cho‘ziq talaffuzi
- B. So‘z boshida unlilar oldida artikulatsiyasi yaqin bo‘lgan unli va undoshlarning orttirilishi
- D. So‘z boshida unlidan oldin undoshlarning orttirilishi.
- E. So‘z boshida unlining qisqa talaffuz qilinishi.

70. Lablangan unlilar qatorini toping.

- A. ä, ü
- B. a, u
- D. o, u
- E. a, i

71. Lablanmagan unlilar qatorini toping.

- A. o, ä
- B. o, ö
- D. o, u
- E. a, i

72. Shevalardagi hozirgi zamon davom fe’li hosil qiluvchi affikslar qatorini toping.

- A. -dik, -dïq
- B. -āp, -vāt
- D. -gänmān, -ibmān
- E. -alï, -äsi

73. Xorazm shevalarida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligiga xos shaklni belgilang.

- A. barajïq
- B. bārijlu
- D. baralï
- E. bārsin

74. Tovush mosligi mavjud bo‘lmagan qatorni belgilang.

- A. jer - žer
- B. dedi - dādi
- D. kel - gäl
- E. bār-ber

75. Qaysi tovush so‘z boshida qo‘llanmaydi?

- A. p
- B. f
- D. η
- E. l

**“O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANIDAN O‘QUV
AMALIYOTI TOPSHIRIQLARI**

“O‘zbek dialektologiyasi” kursi bo‘yicha standart talablarga ko‘ra, sheva materiallarini to‘plashni ko‘zlagan o‘quv amaliyoti o‘tkaziladi. Bu amaliyotdan maqsad talabalarning muayyan bir sheva vakili bilan jonli muloqotga kirishib, undan shu shevaga xos bo‘lgan xususiyatlarni yozib olish va shu orqali o‘zbek shevalari to‘g‘risidagi bilimni mukammallashtirish hamda ularda tadqiqotchilik malakalarini shakllantirishdir. Bunda har bir amaliyotga chiqqan talaba oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollarga javob olish bilan birga, savol-javob jarayonida ma'lum bir voqeani, xalq og‘zaki ijodi namunalarini aytish jarayonida betakror (original) til faktlarini ilg‘ab olishga ko‘proq ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. O‘quv amaliyotiga chiqishdan oldin, albatta, uning ilmiy rahbari talabalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan hamda zamonaviy texnika bilan qurollantirishi va tegishli maslahatlar berishi lozim bo‘ladi.

O‘quv amaliyotini amalga oshirish shakllari:

1. Ilmiy rahbar boshchiligida 12-13ta, yoki guruh talabalarining yalpi biron tuman yoki qishloqqa borib, o‘sha joyning sheva vakillaridan material to‘plash. Amaliyotning bu turi dialektologik ekspeditsiya ham deyiladi. Iqtisod va sharoit taqozo qilsa, bu amaliyot samarali shakl hisoblanadi, chunki talabalarda bir-biridan o‘rganish imkoniyati bo‘ladi. Bu amaliyot natijalari bo‘yicha talaba hisobot yozadi va u o‘rnatilgan tartiblarda guruh rahbari tomonidan baholanadi.

2. Ilmiy rahbarning ishlab chiqqan rejasi asosida talaba individual tarzda savolnomadagi vazifalarga o‘z shevasi yoki ilmiy rahbar belgilagan sheva bo‘yicha material to‘plab keladi va uni referat shakliga

keltiradi. Bu referat rahbar tomonidan tekshirilib, oʻrnatilgan tartiblarda baholanadi.

Oʻquv amaliyotiga talaba ovoz yozib olisg asboblari, imkoniyati boʻlsa vidiokamera bilan chiqishi maqsadga muvofiqdir. Talaba dialektologik amaliyotga chiqishdan oldin quyidagi namunada dastur (lekin bu dastur ijodiy rivojlantirilishi va tegishlicha oʻzgartirilishi mumkin) bilan qurollantiriladi:

1. Shevasi oʻrganilayotgan aholining yashash joyi haqida umumiy maʼlumot, aholining milliy tarkibi, ularda oʻzbeklarning nisbiy miqdori, aholi punkti atrofidagi sheva vakillari, boshqa millat vakillari haqida maʼlumot. Sheva vakillarining kasb-kori.

2. Shevaning oʻzbek shevalari tasnifidagi oʻrni.

3. Shevada **a**, **ā** unlilarining mavjudligi.

4. Singarmonizmning qaysi turi shevada qoʻllaniladi: a) palatal singarmonizm saqlangan soʻz va grammatik shakllar qatnashgan ikki jumla yozing; b) labial singarmonizm elementlarini saqlagan soʻz shakllaridan beshta misol yozing.

5. Birlamchi va ikkilamchi choʻziq unlilar saqlangan soʻzlarga beshtadan misol keltiring.

6. Diftong unlilar bormi? Diftonglashishning qanday shakllari uchraydi?

7. Adabiy tildagi jarangsiz undoshlar shevada qaysi oʻrinlarda jaranglashadi? Misollar yozib, sharhlab bering.

8. Adabiy tildagi jarangli undoshlar shevada jarangsizlanishiga misollar keltiring.

9. Adabiy tilda soʻz boshida qatnashadigan undoshlar shevada qaysi undoshlar bilan almashishi mumkin? (masalan, doʻppʻ – toʻppʻ).

10. **H** undoshi talaffuzda bormi? U qaysi oʻrinlarda oʻzining adabiy tildagi mavqeyini saqlab qoladi? Misollar keltiring. **H** undoshi talaffuzda yoʻq boʻlsa, uning oʻrni qanday toʻldiriladi? Misollar yozing.

11. Adabiy tildagi **F** undoshi shevalarda qanday variantlarga ega boʻladi? Misollar yozing.

12. **B** undoshi **v** va **p** ga oʻtishi mumkinmi? Misollar yozing.

13. **L** undoshining soʻz boshida qoʻllanishiga misollar keltiring.

14. Umlaut hodisasiga (āt - ätä) misol keltiring.

15. Sheva “**j**”lovchi shevami yoki “**ž**”lovchimi? Soʻz boshida **j** yoki **ž** undoshlari qatnashgan oʻnta misol yozing.

16. Qo‘shma so‘zlarda fonetik o‘zgarishlar yuz beradimi? Masalan, bu yerda ~ *bördä*, beshta misol yozing, va fonetik o‘zgarishlarni izohlang.

17. So‘z boshida, o‘rtasida va oxirida tovush orttirilishiga misollar keltiring. Masalan: *ayvan – häüvan*, *aql – haql* va b.

18. So‘z urg‘usining turli turkumlardagi so‘zlar bo‘g‘inlariga tushishiga misol keltiring.

19. Shevada o‘zidan katta notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:

- ayollarga;
- erkaklarga.

20. O‘zidan kichik notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:

- singillarga;
- ukalarga.

21. O‘z ota-onasini, qarindosh-urug‘larini nima deb chaqiradi:

- onasini;
- otasini;
- onaning ukasi va akasini;
- otaning ukasi va akasini;
- onaning opasi va singlisini;
- otaning opasi va singlisini;
- onaning otasi va onasini;
- otaning otasi va onasini;
- opa-singillarning farzandlari bir-birlarini;
- aka-ukalarning farzandlari bir-birlarini.
- opasining erini nima deb chaqiradi?

22. Akasining qaylig‘ini nima deb chaqiradi?

23. Qaynota, qaynona kelinini nima deb chaqiradi? Yangi kelin qayinegachi, qayni va qayni singillariga ism qo‘yadimi? Qanday ismlar? Misollar yozing.

24. Non yopish jarayonida qo‘llaniladigan predmet va jarayon nomlari.

25. Ovqat pishirishda qo‘llaniladigan predmet va jarayon nomlari.

26. Ovqat nomlari.

27. Kunda bezovta qiladigan hashoratlar va gazandalarning nomlari.

28. Qushlar, parrandalar, ular mahsuloti nomlari

29. Mevali va mevasiz daraxtlarning nomi.

30. Sabzavot va poliz mahsulotlari nomlari.

31. Sheva vakillari kasb-kori bilan bog‘liq bo‘lgan 20 so‘zni yozing va izohlab bering.

32. Ko‘plik shaklini ifoda qiluvchi affikslar va ularning variantlari. Ko‘plik affiksining hurmat ma’nosida qo‘llanishi haqida ham ma’lumot bering.

33. Erkalash-kichraytirish affikslari.

34. Qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari. Bu kelishiklarning ayrimlari bo‘lmasa, unga izoh bering va shevaning o‘ziga xos turlanishidagi fonetik o‘zgarishlarga izoh bering.

35. Jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari. Bu kelishiklarning shevadagi o‘ziga xos turlanishi, fonetik o‘zgarishlariga izoh bering.

36. Sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi affikslar.

37. Olmosh turlarini yozing.

38. O‘tgan zamon fe’llari tuslanishiga misollar yozing (5ta shakl).

39. Hozirgi zamon fe’llari tuslanishiga misollar yozing (2ta shakl).

40. Kelasi zamon fe’llari tuslanishiga misolar yozing (3ta shakl).

41. Fe’llarning ravishdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

42. Fe’llarning sifatdosh shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

43. Fe’llarning harakat nomi shaklini hosil qiluvchi affikslar va ularning variantlarini yozing.

44. Shevaga xos bo‘lgan yana qanday faktlarni qayd qilgan bo‘lardingiz?

45. Bu savolnoma dasturga xalq og‘zaki ijodidan 2ta matn: 1 she’riy matn (kamida 10 qator) va 1 nasriy matn ilova qilish lozim (hajmi kamida 3 sahifa).

Baholash

Amaliyot topshiriqlarinining 1-44-savollariga to‘g‘ri javoblarning har biri 2 ball bilan baholanadi, 45-topshiriqning to‘g‘ri bajarilishi maksimal bali 12 baldir.

Mustaqil ta’lim uchun adabiyotlar

Абдуллаева Д. Ўзбек тили ашоба шевасининг фонетик хусусиятлари. НДА. – Тошкент, 1999.

Ashirboev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent:ТДПУ, 2011, 2013.

Бегалиев М. Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.

Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. НДА. – Тошкент, 1997.

Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: ФАН, 1991.

Ибрагимов Ю.М. Жанубий Орол бўйи шевалари тадқиқи. – Тошкент, 2000.

Ибрагимова З. Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шевалари қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи. НДА. – Тошкент, 2009.

Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

Муродова Н. Навоий вилояти ўзбек шевалари лексикаси. ЎТА. – Тошкент, 2000. 5-сон.

Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.

Набиева Д. А. Ўзбек тилида лисоний бирликларнинг инвариант-вариант муносабати.НДА. – Тошкент, 1998.

Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Мухаррир, 2011.

Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

Саидова М. Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. НДА. – Тошкент, 1995.

Тиллаева М. Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи.НДА. – Тошкент, 2006.

Тўйчибоев Б., Ширинов С, Қашқирли Қ. Туганмас бойликлар булоғи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991.

Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий, 2004.

Файзуллаев Б. Хидиров О. Диалектизмлар ва контекст // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент: ТДПУ, 2010.

Шералиев Ш. Э. Ўзбек тили Шарқий Хўжанд шеваларининг грамматик категориялари. НДА. – Тошкент, 2001.

Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё “же”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. НДА. – Тошкент, 1999.

Эргашев А. А. Андижон вилояти этнонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. НДА. – Тошкент, 2012.

Enazarov T., Karimjonova V. A., Ernazarova M. S., Mahmadiyev Sh. S., Rixsiyeva K. G'. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.

MUNDARIJA

Kirish	
O‘zbek dialektologiyasining asosiy tushunchalari	
Transkripsiya	
O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari	
O‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlari	
O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari	
O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlari	
Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi	
O‘g‘uz lahjasi	
Qipchoq lahjasi	
Areal lingvistika (Lingvistik geografiya)	
O‘zbek adabiy tili va dialektlar	
O‘zbek tilining dialektal bo‘linishi	
Amaliy mashg‘ulotlar uchun materiallar	
O‘zbek dialektologiyasidan test topshiriqlari namunalari	
“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan o‘quv amaliyot topshiriqlari . . .	
Mustaqil ta’lim uchun adabiyotlar	

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.	
Основные понятия узбекской диалектологии	
Транскрипция.	
Фонетические особенности узбекских говоров	
Морфологические особенности узбекских говоров	
Синтаксические особенности узбекских говоров	
Лексические особенности узбекских говоров.	
Карлуко-чигиле-уйгурское наречие	
Кипчакское наречие.....	
Огузское наречие	
Ареальная лингвистика (лингвистическая география)....	
Узбекский литературный язык и диалекты.	
Классификация узбекских говоров.....	
Материалы практических занятий	
Примерные тестовые задания по узбекской диалектологии	
Задания учебной практики по узбекской диалектологии.	
Литература для самообразования	

.

CONTENT

Introduction.....	
Basic concepts of Uzbek dialectology	
Transcription.....	
Phonetic features of the Uzbek dialects.....	
Morphological features of the Uzbek dialects.....	
Syntactic features of the Uzbek dialects.....	
Lexical features of the Uzbek dialects.....	
Karluk-Chigil-Uigur dialect.....	
Kipchak dialect	
Oguz dialect	
Areal Linguistics (Linguistic Geography)	
The Uzbek literary language and dialects.....	
Classification of Uzbek dialects	
Materials of the practical training.....	
Exemplary test tasks in Uzbek dialectology	
Assignments of educational practice in Uzbek dialectology	
Literature for self-education	

Ashirboyev Samixon, filologiya fanlari doktori, professor. 1946-yil 18-aprelda Qozog‘iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumanida tavallud topgan. 1968-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti(universitet)ni imtiyozli tugatib, shu dargohda ishlab kelmoqda. 1975-yilda nomzodlik, 1990-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va unga 1993-yilda professorlik unvoni berilgan. Turli yillarda kafedra mudiri, dekan, prorektor vazifalarida ishlagan. Oliy pedagogik ta’limni standartlashtirish bo‘yicha taniqli mutaxassis. Oliy ta’lim muassasalari uchun “Eski o‘zbek tili va yozuvi”, “O‘zbek dialektologiyasi”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” qo‘llanmalarining, Qozog‘iston Respublikasi o‘zbek maktablarining 5, 6, 7, 8, 9-sinflari uchun “O‘zbek tili” darsliklariga mualliflik qilgan. 200dan oshiq ilmiy va ilmiy-metodik ishlarning muallifi. O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalari, Xalqaro grantlar ishida ishtirok etgan.